

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

MAXSUS PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

MODULI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Buxoro – 2026

Mazkur o'quv uslubiy majmua Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassalarining maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, filologiya va psixologiya ta'lim yo'nalishlarini bitirgan mutaxassislar **defektologiya(logopediya)** kasbiy qayta tayyorlash 5 oylik kursining Namunaviy o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'quv uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Kengashining 2025 yil 30-dekabrdagi 5– sonli yig'lish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar: **U.S. Jumaev** - Buxdu “Psixologiya” kafedrası, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.
Akkiyeva Sh.B. – o'qituvchi

Taqrizchilar: **Sh.Olimov** – pedagogika fanalri doktori, professor.
Sh.M. Ulug'ova - BuxDU “Psixologiya” kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.
N.A. Bahrieva - BuxDPI “Pedagogika va psixologiya” kafedrası, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**O'quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2025 yil 30-dekabrdagi 5–sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

- I ISHCHI DASTUR
- II MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN
INTREFAOL O‘QITISH METODLARI
- III NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
- IV AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
- V GLOSSARIY
- VI ADABIYOTLAR RO‘YXATI
- VII NAZORAT SAVOLLARI

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi, 2024 yil 1 fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmonlari, 2016 yil 29 dekabrda "2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son, 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son, 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ-4312-son qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora- tadbirlari to'g'risida" gi 2019 yil 7 iyundagi 472-son, 2019 yil 12 iyuldagi "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 577-son qarorlari, 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 99-sonli buyrug'i, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash

to'g'risida"gi 99-sonli buyrug'i, 2023-yil 9-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli buyrug'i, shuningdek, ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadbiq etish yo'li bilan ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, bgacha muassasalarining sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini kasbiy qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

Jamiyatdagi kasbiy o'zgarishlar psixologiya fanlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. Psixologiyaning ko'pgina tarmoqlari jamiyat va shaxs munosabatlarini hamda mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga doir qonuniyatlarni tushuntirish, shaxsning mehnatga layoqatlilik darajalarini o'rgatish kabi dolzarb masalalarini o'zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi, xususan defektologiya sohasi ham bundan istisno emas. Har bir bolani uning rivojlanishda nuqsonlar kuzatilgan taqdirda maktabgacha yoshdanoq ta'lim shaklini to'g'ri tanlash, yakka ta'sir vositalarini aniqlash uchun chuqur psixologik-pedagogik o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, hozirgi zamon maxsus pedagogika va psixologiyasida bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni, nuqsonlarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishning zarurligi haqidagi fikrlar ta'kidlanmoqda. Ularda ta'lim jarayonida yuzaga keladigan va kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash hamda zarur bo'lgan psixologik-pedagogik yordamni ko'rsatish ishlarini bilishlari muhimdir.

Bolalarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularga maqbul bo'lgan ta'lim turini tanlash, ota-onalarga maslahatlar berish ishlarini maqsadga yo'naltirilgan va malakali ravishda olib borish zarur. Shularga bog'liq ravishda psixik va jismoniy rivojlanishida, xususan nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarni

differential psixologik-pedagogik tashxis qilish ko'p jihatdan defektolog – kadrlarni, logopedlarni sifatli qilib tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mazkur modul dasturi tinglovchilarning amaliyotda kasbiy-pedagogik qobiliyatlarini shakllantirishni nazarda tutgan bo'lib, bolalarning dars va darsdan tashqari tadbirlarda idroki, diqqati, xotirasi, tasavvuri va tafakkurini psixologik-pedagogik o'rganish va shular asosida mazkur xususiyatlarini korreksiya qilish yo'llarini belgilashga o'rgatishdan iborat.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi: maxsus pedagogika, psixologiya kursining asosiy maqsadi va vazifasi tinglovchilarda maxsus pedagogika nazariyasi hamda uni usullarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar ruxiyatining o'ziga xos xususiyatlari, ruhiy jarayonlarni usul o'rganuvchi psixologik test, uslubiyatlar haqida kurs tinglovchilariga bilim, malakalar berish. Berilgan bu bilim va tushunchalar birinchidan; nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning shaxsiy xususiyatlari haqida berilsa, ikkinchidan tinglovchilarning bu soxaga dunyoqarashi va e'tiqodlarini ham shakllantirishga katta xissa qo'shadi.

Modulning vazifalari:

- tinglovchilarda maxsus maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metodologik bilimlarni shakllantirish, ko'nikmalarni tarkib toptirish;
- tinglovchilarda maxsus pedagogika va psixologiya hamda uni usullarini amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikma, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Bu kursni o'rganish natijasida kurs tinglovchilari quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashlari lozim.

- rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni rivojlantirish va korreksiyalash jarayonida maxsus ta'lim-tarbiya rolini;
- korreksion-tarbiya jarayonini tashkil etish, tahlil etish va baholash, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar korreksion-tarbiya mazmunini;
- maxsus ta'limni tashkil etish shakllari va metodlari, maxsus ta'lim tamoyillarini;
- nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini;

- ruxiy jarayonlarini tekshirish uslublarini bilish;
- uslubiyatlar asosida bolalar ruhiy jarayonlari kamchiliklarini aniqlay bilish;
- nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning shaxsiy sifatlarini taqqoslash;
- o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish;
- maxsus ta'limni tashkil etish shakllari va metodlari, maxsus ta'lim tamoyillari qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;
- maxsus ta'limni tashkil etish shakllari va metodlari, maxsus ta'lim tamoyillarini qo'llay olish;
- respublikada maktabgachagacha ta'lim tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishiga o'z munosabatini bildirish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgachagacha ta'lim tizimiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish;
- davlatimiz rahbarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan maruzalarida ta'lim tizimini modernizatsiyalash bilan bog'liq vazifalarni amaliyotga tatbiq etish ***malakalariga ega bo'lishi lozim.***
- maxsus maktabgacha ta'limga qo'yiladigan psixologik talablar asosida va mashg'ulotlarga tashkil etish;
- mashg'ulotlarda tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va kasbga yo'naltirish;
- maktabgachagacha va maktab ta'limining kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonlariga milliy manfaat nuqtai nazaridan normativ-huquqiy hujjatlar asosida xulosalar chiqara olish ***kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.***

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Maxsus pedagogika, psixologiya moduli nazariy, amaliy va ko'chma mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Nazariy mashg'ulotlarda maxsus pedagogika, psixologiya fanining maqsad va vazifalari, maktabgacha ta'limga oid ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar, sensor nuqsonli

bolalarni bilish jarayonlarini o'ziga xosligi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish jarayonlarini o'ziga xosligi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutq xususiyatlari. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxs xususiyatlarining mazmun mohiyatini singdirishdan iborat.

Amaliy mashg'ulotlarda Maxsus pedagogika, psixologiya modulining maqsad va vazifalari, maxsus pedagogikaning muhim masalalari, mashg'ulotlarga qo'yilgan psixologik talablar, sensor nuqsonli bolalarni bilish jarayonlarini o'ziga xosligi. Intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish jarayonlarini o'ziga xosligi, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutq xususiyatlari va bolalarning faoliyat xususiyatlarini o'rgatiladi.

Mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, "Konseptual jadval", "T-sxema", "Aqliy hujum", "SWOT-tahlil" yoki "FSMU" metodlari bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning ta'limdagi o'rni

Tinglovchilarga turli nutq buzilishlariga ega bo'lgan shaxslarning umumiy va mayda muskul motorikasining buzilishlari xususiyatlari, reabilitatsiya metodikalari tizimidagi logoritmik (musiqali ritmik) tarbiya tamoyillari va usullari haqidagi bilimlarini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Modulning o'quv rejadagi boshqa bloklar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari", "Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi", "Inklyuziv ta'lim", "Nutq o'stirish maxsus metodikasi" kabi modullari bilan uzviy bog'langan holda logopedlarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini o'rttirishga xizmat qiladi.

Modulning ta'limdagi o'rni

Tinglovchilarni maxsus maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni o'rgatish hamda amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Fan mavzulari	Jami soat	Jami o' quv yuklamasi	Jumladan		Mustaqil ta' lim
				nazariy	Amaliy	
1.	Maxsus pedagogikaning maqsad va vazifalari, nazariy-metodologik asoslari	4	2	2		2
2	Maxsus pedagogikaning yo'nalishlari, tamoyillari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi	2	2		2	
3	Maxsus ta'limni tashkil etish shakllari va metodlari	4	2	2	2	2
4	Maxsus maktabgacha yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalari	2	2	2	2	2
5	Maxsus maktabgacha ta'lim tizimida korreksion ishlar samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilish.	2	2	2	2	
6	Suradopedagogika	2	2		2	
7	Nutq terapiyasi.	2	2		2	
8	Korreksiya pedagogikasi	2	2		2	
9	Inklyuziv ta'lim, dolzarbligi uning mohiyati	4	2	2		2
10	Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari.	6	6	2	4	
11	Sensor nuqsonli bolalarning bilish jarayonlarini o'ziga xosligi.	4	2		2	2
12	Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish jarayonlarini o'ziga xosligi.	4	4	2	2	

13	Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq xususiyatlari.	6	6	2	4	
14	Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni shaxs xususiyatlari.	6	4	2	2	2
15	Maxsus psixologiya diagnostikasining o'rnini. Eshitishning buzulish sabablari.	6	4	2	2	2
	Jami	64	50	20	30	14

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Maxsus pedagogikaning maqsad va vazifalari, nazariy - metodologik asoslari (2 soat)

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun,”Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi Qonun va boshqa me’yoriy- huquqiy hujjatlarni o’rganish va tahlil qilish. Maxsus pedagogikaning maqsad, vazifalari, nazariy- metodologik asoslari,

2-mavzu: Maxsus ta’limni tashkil etish shakllari va metodlari (2 soat)

Maxsus pedagogika yo’nalishlari, maxsus ta’limni tashkil etish shakllari va metodlari, maxsus ta’lim tamoyillari, maxsus pedagogikada sifat va samaradorlik masalalari mavzulari bo’yicha baxs – munozara o’tkazish

Maxsus maktabgacha yoshidagi bolalarni maktab ta’limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalari

3 -mavzu: Maxsus maktabgacha yoshidagi bolalarni maktab ta’limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalari (2 soat)

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalari. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda o’yin, mehnat faoliyatini shakllantirish.

4- mavzu: Maxsus maktabgacha ta’lim tizimida korreksion ishlar samaradorligini oshirish yo’llarini tahlil qilish. (2 soat)

Maxsus maktabgacha ta’lim tizimida korreksion ishlar mazmuni.

Maxsus maktabgacha ta’lim tizimida korreksion ishlar samaradorligini oshirish usul va vositalari

5-mavzu: “Inklyuziv ta’lim,dolzarbligi uning mohiyati (2 soat)

Inklyuziv ta'limga e'tiborning huququqiy-me'yoriy asoslari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning salohiyatini rivojlantirish maqsadida joriy qilingan umumta'lim maktablari tomonidan mazkur o'quvchilar uchun ular va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) ishtirokida individual o'quv dasturlari ishlab chiqilishi

6-mavzu: Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari.

Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari. Obekti va predmeti. Fanning rivojlanish tarixi va bosqichlari. Maxsus psixologiya fani sohalarini rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlar.

7-mavzu. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish jarayonlarini o'ziga xosligi.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda psixologik jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari. Sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutqiy jarayonlarining o'ziga xosligi va ushbu psixik jarayonlarni o'rganish usullarini o'rganish. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish tamoyillari haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish.

8-mavzu. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq xususiyatlari.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqining o'ziga xosligi. Nutq turlari. Rivojlanish – falsafiy kategoriya sifatida. Ruhiyatni rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar holati. «Muhit» tushunchasi, inson ruhiyatni rivojlantirishda muhitning ta'siri. Psixologiya, pedagogika, tabiatda rivojlanish yosh davrlari. Oliy psixik funksiyalarning rivojlanishida me'yori va «nuqson» tushunchalari. Rivojlanishning umumiy qonuniyatlari, rivojlanish davrlari, rivojlanish jarayonida ruhiyatdagi son va sifat o'zgarishlar, turli rivojlanish bosqichlarida faoliyatning turlicha bo'lishi. Bilish va hissiyiroda sohalarining rivojlanishdagi bog'liqlik. Nuqsonli rivojlanishning umumiy qonuniyatlari: birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar. Turli nutq nuqsoni ega bolalarning ijtimoiy moslashuvi xususiyatlari. Ijtimoiy moslashishdagi qiyinchiliklar, axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatidagi o'zgarishlar, nutqiy tizim ishtirokisiz yangi shartli aloqalarni ishlab chiqarish imkoniyati.

9-mavzu. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni shaxs xususiyatlari.

Maxsus psixologik muolaja va xizmatga aloqador shaxs haqida tushuncha, individ, individuallik tushunchalari. Shaxs muammosining psixologiya fanida o'rganilish tarixi, shaxsga yondashuv prinsiplari, psixologiya fanida individ va individuallik tushunchalarining mohiyati, tafovutlari kabi fenomenlar ochib beriladi.

10-mavzu. Maxsus psixologiya diagnostikasining o'rne. Eshitishning buzulish sabablari.

Maxsus psixologiya sohasiga mansub shaxs faolligi va faoliyati. Motiv va motivatsiya haqida tushuncha. Ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq - atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy xarakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirish o'rganiladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-амалий машғулот: Maxsus pedagogikaning yo'nalishlari, tamoyillari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi (2 soat).

Maxsus pedagogikaning yo'nalishlari,: oligofrenopedagogika (aqliy rivojlanishi orqada qolgan bolalar), surdopedagogika (eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar), tiflopedagogika (ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar), logopediya (nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar). Maxsus pedagogikaning tamoyillari: aks ettirish, determinizm, ong va faoliyat birligi, genetic tamoyillar. Maxsus pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi tahlili

2- амалий машғулот: Maxsus ta'limni tashkil etish shakllari va metodlari (2 soat)

Maxsus ta'limni tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ya'ni har bir bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan ta'lim va tarbiya usul va vositalarini aniqlaydi. Shu bilan birga, bolalarning munosabatini va faoliyati tashkil etilishini o'zgartiradi, turli o'quv qo'llanmalardan foydalanadi

3-амалий машғулот: Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash texnologiyalari. (2 soat)

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalarini tahlil qilish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda o'yin, mehnat faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish usullarini qiyosiy tahlil qilish, o'rganish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash texnologiyalar loyihasini

4-амалий машғулот: Maxsus maktabgacha ta'lim tizimida korreksion ishlar samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilish. (2 soat)

Maxsus maktabgacha ta'lim tizimida korreksion ishlar samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilish jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi, fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi. **Kreativ fikrlash:** O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. **Kritik (tanqidiy) fikrlash:** Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

5-амалий машғулот: Surdopedagogika. (2 soat)

Surdopedagogikaning asosiy vazifalari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik jihatdan har tomonlama o'rganish, maxsus maktabda til o'qitishni takomillashtirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzini shakllantirish ishlarini yuqori pog'onaga ko'tarish; eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish va uni takomillashtirish, eshitish idrokining rivojlanish tizimi samaradorligini oshirish, o'z bitiruvchilarining ma'lum bir kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish

6-амалий машғулот: Nutq terapiyasi (2 soat)

Maxsus pedagogikaning bo'limidagi nutq terapiyasi haqida, nutq buzilishlarining sabablari, mexanizmlari, belgilari kechishi, tuzilishi va tuzatuvchi harakatlar tizimini o'rganish.

7- амалий машғулот: Korreksiya pedagogikasi (2 soat)

Anomal bolalarga integratsion, inklyuziv, differentsial ta'limni tashkil etish uchun zarur shartsharoitlarni o'rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotga tadbiq etish.

8- амалий машғулот. Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari.

Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari. Obekti va predmeti. Fanning rivojlanish tarixi va bosqichlari. Maxsus psixologiya fani sohalari rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlar.

9- amaliy mashg'ulot. Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari.

Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari. Obekti va predmeti. Fanning rivojlanish tarixi va bosqichlari. Maxsus psixologiya fani sohalari rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlar.

10- amaliy mashg'ulot. Sensor nuqsonli bolalarning bilish jarayonlarini o'ziga xosligi.

Sensor nuqsonli bolalarni psixologik jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari. Diqqat, xotira, tafakkur, idrok, nutqi va sezgi jarayonlarining o'ziga xosligi. Ushbu psixik jarayonlarni o'rganish usullari. Bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish tamoyillari haqida ma'lumotlar beriladi.

11- amaliy mashg'ulot. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish jarayonlarini o'ziga xosligi.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda psixologik jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari. Sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutqiy jarayonlarining o'ziga xosligi va ushbu psixik jarayonlarni o'rganish usullarini o'rganish. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish tamoyillari haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish.

12- amaliy mashg'ulot. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq xususiyatlari.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqining o'ziga xosligi. Nutq turlari. Rivojlanish – falsafiy kategoriya sifatida. Ruhiyatni rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar holati. «Muhit» tushunchasi, inson ruhiyatni rivojlantirishda muhitning ta'siri. Psixologiya, pedagogika, tabiatda rivojlanish yosh davrlari. Oliy psixik funksiyalarning rivojlanishida me'yor va «nuqson» tushunchalari. Rivojlanishning umumiy qonuniyatlari, rivojlanish davrlari, rivojlanish jarayonida ruhiyatdagi son va sifat o'zgarishlar, turli rivojlanish bosqichlarida faoliyatning turlicha bo'lishi. Bilish va hissiyroda sohalarining rivojlanishdagi bog'liqlik. Nuqsonli rivojlanishning umumiy qonuniyatlari: birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar. Turli nutq nuqsoni ega bolalarning ijtimoiy moslashuvi xususiyatlari. Ijtimoiy moslashishdagi qiyinchiliklar, axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatidagi o'zgarishlar, nutqiy tizim ishtirokisiz yangi shartli aloqalarni ishlab chiqarish imkoniyati.

13- amaliy mashg'ulot. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq xususiyatlari.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqining o'ziga xosligi. Nutq turlari. Rivojlanish – falsafiy kategoriya sifatida. Ruhiyatni rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar holati. «Muhit» tushunchasi, inson ruhiyatni rivojlantirishda muhitning ta'siri. Psixologiya, pedagogika, tabiatda rivojlanish yosh davrlari. Oliy psixik funksiyalarning rivojlanishida me'yor va «nuqson» tushunchalari. Rivojlanishning umumiy qonuniyatlari, rivojlanish davrlari, rivojlanish jarayonida ruhiyatdagi son va sifat o'zgarishlar, turli rivojlanish bosqichlarida faoliyatning turlicha bo'lishi. Bilish va hissiyroda sohalarining rivojlanishdagi bog'liqlik. Nuqsonli rivojlanishning umumiy qonuniyatlari: birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar. Turli nutq nuqsoni ega bolalarning ijtimoiy moslashuvi xususiyatlari. Ijtimoiy moslashishdagi qiyinchiliklar, axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatidagi o'zgarishlar, nutqiy tizim ishtirokisiz yangi shartli aloqalarni ishlab chiqarish imkoniyati.

14- amaliy mashg'ulot. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni shaxs xususiyatlari.

Maxsus psixologik muolaja va xizmatga aloqador shaxs haqida tushuncha, individ, individuallik tushunchalari. Shaxs muammosining psixologiya fanida o'rganilish tarixi, shaxsga yondashuv prinsiplari, psixologiya fanida individ va individuallik tushunchalarining mohiyati, tafovutlari kabi fenomenlar ochib beriladi.

15- amaliy mashg'ulot. Maxsus psixologiya diagnostikasining o'rni. Eshitishning buzulish sabablari.

Maxsus psixologiya sohasiga mansub shaxs faolligi va faoliyati. Motiv va motivatsiya haqida tushuncha. Ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq - atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy xarakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirish o'rganiladi.

MUSTAQIL TA'LIM

1. Maxsus ta'limni tashkil etish shakllari va metodlari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash texnologiyalari
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalari.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda o'yin, mehnat faoliyatiga kiritish, shakllantirish.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida o'yinning mazmunini, qoidasini, vazifasini belgilash.
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga nutqiy tayyorlashda oila va maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi xamkorligi.
7. Maxsus maktabgacha ta'lim tizimida korreksion ishlar samaradorligini oshirish yo'llari
8. Tug'ma va orttirilgan nuqsonlar bilish jarayonlari kamchiliklarini korreksiyalashda qo'llaniladigan texnologiyalar.

O'QITISH VOSITALARI

1. O'quv xonasi.
2. Doska.
3. Flipchart qog'ozi.
4. Markerlar.
5. Qog'oz A4 formatli-30 dona.
6. Tarqatma materiallar.
7. Multimediya to'plami (kompyuter, videoproektor, ekran).

FOYDALANISH TAVSIYA ETILADIGAN O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2023 .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi 5106-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi № PQ-3289-sonli Qarori.

5. Sh.M. Mirziyoev. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori. 2016 yil 29 dekabr.
6. “Maktabgachagacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
7. Maktabgachagacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to’g’risida”. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
8. “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko’rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3276-sonli Qarori.

Maxsus adabiyotlar ro’yxati

1. “ Nogironligi bo’lgan shaxslarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Pf -5270 2017 yil 1-dekabr
2. “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasi” 2019 yil 29 aprel PF- 5712
3. Yangi tahrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun 2020 yil 23.09, PQ-637
4. O’zbekistonRespublikasiPrezidentining“Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4860-sonli qarori 2020-yil 13-oktabr.
5. “2020 - 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”
6. Inklyuziv ta’limni qo’llab-quvvatlash yo’llari. ”Ta’lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.
7. Boltaboev S.A. Tolipov O’.Q. Umumiy o’rta ta’lim maktablari kasbgayo’naltirish o’quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo’yicha metodik tavsiyanoma. –Toshkent: TDPU, 2000. 36 b.
8. Davletov K.D. va b. O’quvchi yoshlarni ishga va ishlab chiqarishga tayyorlash. - T.: O’qituvchi, 1984. 167 b.
9. Jo’raev R.X., Tolipov O’.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta’lim tizimida o’quvchilarni kasb-hunar yo’naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. -T.: FAN. 2004. 120 b.
10. Klimov S. A. “Ishlab chiqarish asoslari”. Kasb tanlash 2-qism. -M. 1987.

11. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: FAN, 2004. 130 b.
12. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. -Toshkent: OO'MTV, 2007. 173 b.
13. Badiiy adabiyotlarni targ'ib qilishning ommaviy usullari: Metod. Tavsiya /Tuzuvchi Z. Berdieva.-T.: Toshkent Davlat Madaniyat instituti, 1985.-29 b.
14. Badriev F. Maktab Kutubxonasi va uning vazifalari //Sovet maktabi. - 1985.-10-son. 72-73-betlar
15. Gaybullaev N. va boshkalar. Pedagogika. T., 2000.
16. Kotov Ziyomuxammedov B., Abdullaeva Sh. «Pedagogika». T., 2000.
17. Ayupova M.Yu. Logopediya «O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati» T.: 2007.
18. Mo'minjonova Z., Ziyayeva K., Karimova SH., Xalilova G.lar "Ona tili" yordamchi mehnat ta'limi maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: "Artaprint" MCHJ 2005.
19. Nurkeldieva D.A., Chicherina Ya.E. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodi, 2007.
20. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014.
21. Raxmanova V.S. «Maxsus pedagogika» T.: "G'.G'ulom" nashriyoti, 2005.
22. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Pod redaksiyey I.Yu.Levchenko i S.D.Zabramnoy. M., ACADEMA, 2005.

III. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
2. <http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.
3. <http://www.president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.
4. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
5. <http://www.xs.uz> – "Xalq so'zi" gazetasi sayti.
6. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.

7. <http://www.kun.uz> – O'zbekiston va jahon yangiliklari, eng so'nggi xabarlar sayti.

**NAZARIY MAShG‘ULOT
MATERIALLARI**

1-Mavzu Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari

Reja

1. Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari.
2. Aloxida yordamga muxtoj bolalar.
3. Maxsus psixologiya fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Tayanch tushunchalar Psixologiya, maxsus psixologiya, surdopsixologiya, oligofrenopsixologiya, tiflopsixologiya, logopsixologiya.

“Psixologiya, degan edi L.S.Vigotskiy, – birinchidan, konkret, amaliy bo‘lib – ta’lim va tarbiya, bolaning rivojlanishi, mehnat faoliyati haqidagi fan bo‘lmog‘i lozim. Faqat shu vazifagina psixologiyani tirik va kerakli fanga aylantirishi mumkin”. Psixologiya umuman ruhiyatning, xususan inson ruhiyatining namoyon bo‘lishi, rivojlanishini o‘rganuvchi sohadir. Psixologiya ongli subekt – insonning ichki dunyosini o‘rganadi.

Psixologiya atamasi “psixe” – qalb, “logos” – o‘qish, so‘z ma’nosini bildiradi. Ammo bu qisqa jumla inson ruhiyati haqida yetarli ma’lumot bermaydi. Psixologiya fanining mavzu bahsini ruhiyatni to‘laroq tasavvur qilish uchun ruhiy jarayonlarning kechish mohiyatini, ichki kechinmalarning (sezgilar, fikrlar, hissiyotlar) namoyon bo‘lish qonuniyatlarini tushunish lozim. Shu o‘rinda kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida psixologiya sohasida erishilgan yutuqlarni eslab o‘tish joizdir.

Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino birinchi bo‘lib, psixik funksiyalar miyadagi ma’lum markazlar faoliyatiga bog‘liq degan fikrni ilgari surdi va uni ilmiy isbotlashga urindi. Uning fikricha, jonivorlar va insonlar, o‘simliklar dunyosidan farqli o‘laroq, tashqi ta’sir kuchlarini hissiy idrok etish qobiliyatiga ega. Bu qobiliyat uch xil kuch orqali namoyon bo‘ladi: tanani harakatga keltiruvchi, harakatlantiruvchi kuch, umumiy kuch (u ko‘rish, eshitish, xis etish, ta’m va hid bilish faoliyati bilan bog‘liq) va aql kuchi (unga xayolot, xotira va aql-idrok kiradi). Mana shu kuchlarning har biri, miyaning ma’lum qismi bilan bog‘liq hamda bosh miya biron qismining kasallanishi uning bilan bog‘liq, kuch faoliyatining ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi.

Ibn Sino "Tib qonunlari" ning uchinchi kitobida tafakkurga yetadigan zararlar va buning natijasida kelib chiqadigan kasalliklar haqida ham keng ma’lumot beradi. U asablarning asosiy vazifasi miya bilan turli xil sezgi va harakat organlari o‘rtasida aloqani amalga oshirishdan iborat ekanini yaxshi tushungan. U sezgi organlari bilan asablar vositasida tashqi muhitning moddiy realligi idrok qilinishini asablarning biologik va fiziologik funksiyalarini ajratib ko‘rsatib beradi. Asablarning foydasi ikki tomonlamadir. Birinchisi bevosita foyda: masalan, miya asablar vositasida hislar va harakatlarni boshqa organlarga yetkazadi; ikkinchisi bilvosita foyda: masalan, etni mahkamlash va tanaga kuch baxsh etish.

Abu Nasr Forobiyning ta’kidlashicha, bilish nazariyasi, ya’ni insonning bilishini, ruhiy qobiliyatini miya boshqaradi, yurak esa barcha a’zolari hayot uchun zarur bo‘lgan qon bilan ta’minlovchi markazdir. Inson barcha bilimlarni tashqaridan oladi. Buning uchun ko‘plab vosita va imkoniyatlarga ega: bular sezgi,

xotira, tasavvur, mantiqiy fikrlash, aql va nutq - shu vositalar yordamida inson ilmlarni o'zlashtiradi.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan soha – Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi, maxsus psixologiya bo'lib, aqliy jihatdan turli darajada meyordan chetlangan bola va bolalarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganadi. Maxsus psixologiya - nuqsonli bolalarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, quyidagi qismlardan iborat:

1. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi (oligofrenopsixologiya).
2. Kar va zaif eshituvchi bolalar psixologiyasi.
3. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar psixologiyasi.
4. Turli darajada nutqlari buzilgan bolalar psixologiyasi.
5. Murakkab nuqsonli bolalar psixologiyasi.
6. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologiyasi.
7. Tayanch xarakter tizimi buzilgan bolalar psixologiyasi.
8. Autizm sindromli bolalar psixologiyasi.

Nuqsonli bolalar ichida aqli zaif bolalar ruhiyati, nisbatan mukammal o'rganilgan tarmoqdir. Ammo bu tarmoq ham normal bolalar ruhiyatiga nisbatan birmuncha keng, atroflicha o'rganilmagan.

Maxsus psixologiya fanining maqsad va vazifalari shu toifa bolalarning ruhiy xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan defektologlarni, qurollantirishdan iborat. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasini korreksiyasini to'g'ri tashkil qilish uchun bu bolalarning xususiyatlari haqidagi bilimlar juda zarur. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi ma'lumotlari defektologlarda, defektologlarda o'zgaruvchi dunyoqarashning shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Ruhiy jarayonlarni ilmiy jihatdan to'g'ri tushunib yetish, shaxsning barkamol shakllanishida alohida ahamiyatga ega.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy jarayonlarining o'ziga xosligi, bilim egallash imkoniyatlari haqidagi defektologlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar quyidagi usullar orqali yig'iladi. Bularga kuzatish, tajriba, suhbat, anketa, test, bolalar faoliyat natijalarini tahlil qilish va boshqa usullar kiradi. Kuzatish – eng asosiy usullardan bo'lib, u orqali juda ko'p va sifatli psixologik ma'lumotlar yig'iladi. Ammo, har qanday kuzatish orqali kerakli ma'lumotlar olinmaydi. Tegishli, zarur ma'lumotlarni yig'ish, aniq maqsad asosidagi, izchil kuzatishni talab qiladi. Bu usulning asosiy yutuqi shundaki, kuzatish tabiiy sharoitda, tekshiriluvchi bilmagan holda amalga oshiriladi. Buning oqibatida tekshiriluvchi hech narsadan tortinmagan holda o'zini namoyon qiladi. Ammo bu usulning ham o'ziga xos kamchiligi bor. Bu kamchilik shundan iboratki, tekshiruvchi uchun kerak bo'lgan ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Lekin kuzatish muddati ortgan sari olinayotgan ma'lumotlar ko'payib boradi. Uzoq muddatli kuzatishlar turli yoshdagi bolalarning nutq, tafakkur, hissiyot, qiziqishlar, xarakter hislatlari, qobiliyatlarini tekshirish vaqtlarida olib boriladi. Bunday uzoq muddatli tekshirish natijalari maxsus kundaliklarda qayd etib boriladi. Kuzatish vaqtlarida bolalarning sog'lig'ini,

kayfiyatini, o'zini his qilishini, charchaganlik darajasini inobatga olish talab etiladi.

Psixologik ma'lumotlar yig'ishda tajriba usuli keng qo'llaniladi. Bu usulning qulayligi shundan iboratki, tajriba o'tkazuvchi uchun kerak bo'lgan ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar qisqa muddatlarda qo'lga kiritiladi. Bu usulning afzalligi ham shunda. Ammo, tajriba vaqtida tekshiriluvchi bola har doim ham o'zini erkin tutmaydi. Bola iymonib, uyalib, tortinib turadi. Buning natijasida bola o'zini to'la namoyon etmaydi. Bola o'zining ustida tekshirish olib borilayotganligini bilgani uchun ham, tekshiruvchi uchun kerakli ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmasligi mumkin. Tajriba usuli o'z navbatida tabiiy va laboratoriya tajribalari turlariga bo'linadi.

Psixologik ma'lumotlar suhbat usuli orqali ham yig'iladi. Bola bilan suhbat qilish jarayonida tajriba o'tkazuvchi uchun kerak bo'lgan ma'lumotlar yig'ib boriladi. Suhbat ma'lum bir maqsadga qaratilgan va savollar mavzuga oid tayyorlanishi kerak.

Defektologiya muammolari bilan shug'ullanuvchi chet el defektologlari, aqli zaiflik to'g'risida gapirib, bu tushunchani unga aqliy kamchilikni qo'shish bilan kengaytiradilar, uning yuzaga kelishi erta bolalik vaqtida bola rivojlanishini o'ta nomuvofiq ijtimoiy sharoitlari bilan bog'liq bo'ladi. Atrofdagi kishilar bilan intellektual va xissiy muloqot yetishmasligi, doimiy to'yib ovqatlanmaslik va xokazolar ko'zda tutiladi. (F.Gallaqhere, O.Meher, Satdenqeu.)

So'ngi yillar maxsus adabiyotlarida ham bosh miya po'stlog'i shikastlanishi bilan bog'liq bo'lmagan aqli zaiflik xodisalari to'g'risida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Hozirgi paytda «aqli zaif» termini o'rniga uning sinonimlarini ishlatishga xarakat qilinmoqda, negaki bu termin bolani faqat aqliy jihatdan noadekvatligini bildiradi, u esa motorika, hissiy-irodaviy doira va butun shaxsiy yetishmochiliklarga ega. Birinchi guruhga kiradigan bolalar asosan o'z rivojlanishlarining ma'lum davrida bosh miya kasalligini boshidan kechirgan va shu kasallik qoldirgan nuqson asosida rivojlanayotgan, amalda esa sog' bolalar kiradi. Ikkinchi guruhga bosh miyasidagi kasalliklari davom etayotgan bolalar kiradi. Bunday bolalarda maxsus maktabgachalarda o'qib yurgan vaqtlarida ham kasalliklari davom etib og'irlashishi ham mumkin. Bu bolalarning ruhiy xususiyatlari, bilim egallash imkoniyatlari o'zgarib turish xususiyatiga ega.

Miya tizimlarning shikastlanishi, asosiysi miyaning o'ta murakkab va kech shakllanuvchi tuzilishlari psixikaning buzilishi va chala rivojlanishiga sabab bo'lib, rivojlanishning dastlabki bosqichlarida yuzaga keladi; ona qornida, tug'riq paytida va bir, bir yarim yoshida, ya'ni nutq shakllanmasdan avval. Bola hayotining kechroq davrida yuzaga kelgan aqli zaiflik nisbatan kam uchraydi. Bu demensiya deb yuritiladi. Demensiya miyaning organik kasalliklari oqibatida bo'lishi mumkin (masalan; meningoensefalitlar, miya travmalari, silkinishi, lat yoyishi va boshqalar). Demensiyada bolada ortib boruvchi degredatsiya (orqaga ketish) kuzatiladi. Biroq ayrim holatlarda davolash yordamida bu jarayonni birmuncha sekinlashtirish mumkin.

Alohida holatlarda boladagi aqlning sust rivojlanishi kechayotgan ruhiy kasallik bilan qo‘shilib ketadi – epilepsiya, shizofreniya, bosh miya zaxmi va boshqalar. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning barcha psixik jarayonlarining orqada rivojlanishi va turg‘un buzilishlari bilan tavsiflanadi, bu bilish faoliyati doirasi (ayniqsa og‘zaki mantiqiy fikrlashda) va shaxsiy doirada aniq ko‘rinadi. Bunda meyordan ortda qolishgina emas, balki rivojlanishning o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ancha kichik yoshdagi normal rivojlanayotgan bolalarga tenglashtirib bo‘lmaydi. Aqli zaiflik – bir meyorda emas – bola psixik faoliyatining turli tomonlarida ko‘rinadi. Kuzatishlar va eksperimental tadqiqot materiallari bolada ayrim psixik jarayonlar o‘ta keskin o‘zgargan bo‘lib, boshqalari saqlanib qolgan bo‘lishi mumkinligi haqida gapirish imkonini beradi.

Rivojlanishida meyordan chetlashgan, shu jumladan aqlan orqada qolgan bola psixikasi tuzilishi juda murakkab. Maxsus psixologiya asoschilaridan biri L.S.Vigotskiyning nazariy qoidalariga muvofiq bolada birlamchi nuqson va ikkilamchi asoratlarni ajrata bilish kerak. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga po‘stloq faoliyatining to‘laqonli emasligi, mo‘ljalga olish faoliyatining bo‘shligi, nerv jarayonlarining inertligi, himoya tormozlanishiga ortiqcha moyillik xosdir. Oligofren bolalar psixik faoliyatida aniq aks etgan kamchiliklar bilan birga bu bolalarga rivojlanish jarayoni asosi bo‘lib xizmat qiluvchi ayrim ijobiy imkoniyatlar ham xos. Tarbiyachilar maxsus rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabgachada korreksion ishni tashkil qilib aynan shu imkoniyatlarga tayanadilar.

XX asrning 90-yillaridan boshlab aqli zaiflarning xalqaro tasnifidan foydalana boshlandi, unga binoan bolalarni 4 guruxga bo‘ladilar: yengil, o‘rtacha, og‘ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik. Chet el psixologlari bola intellektual ko‘effitsentini aniqlashga asoslanadilar. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning dunyoga kelish sabablari turlicha. Odatda endogen (ichki) va ekzogen (tashqi muhit) omillarini ajratish mumkin). Aniqlanishicha aqli zaiflikning genetik shakllari ustun tursa, ular tug‘ma rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar soniga kiradi. Biroq buzilishlarni yuzaga kelishida onaning yuqumli kasalliklari (masalan; qizilcha, xomilaning alkogol bilan zaharlanishi, narkotiklar, dorilarni xaddan ziyod iste’mol qilish, onaning endokrin kasalliklari, xromosoma buzilishlari) muhim rol o‘ynaydi. Ona qornida rivojlanish davrida, tug‘riq paytida va bir-bir yarim yoshida olingan miya shikastlanishlari ma’lum ahamiyatga ega, shu bilan bir qatorda hozirgi iqtisodiy va ekologik vaziyat ham katta ro‘l o‘ynaydi. Bir qator xollarda aqli zaiflik tayanch-harakat tizimi buzilishlari bilan, autizm bilan birlashadi. Tadqiqotlar ko‘rsatishiga, murakkab nuqsonlar irsiy kelib chiqishga ega.

Bolada murakkab nuqsonning borligi uning rivojlanishi yo‘nalishini tormozlaydi, nuqsonlarni korreksiyalash imkoniyatini kamaytiradi, o‘quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni sezilarli qiyinlashtiradi. Bunday bolalar bilan muvaffaqiyatli ish olib borish e’tibor va keng bilim doirasiga ega bo‘lishni talab qiladi.

Maxsus psixologiyaning fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Maxsus psixologiya boshqa fanlar singari turli fanlar bilan uzviy bog'liq. Maxsus pedagogika, psixiatriya, fiziologiya, logopediya, umumiy va bolalar psixologiyasi va boshqa fanlar shular jumlasiga kiradi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiyatining o'ziga xosligi yuqorida ko'rsatilgan fan yutuqlarining natijalari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Normal va nuqsonli bola taraqqiyoti umumiy, yagona qonuniyatlar asosida kechishini hisobga olsak, normal bolalar psixologiyasi fani rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi uchun ilmiy asos rolini o'taydi. Ammo, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar taraqqiyoti o'ziga xos yo'sinda amalga oshadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi umumiy va ijtimoiy psixologiya ma'lumotlariga asoslanib ish yuritadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi yosh davrlar psixologiyasi yutuqlariga ham suyanadi. Qaysi yoshda, qaysi ruhiy holatlar, qay darajada o'sishini, rivojlanishini bilishini ahamiyati katta. Pedagogik psixologiya ham rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi uchun yetarli ma'lumotlar beradi.

Logopediya fani bolaning nutqidagi kamchiliklarini aniqlash, logopedik tekshirishni amalga oshirish imkonini beradi. Oligofrenopsixologiya fani aqli zaiflik darajalarini, bilish jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida korreksion ish tizimining samarali usullarini tanlashga yordam beradi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi defektologiya klinikasi, nevropatologiya, fiziologiya fanlarining yutuqlariga asoslanadi.

Nevropatologiya rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar markaziy asab tizimining anatomik va organik buzilishlari haqida bilim beradi. Fiziologiya esa, markaziy asab tizimining funksional buzilishlari haqida axborot beradi. Bularning barchasi Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola ruhiyatining nuqsoni haqidagi bilimlarimizni yanada kengaytiradi, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi, markaziy asab tizimining egiluvchanligi haqida I.P.Pavlovning fiziologik ta'limotiga asoslanadi. Sog'lom qolgan markaziy asab tizimining ayrim qismlari maksimal rivojlanishi, kompensatsiya qilinishi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar taraqqiyotidagi yutuqlardandir. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi psixiatriya yutuqlaridan ham to'la foydalanadi. G.Suxareva, M.S.Pevzner rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni klinik o'rganish ishlariga juda katta hissa qo'shdilar. Ular tomonidan rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar etiologiyasi, patogenezi, davolash ishlari, kasallik natijalari, kasallikning ikkilamchi asoratlari atroficha o'rganildi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi, ularning taraqqiyot dinamikasi o'rganildi. Psixiatr, pedagoglar tomonidan hamkorlikda tekshirishlar olib borilishi natijasida aqli zaiflikni pedagogik, psixologik tashxis qilish mezonlari yaratildi. Aqli zaiflik sabablari, darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, aqliy taraqqiyot bosh miya zararlanishi darajalariga ko'ra davom etadi.

S.L.Rubinshteynning yozishicha, "a'zo tuzilishi bilan, uning funksiyasi orasidagi bog'liqlik bir tomonlama emas, funktsiya a'zo tuzilishiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki a'zo tuzilishi ham uning funksiyasiga bog'liqdir".

Maxsus psixologiya fanining metodlari

Turli fanlarda mujassamlangan nazariy, amaliy bilimlarni bolalarlar ongiga yetkazishning u yoki bu yo'lini ham uslublar deb tushunish mumkin. Bu yerda esa, har bir fanning shu fanga oid bilimlarni yig'ish, tanlash yo'llari tushuniladi. Bularga kuzatish, tajriba, suhbat, anketa, test, bolalarlar faoliyat natijalarini tahlil qilish va boshqa usullar kiradi. Kuzatish – eng asosiy usullardan bo'lib, u orqali juda ko'p va sifatli psixologik ma'lumotlar yig'iladi. Ammo, har qanday kuzatish orqali kerakli ma'lumotlar olinmaydi. Tegishli, zarur ma'lumotlarni yig'ish, aniq maqsad asosidagi, izchil kuzatishni talab qiladi. Bu usulning asosiy yutug'i shundaki, kuzatish tabiiy sharoitda, tekshiriluvchi bilmagan holda amalga oshiriladi. Buning oqibatida tekshiriluvchi hech narsadan tortinmagan holda o'zini namoyon qiladi. Ammo bu usulning ham o'ziga xos kamchiligi bor. Bu kamchilik shundan iboratki, tekshiruvchi uchun kerak bo'lgan ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Lekin kuzatish muddati ortgan sari olinayotgan ma'lumotlar ko'payib boradi. Uzoq muddatli kuzatishlar turli yoshdagi bolalarning nutq, tafakkur, hissiyot, qiziqishlar, xarakter hislatlari, qobiliyatlarini tekshirish vaqtlarida olib boriladi. Bunday uzoq muddatli tekshirish natijalari maxsus kundaliklarda qayd etib boriladi. Kuzatish vaqtlarida bolalarning sog'lig'ini, kayfiyatini, o'zini his qilishini, charchaganlik darajasini inobatga olish talab etiladi.

Psixologik ma'lumotlar yig'ishda tajriba usuli keng qo'llaniladi. Bu usulning qulayligi shundan iboratki, tajriba o'tkazuvchi uchun kerak bo'lgan ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar qisqa muddatlarda qo'lga kiritiladi. Bu usulning afzalligi ham shunda. Ammo, tajriba vaqtida tekshiriluvchi bola har doim ham o'zini erkin tutmaydi. Bola iymanib, uyalib, tortinib turadi. Buning natijasida bola o'zini to'la namoyon etmaydi. Bola o'zining ustida tekshirish olib borilayotganligini bilgani uchun ham, tekshiruvchi uchun kerakli ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmasligi mumkin. Tajriba usuli o'z navbatida tabiiy va laboratoriya tajribalari turlariga bo'linadi.

Psixologik ma'lumotlar suhbat usuli orqali ham yig'iladi. Bola bilan suhbat qilish jarayonida tajriba o'tkazuvchi uchun kerak bo'lgan ma'lumotlar yig'ib boriladi. Suhbat ma'lum bir maqsadga qaratilgan va savollar mavzuga oid tayyorlanishi kerak.

Anketa usulining mohiyati shundan iboratki, kerakli ma'lumotlar bolalarga ma'lum savollarni o'z ichiga olgan anketalar tarqatish orqali olinadi. Bolalar qisqa muddatda javob beradilar. Anketalar tarqatib ma'lumotlar yig'ishning afzalligi, yutug'i shundaki, qisqa muddatda juda ko'p bolalarni tekshirish mumkin.

Shuni qayd etish o'rinliki, keyingi yillarda test usuli keng qo'llanila boshlandi. "Test" inglizcha so'z bo'lib "tekshirish", "sinash" ma'nolarini bildiradi. Maxsus topshiriqlar tizimidan iborat bo'lgan eksperimental tekshirishdir. Test usuli chet ellarda ayniqsa keng qo'llaniladi. Bu usulning afzalligi shundaki, qisqa vaqtda, ommaviy tarzda juda ko'p tekshiriluvchilarni tekshiruvdan o'tkazish, olingan ma'lumotlarni matematik tahlil qilish mumkin. Test usulini qo'llash uchun alohida, maxsus sharoitlar, texnika jihozlari har doim ham talab etilmaganligi sababli, bu usulni qo'llash birmuncha oson kechadi. Testlar mazmuniga, tuzilish

shakliga ko'ra: individual, guruhli, harakat hamda intellektual qobiliyat va boshqa turlarga ajratiladi.

Maxsus psixologiya fani usullariga yuqoridagilar bilan birga bola va bolalar ijodiy faoliyat mahsulotlarini psixologik tahlil qilish ham kiradi. Asosiy e'tiborni faqatgina mehnat mahsulotlarini tahlil qilishga qaratiladi, shu bilan birga faoliyatni ham kuzatish darkor. Mehnat natijalariga qanday erishilganligini ham aniqlash talab etiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, juda ko'p hollarda alohida bir usul qo'llanib qolinmasdan, balki bir nechta usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday holat olingan ma'lumotlarning yanada ishonchli, obektiv bo'lishiga xizmat qiladi.

Savollar.

1. Maxsus psixologiyaning maqsadi va vazifalari.
2. Aloxida yordamga muxtoj bolalar turlari haqida ma'lumot bering.
3. Maxsus psixologiya fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
4. Maxsus psixologiya fanining metodlari.

2-Mavzu Sensor nuqsonli bolalarni bilish jarayonlarini o'ziga xosligi Reja.

1. Sensor nuqsonli bolalar xaqida ma'lumot.
2. Ko'zi ojiz bolalar bilish jarayonlari.
3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish jarayonlari.

Tayanch tushuncha: Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola, eshitish idroki, eshitish sezgisi, ko'rish o'tkirligi, bilish jarayonlari, ko'rish sezgisi, eshitish sezgisi, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgilar.

Har qanday bilish dastlab oddiy sezgilardan boshlanar ekan. Oddiy tilda gapiradigan bo'lsak, sezgilar bizni borliq bilan bog'lab turuvchi vosita, ko'prikdir. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgilar va boshqalar bizning sezgi bilimlarimizga asos bo'la oladi. Sezgi bilimlarimizning tarkibi, tuzilishi insonning sensor tizimini tashkil etadi. Insonning sensor tuzilishi uning tarixiy ijtimoiy taraqqiyoti davomida shakllanib, uning hayot va faoliyat mazmunini belgilaydi. Shu bois, ko'rish tizimi boshqa analizatorlardan ustun turadi. Inson mehnat faoliyati jarayonining asosida ko'rish-taktil-kinestetik bog'lanishlar va optikvestibulyar yo'nalganlik yotadi. Ko'rish analizatorining to'la yoki qisman buzilishi zaif ko'rishga, ko'rlikka olib keladi. Buning natijasida analizatorlar orasidagi bog'liqlik buziladi. Mutanosiblik yo'qoladi. Buning oqibatida insonning sensor tuzilishida, birinchi navbatda mantiqiy bilish va tajribada meyordan chetga chiqqan kuzatila boshlaydi. Agar inson ruhiyati o'z dinamiklikka va egiluvchanlikka ega bo'lmaganda edi, bularning barchasi qaytarilmas, takrorlanmas, oqibatlarga olib kelishi mumkin edi.

1880 yillardan boshlab tiflopsixologik tadqiqotlarda sezish chegaralarini o'rganish boshlangan edi. Qisman yoki zaif ko'ruvchilardagi sezgi chegaralari

o'ziga xosligi bilan, nuqson chuqurligi bilan uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi. Qator tadqiqotlarda absolyut sezish chegarasiga oid turli qarashlar, ma'lumotlar bor. Normal bolalardagi sezish chegaralari bilan yaqinligi haqida ham ma'lumotlar yetarli. Kompensator o'zgarishlar ham o'ziga xos tarzda amalga oshar ekan. Turli sezgilarning o'zaro ta'siri oqibatida ayrim analizatorlar faoliyati tezlashadi, ayrimlarining faoliyati susayadi. Ayrim hollarda sezgilararo aralashuvlar ham yuz berar ekan.

Tiflopsixologiya fan bo'lib, shakllana boshlagandan buyon qaysi sezgilar yetakchi bo'lishi ustida tadqiqotlar olib boriladi. Keyingi yillardagi ilmiy tadqiqotlarning isbot etishicha, ko'rish nuqsoni oqibatida asosan taktil va kinestetik analizatorlar faoliyati faollashar ekan. Total ko'rlarda haqiqattan shunday holat kuzatiladi. Bu haqida ikkilanish kerak emas. Ammo, qisman ko'ruvchi (0,005 dan yuqori) shaxslarda esa bu holat o'ziga xos mazmun kasb etadi. Lekin, zaif ko'ruvchi bolalar, kattalarda esa asosiy sezgi sifatida ko'rish qolaveradi. Ko'rish sezgilari, ko'rish analizatori faoliyatining natijasi, mahsuli sifatida qoladi. Bunda ko'rish retseptorlari, ko'rish asab tolalari ko'zg'alishlarni bosh miyaga uzatuvchi sifatida, bosh miya orqa qismida joylashgan ko'rish analizatori yadrolari ma'lum darajada ko'rish jarayonining vazifalarini bajaradi. Ko'rish analizatorlari ayrim qismlarining zararlanishi uning faoliyatini qisman buzsa, analizator to'la buzilsa ko'rlik yoki zaif ko'rishga olib kelishi mumkin. Ko'rishning chuqur buzilishi natijasida eshitish sezgilarida ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Bu holat ko'rlik oqibatida yuz bermaydi. Balki, eshitish analizatorining boshqa bir analizatorning zararlanishi oqibatida faollashishi yuz beradi. Ko'rlarda eshitish normal taraqqiy etadi. Bu narsa ko'rish qobiliyati buzilgan shaxslarning to'laqonli bilim olishlari va olgan bilimlarini amalda qo'llay olish imkonini beradi. Normal ko'ruvchi shaxslarda narsa va atrof-muhitidagi holatlar ko'rish orqali idrok etilsa, ko'rlarda esa, teri sezgilari asosiy rol oynaydi. Shuning oqibatida ko'rish nuqsoni bor shaxslarda tana a'zolarining, ayniqsa inson bilish faoliyatida, xususan mehnat jarayonida tutgan, egallagan o'rni keskin oshadi. Buning oqibatida sensibilizatsiya- taktil sezgilarining ortishi kuzatiladi. Taktil sezgilar ko'rlarning barcha a'zo terilarida yuz bermasdan, balki ayrim qismlaridagina yuz beradi. Ayniqsa, qo'l, kaft qismida bu holat sezilarli darajada bo'ladi. Tadqiqotlarning isbot etishicha, ko'r barmoqlaridagi sezgilar normal shaxslarnikidan ancha ustun ekan. Bunday o'sish ko'r shaxslarning o'qish tizimi – Brayl bilan uzviy bog'liqdir. Bunda asosiy rolni o'ng qo'ldagi ko'rsatkich barmoq egallaydi. Nafaqat teri sezgilar, tuyg'ulari balki, bu bolalarda harorat sezish qobiliyati ham, oqriq tuyish qobiliyati ham birmuncha ortar ekan. Bu sezgilar faoliyat jarayonida rivojlanadi va shakllanib boradi. Haroratni sezish sezgilari ham bu bolalarda ancha o'sishga moyil ekan. Teri sezgilari majmuasida (kompleksida) yorug'lik va rang ta'sirlariga javob berish ham o'ziga xos mazmunga ega ekan. «Teri orqali ko'rish» fenomeni – qobiliyati azaldan ma'lum. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha, buning asosida tok, tok magnit tebranishlari yotar ekan. Harakat analizatori inson hayotining dastlabki kunlaridanoq yetakchi o'ringa chiqadi. Faoliyat jarayonida harakat analizatori differentsirlashib boradi. Bunda ko'rish nazorati talab ham etilmaydi. Ko'rish faoliyatining kamayishi, ba'zan

yo'qolishi natijasida kishida tebranish sezgilar orta boradi. Ma'lumki, total ko'rlar ma'lum masofa uzoqlikda turgan qimirlamas narsalar: daraxt, devor va boshqa narsalarni sezadilar. Bu sezgilar predmet mohiyatdan yiroq bo'lib, ko'rlar u narsa haqida ma'lumot berolmaydilar. Ko'rish a'zolari meyordagi kishilar uchun ta'm bilish va hid bilish unchalik rol oynamas, ammo ko'rlar uchun bu sezgilar nisbatan katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bo'lishicha, ko'rlar normal ko'ruvchilardan ko'ra bir qancha darajada hidni, uning yo'nalishini yaxshi bilar ekanlar. Total ko'rlarda vestibulyar apparatning roli nisbatan ortadi. Tana muvozanati uchun bu apparatning vazifasi katta. Bu apparat vazifasining o'zgarishi uning sezgirligining ortishiga olib kelar ekan. Qator tadqiqotlarning ko'rsatishicha, total ko'rlarda vestibulyar apparat normal ko'ruvchi shaxslarnikidan yaxshi rivojlanar ekan. Ko'rish nuqsoni bo'lgan shaxslardagi turli sezgilarning faollashishi, rivojlanishi ularning hayotda oson moslashishlariga yordam beradi.

Joyni topish va mo'ljalga olishda sezgi a'zolarining ahamiyati.

Ko'rish sezgisi: Sog'lom kishilarning atrof-muhitdagi, fazodagi yo'nalishni aniqlashlarida, yo'l topishlarda ko'ruv a'zosi – ko'zning ahamiyati katta. Ko'zi ojizlar, hatto ko'ruv o'tkirligi juda past ko'zi ojizlar ham katta maydonlarda, yo'llarda harakatlanganda ozgina bo'lsa ham qoldiq-qo'rquvdan foydalanadilar.

Ko'zi ojizlar nurni, yorug'likni sezib, katta narsa va ob'ektlarning shaklini xira bo'lsa ham sezgan holda o'shani mo'ljal qilib joyda harakatlanadilar. Qora va oq nur, soylarning almashinuvi bilan ular oldinda to'siq borligini sezadilar. V.S.Sverlov ko'zi ojiz kishining joyda, yo'lni va yo'nalishni qanday topib yurishi haqidagi gaplarini keltiradi: Atrofdagi hamma narsalar mening uchun kulrang tuyiladi. Lekin, bu rang ham tusharga bo'linadi, ba'zi bir narsalar qora, boshqalari ovda o'xshaydi. Men yo'l, ko'cha yorug' bo'lsa, o'zidan bir necha metr naridagi devorni kulrang to'siq sifatida sezaman. Shu devor boylab har kuni yurganim uchun, u yerda hamma narsalar menga tanish bo'lgani uchun ham tez yurib ketaman. Bu yo'lda har xil qora dog'lar ko'rinadi, bu daraxtlarning soyasi, ko'rib qolgan loy va boshqalar bo'lishi mumkin. Lekin, bu soyalar menga tanish bo'lgani uchun ham, ular menga yurishimda mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bordi-yu yo'l tanish bo'lsa-yu bu yo'lda soyalar ko'p bo'lsa juda ham qiynalaman. Agar yorug'lik va soyalar almashib turadigan joy bo'lsa ham menga qiyin».

Teri sezgisi: Ko'zi sog'lom kishi uzoqni ko'radi. Qo'l va oyoq bilan tevarak-atrofnı tekshirish imkoniyati chegaralangan. Ammo, ko'rlarda terimuskul – harakat analizatorlari yo'lni aniqlashda, fazoviy yunalishlarni tekshirishda asosiy rol oynaydi. Turmushda, o'quv va ishlab chiqarishda qo'l sezgisi predmetlarning faqat shaklini emas, balki ularning bir-birlariga nisbatan joylashuvini, yo'nalishning xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Qo'l va oyoqning imkoniyatlari chegaralangan joyda, ko'rlar atrofni tekshirish doirasini kengaytirish uchun hassadan foydalanadilar. Sinf xonasi, ish joyi, tanish yo'ldagi narsalarning joylashuvi ko'rlarning xotirasida yaxshi saqlanadi.

Eshituv sezgisi: Ko'zi ojizlar eshituv sezgisi va idroki yordamida o'z atrofıdagi olamni, narsa va ob'ektlarni sezadi, idrok etadi. Ularning hajmi, joylashuvi, yo'nalishi (agar harakat qilayotgan bo'lsa) va boshqa sifatlari haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Narsalarga urilib qaytayotgan tovush aks-sadosi narsalarning shakli, kattaligi va boshqalar haqida aniq ma'lumot bermasa ham ko'rlar uni boshqa predmetlardan kelayotgan tovush bilan farqlab, shu narsaning uzoq-yaqinligi, katta-kichikligini va boshqa tomonlarini aniqlaydi. Masalan: Ko'rlar ko'chada yurganida tovushlarni tahlil etib, odamlar haqida (har bir kishi o'ziga xos qadam tashlaydi), narsalarning bir-birlariga joylashuvi, mashina va boshqa harakatlanayotgan narsalarning yo'nalishini, o'zlariga zarur joyning mo'ljalini oladilar. Narsa va ob'ektlarning joylashuvi haqidagi tasavvur ko'rlarning har kungi turmushida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ko'rlar katta joylarda harakatlanganda yo'nalishni aniqlash va oldindagi narsalar va to'siqlarni aniqlashda tovushning aks-sadosidan samarali foydalanadilar. Buning uchun ular qo'llarini bir-biriga urib qarsak chalish bilan, qo'lidagi hassasini biror narsaga urish bilan ulardan qaytgan aks-sadodan atrof-joy haqida ma'lumot to'playdilar. Bunday aks-sado o'sha narsaning mohiyati, mazmuni haqida ma'lumot beradi.

Hid bilish: Ko'rlarda bu sezgining ahamiyati katta. Ko'rlarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, ko'rlar kishilarni hidlar yordamida farqlashlari mumkin. Ular har xil buyumlarni, ba'zi meva va sabzavotlarni, oziq-ovqatlarni hid bilish yordamida farqlaydilar. Ayniqsa, buzilgan ovqatlarni aniqlash yordamida, ko'rlar hid bilish yordamida farqlanishdan saqlanadilar.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning idroki.

Idrok predmet va hodisalar mohiyatining, sifatining va obrazining ongimizda butunligicha, to'laligicha paydo bo'lishidir.

Bola o'yinchoqlar, har xil predmetlar bilan faoliyat ko'rsatarkan, bu predmetlarning mohiyatini, tarkibiy qismlarini, tomonlarini o'rganadi.

Asta-sekinlik bilan bolaning sensor rivojlanishi jarayonida predmetlar va hodisalarning obrazi bolaning ongida butunligicha shakllanib boradi. Odatda ko'ruv, eshituv, sezgi, hid va ta'm bilish idroklari farqlanadi. Ammo, predmet va hodisalarning ongimizda butunligicha va bir tuzilishda idrok etilishi bu analizatorlarning o'zaro birgalikda faoliyat ko'rsatishining natijasidir. Shuningdek, idrok faqat predmetlarning muhim belgilari va xossalari bilan butunligicha ongimizda aks etishigina bo'lmasdan, balki predmet va hodisalarning mohiyati, mazmuni va ma'nosi, nomining ham butunligicha anglanishidir.

A.A.Lyublinskaya ko'rsatib o'tganidek, predmetlar o'rtasida makon munosabatlarini idrok etishda nutq, bolalarning makon munosabatlarining nutqiy ifodalarini egallashi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Makon munosabatlarini to'g'ri qayta yaratish bola harakatga hamroh nutqda predmetlarning makon munosabatlarini ko'rsatadigan so'zlarni qo'llagandagina mumkin bo'ladi.

L.A.Venger tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarda o'tkazilgan idrok rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'rsatadiki, perseptiv harakat bilish usullarini takomillashtirish jarayonida shakllanadi. Ilk yoshdan maktabgachagacha yoshga o'tishda, ya'ni 3 yoshdan 7 yoshgacha produktiv va konstruktiv faoliyat ta'sirida bolada perseptiv analitik-sintetik faoliyatning murakkab turlari, jumladan, bu operatsiyalarni amaliy planda bajarishdan oldin, ko'rib turgan ob'ektni xayolan qismlarga ajratish va кейин уларни яхлит birlikka

birlashtirishga oid murakkab qobiliyat yuzaga keladi. Perseptiv obrazlar predmetlar shakliga nisbatan yangicha mazmun kasb etadi.

Predmetlar konturidan (chizg'ilaridan) tashqari ularning strukturasi, makon xususiyatlari va ularning qismlari nisbatlari ajratiladi.

L.A.Vengerning fikricha, idrok bilan bog'liq qobiliyatlarning asosini perseptiv harakatlar tashkil qiladi. Ularning sifati bolaning perseptiv etalonlar maxsus tizimini o'zlashtirishiga bog'liq. Idrokda bu kabi etalonlar, masalan shaklni idrok etishda geometrik shakllar, rangni idrok etishda – spektral gamma, o'lchamni idrok etishda – ularni baholash uchun qabul qilingan fizik kattaliklar sanaladi. perseptiv harakatlarni takomillashtirish va bunday harakatlarning yangi tiplarini o'zlashtirish yosh kattalashishi bilan idrokda progressiv o'zgarishlarni, ya'ni ular bo'laklash aniqligi ortishi va boshqa muhim sifatlarni egallashni ta'minlaydi.

L.I.Rudakova ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'rish idroki rivojlanishi darajasini xarakterlab, bolalarda tahlil idrokining rivojlanganlik darajasi sensor etalonlar tizimini egallaganlik darajasi bilan belgilanishini ta'kidlaydi.

Ko'rish idroki: Ko'rish analizatorlari yordamida kishi predmetlarning rangini, shaklini, hajmini, katta-kichikligini, harakat va harakat yo'nalishini aniqlaydi.

Ko'rish idroki funksiyalarining buzilishi atrof voqelikni bilishda katta qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, bu predmetlar olami haqidagi hissiy ma'lumot va uning nutqiy talqini o'rtasidagi uzilishda namoyon bo'ladi.

Ko'r va zaif ko'ruvchilarda ko'rish analizatorlari faoliyatining buzilishi analizatorlar ichida yoki analizatorlar orasida yangi bog'lanishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ko'ruvchi shaxslarga nisbatan bularda u yoki bu analizatorlar tizimi faollashadi, rivojlanadi. Ko'r yoki zaif ko'ruvchi shaxslardagi ko'rish analizatorlaridagi bu nuqson oqibatida normal ko'ruvchi shaxslardagidan farqli ravishda, o'ziga xos analizatorlararo munosabatlar yuzaga keladi. Bu holat o'ziga xos bo'lgan, faqatgina shu toifa nuqsonlargagina tegishli bo'lgan xususiyatlardir. Ko'rishning zararlanish oqibatlari birinchi galda sezgilarga ta'sir etadi.

Mashhur psixolog B.G.Anan'ev g'oyalariga tayanadigan bo'lsak, sensor taraqqiyot normada ham nuqsonda ham bir yo'nalishda ketib ularning qonuniyatlariga boysunar ekan. Fiziolog A.A.Uxtomskiy ta'biricha «yeshitish – inson sezgi a'zolaridan eng asosiysidirki, insonning inson darajasiga yetishida katta rol oynaydi¹». Demak, ko'rishdan keyin inson hayotida, bilim egallashida inson bo'lib yetishishda, eshitish analizatorlari turar ekan. Ma'lumki, ko'rlar qatoriga, toifasiga ko'rish o'tkirligi 0 dan - 0,04 gacha bo'lganlar kirsa, zaif ko'ruvchilarga 0,05 dan - 0,2 gacha bo'lgan shaxslar kiradi. Ko'rlar uchun eshitishning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, A.Krogus shunday yozadi: «Ko'rlik haqida gapirganda aslida tuyish sezgilari orqali olingan bilimlar haqida fikrlaymiz. Ammo, ko'rlarni uzoq muddat kuzatishlar asosida shunga amin bo'ldimki, bizlarga ko'rish qancha ahamiyatga ega bo'lsa, eshitish ko'rlar uchun shunchalik аҳамият касб этап экан»¹. Бу фикрлар Р.Дюфога тегишли фикрлардир. Кўрлар ва заиф

¹ Ухтомский А.А. Танланган асарлар. ТДУ - 220-бет.

ko'ruvchi shaxslar uchun eshitish dunyoni Ammo, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'ruv o'tkirligining eng past darajasida ham, ko'rlar ko'p hollarda ko'ruv idrokidan faol foydalanadilar.

bog'liqlik bilishda, fazoviy va ijtimoiy moslashuvlarida katta rol o'ynaydi. Hid bilish jarayonlari ham ko'rlarda o'ziga xos tarzda rivojlanar ekan. O.I.Skoroxodova bemalol non, oziq-ovqat, sanoat va boshqa tur magazinlarni hech bir qiyinchiliksiz farqlay olgan.

Idrok ruhiy va asab tizimida o'ta murakkab jarayon bo'lib, uning maxsus markazi bosh miyada joylashgan. Shaxsning hayot tarzi, ish faoliyatining harakatiga qarab biror analizator dominant-etakchi bo'ladi. Ushbu shaxsda o'sha idrok turi kuchli bo'ladi. Ko'pgina sog'lom kishilarda ko'ruv idroki yetakchidir. Ammo, ko'ruv o'tkirligi jiddiy pasayganda (0,03-0,02 gacha va undan past) va total ko'rlarda teri-mexanik, harakat analizatorlari yoki teri sezgi idroki yetakchilik qiladi.

Total ko'rlarda atrof-olamni idrok etish asosan eshituv analizatorlari yordamida amalga oshadi. Lekin, eshituv sezgisi va idroki tashqi olam va undan narsalar haqida bir tomonlama, ya'ni ularning fazodagi holati va fizikaviy mohiyati haqida juda tor tushuncha beradi. Insonning tashqi olamni sezishini – idrok etish jarayoni polisensor tarzda hamma mavjud sezgi analizatorlari va idrok turlari qatnashgan holda kechadi. Faqat, shunday holatda narsa va hodisalarni butunligicha, ongli – tushunib, umumlashgan holda, tanlab idrok etish yuz beradi. Masalan: ko'rlarda tashqi olamdagi narsalar va ob'ektlarni tanlab idrok etishning chegaranlanganligi, yo'qligi, narsalarning go'zalligidan hissiy ta'sirlanishning kamligi natijasida his-tuyg'u va qiziqishlar doirasining torligi kelib chiqadi.

Ko'rlarda predmet va ob'ektlarni keng va chuqur idrok etish teri va harakat analizatorlari yordamida amalga oshadi. Bu esa idrok etilayotgan narsalarning mohiyati, tarkibi, hamma xossalari haqida yetarli, keng ma'lumot olishga kamlik qiladi. Natijada, ko'rlarda sensor tajriba kam bo'lib, predmet va hodisalarni ongli va butunligicha idrok etish buziladi.

Ko'zi ojizlarda ko'ruv idroki ko'rish a'zolari nuqsonining darajasiga va narsalarning katta-kichikligi, uzoq-yaqinligi, xonaning yorug'ligiga bog'liq sog'lom inson atrofidagi narsalarni ikkala ko'zi bilan ko'rganda (binokulyar ko'ruv) obrazlar – idroki to'liq bo'ladi, ammo ko'zi ojizlarda ko'zning ko'rish o'tkirligi past yoki bir ko'zi umuman ko'rmasligi mumkin. Bunday holatda narsa va ob'ektlarning fazoda tomonlarini aniq ko'rish buziladi.

Ko'zi ojizlar narsalarni, rasmlarni tanishga qiynaladilar. Ko'zi ojizlar rasmlarni, ayniqsa marakkab rasmlarni butunligicha idrok eta olmaganlari uchun, rasmdagi narsalar, personajlar o'rtasidagi bog'liqlik buziladi. Rasmning muhim qismini ko'ra olmaganligidan tasvirning asosiy (asl) mazmuni haqida hato fikr paydo bo'lishi mumkin. Rasmni butunligicha (fazodagi narsa va ob'ektlarni ham) idrok etish uchun uni uzokdan, yaqindan, keyin har tomondan turib tomosha qilinadi. Shunday tomosha qilinganda narsa va ob'ektlar (rasmlar) haqida, ularning muhim qismlari yetarli darajada aniq, idrok qilinadi. Ko'zi ojizlarda ko'ruv o'tkirligining pastligi, ko'ruv doirasining torligi uchun ham bu jarayon qiyin

kechadi. Natijada ular harf va bo'g'inlarni, sonlarni, geometrik figuralarni idrok etish tezligi keskin kamayadi.

Ayniqsa, ko'r va ko'zi ojizlar uchun fazoda harakat qilayotgan narsalarni (qush, samolyot va boshqalar) idrok etish ancha qiyin. Bu kamchiliklar ularning o'qish, yozish malakalarini egallashlarini qiyinlashtiradi.

Ular ko'pincha daftardagi chiziqni yaxshi ko'rmaganliklari uchun qiyshiq yozadilar, harflarning elementlari tushib qoladi, baland-past yoziladi va hokazo nuqsonlarni ko'plab uchratish mumkin.

Narsalarning shaklini va hajmini idrok etish: Narsalarning asosiy belgisi – sensor mazmuni uning shaklidir. Shakl – narsa, uning mohiyati va mazmuni haqida ko'p ma'lumot beradi. (Yer sharining kichik shakli-globusni eslang). Narsalarning katta-kichikligi, hajmini bir vaqtning o'zida ko'ra olish idrokning sifatiga - ta'sir etadi. Ko'zi ojiz bolalar va kattalar narsa va ob'ektlarni tekshirayotgan vaqtda uni hamma tomondan ko'ra olmasliklari, ko'z soqqasini predmetni tartib bilan - tizimli ko'rib chiqishga halaqit berishi, shuningdek ko'zning tez charchab qolishi natijasida olingan axborot kam, noaniq bo'lishi mumkin. Narsalarning shakli, hajmi, proportsiyasi haqidagi ma'lumotlar ham ko'zi ojiz bolalarda aniq bo'lmasdan qoladi.

Rang va tushlarni idrok etish: Insonning diqqatini o'ziga jalb qiluvchi narsa – bu rangdir. Rang yordamida narsalar haqidagi bilimlarimiz boyiydi, mazmun kasb etadi.

Ayniqsa, rang insonda his-tuyg'uni uyg'otadi. Ko'zi ojiz bolalarda rangni idrok etish qiyinlashgan bo'ladi. Ayniqsa, ular qizil, ko'k, yashil ranglarni qiyinchilik bilan idrok etadilar. Tushlarni idrok etish katta qiyinchilik tug'diradi.

Ko'zi ojizlar aniq yaqqol chiziqlar bilan chizilmagan ko'rgazmali qurol, rasmlarni farqlashga qiynaladilar. Shuning uchun ham ko'zi ojizlar uchun chiqariladigan ko'rgazmali qurollar, chizma va rasmlar murakkab ranglarda bo'lmasdan, balki qora-qalin chiziqlar bilan chizilgan aniq va yaqqol bo'lishi shart.

Harakatni idrok etish: Narsalarning fazodagi holatini idrok etish ko'zi ojiz bolalar va kattalarda ko'ruv doirasining torligidan, ko'ruv o'tkirligining pastligi, ko'z soqqasining harakatchanligining pastligi (kamligi)dan sust kechadi.

Eshituv idroki: Bola o'sib borishi bilan eshituv idroki murakkablashib, tovushning uzoq-yaqinligini, tanish-notanishligini, yo'nalishini va boshqa xususiyatlarini farqlashga o'rganib boradi. Tovushlarni aniq va nafis idrok etish asosan maktabgachagacha va kichik maktabgacha yoshida shakllanadi. Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar eshituv yordamida tashqi muhitni idrok etadilar. Ular eshituv bilan faqat tovushlarni, fazoni idrok etib qolmasdan, joyning tuzilishini, narsalarning katta-kichikligini, hatto go'zalligini ham idrok etadilar.

Masalan: barglarning shitirlashi, qushlarning sayrashi va boshqa narsalar tabiat va uning tuzilishi haqida, go'zalligi haqida bu toifa bolalarga ko'plab axborot beradi.

Teri yoki paypaslab idrok etish: Teri yordamida inson og'irlikni, bosimni, yuzaning xossalarini, zichlikni, issiq-sovuqni, og'irlikni va boshqalarni sezadi va idrok etadi. Inson ko'ruv yordamida narsa va ob'ektlarning 8 xil belgilarini farqlasa, teri yordamida paypaslab 11 xil toifadagi belgilarni farqlay oladi. Mehnat

jarayonida chap va o'ng qo'llarning ish bajarishdagi vazifasida taqsimlanish yuz beradi. O'ng qo'l asosan mehnatda, mehnat qurollaridan foydalanishda yetakchi rol oynaydi, chap qul yordamchi vazifani va nazorat vazifasini bajaradi. Shuningdek, barmoqlar ham ma'lum ish bajarishga ixtisoslashgan. Masalan, o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i bu toifa bolalarda relefli nuqtalarni topish va farqlashga moslashgan bo'lsa, chap qo'lning ko'rsatkich barmog'i shu olingan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi.

Paypaslab idrok etish uch yo'l bilan amalga oshadi.

1. Passiv shaklda paypaslash: Bunday idrok teri yuzasidagi analizatorning nisbatan tinch vaqtida amalga oshadi. Narsalarning zamon va makondagi moddiy, fazoviy xususiyatlari, og'irligi, shakli, hajmi, uzunkaltaligi, issiq-sovuqligi va hokazolar aniqlanadi. Ammo, passiv shaklda idrok etishda predmetlarning ko'pgina jihatlari: hajmi, shaklini yetarli idrok etish yuz bermaydi va natijada predmetning mohiyati va mazmuni haqida yaxshi tushuncha shakllanmaydi.

2. Faol shaklda paypaslash- Narsa va ob'ektlarni faol ravishda paypaslash-gaptika deyiladi. Bunday idrok etishning teri mexanik va harakat analizatorlarining o'zaro hamkorlikda, integrativ faoliyati yotadi. Faol paypaslash jarayonida predmet va ob'ektlarning fazodagi hajmi, belgi va munosabatlari, moddiy dunyosining jisimiy mohiyati yetarli va faol tekshiriladi - aniqlanadi.

3. Har xil asboblarda vositasida narsa va ob'ektlarni sezish-idrok etish. Bunga ko'r va ko'zi, o'zirlarning hassa yordamida joyni va yo'nalishni aniqlash yoki grifel yordamida relefli-nuqtali shriftni o'qishni misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar joyning past-balandligi, yumshoq-qattiqligini va boshqa xossalarni yerning relefini oyoq kiyimi yordamida sezadilar.

Inson faoliyatining asosiy turlari: o'yin, o'qish va mehnat jarayonida paypaslab sezishning o'rnini hech narsa bosa olmaydi (hatto ko'ruv sezgisi ham). Shaxsning paypaslab sezish qobiliyati ko'rlikni kompensatsiya qilishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Hatto, sog'lomlarda ham qo'l bilan ish bajarilganda, paypaslab sezish asosiy boshqaruv vazifalarini bajaradi. Ko'rlarda paypaslab sezish, bilish va nazorat qilish vazifasini bajaradi. Ammo, paypaslab sezish ko'rishning o'rnini bosa olmaydi. Birinchidan teri, muskul-bo'g'in sezgisi narsalarning hamma belgisini o'zida aks ettira olmaydi. Ikkinchidan paypaslab sezishda tekshirish doirasi chegaralangandir.

Shunga qaramasdan paypaslab sezish atrof, olam va tashqi muhit haqida ko'rlarga zarur ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning xotira xususiyatlari

Xotira, xotiro, esda saqlash, esga tushurish, unutish bu so'zlar, jumlar mohiyatining inson hayotida tutgan o'rnini, ahamiyatini oddiy tilda, bir og'iz so'z bilan tushuntirib bo'lmas negaki, bu masalani, xotira deb atalmish – fenomenni oddiy tushuntirish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Bu muammo atrofida buyuk shaxslar necha bor qalam tebratganlar, tebratmoqdalar va yana uzoq vaqtlar qalam tebratishlari haqiqat. Qaysi bir alloma, «xotiradan ajralgan inson abadiy «chaqaloqdir» degan, qaysi bir donishmand esa xotirani «oppoq taxtaga» qiyoslagan, yana bir ruhiyat mutaxassisi esa, xotirani «ruhiyatning ustuni» deb

ta'riflagan. Ko'rinib turibdiki, xotira-oddiy, sodda, yuzaki, ikkinchi darajali ruhiy jarayon emas ekan. Shu bois, bu masalaga jiddiy yondoshish talab etiladi. Xotira keng qamrovli muammolar, jarayonlar qatoriga kiritilar ekan, demak uni o'rganish, talqin etish va u haqda ma'lum mushohada qilishning o'zi oson kechmaydi. Xotiraga turli tomonlardan yondoshib o'rganish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Xotiraning turlari, jarayonlari mavjud. Shuni e'tirof etmok, joizki, xotira ham turli manbalarda turli ko'rinishlarda, shakllarda, xususiyatlarda bayon etiladi. Xotirani turlarga bo'lish masalasini osonlashtirish maqsadida «nimani eslash, qanday eslash va qancha muddatga eslashga» ko'ra xotirani turlarga bo'lsak, bolada, o'rganuvchida yaxlit va bir butun tushuncha paydo bo'ladi deb umid qilamiz.

Demak, xotira nima eslanishiga ko'ra: harakat, hissiy, obrazli va so'zli turlarga bo'linadi. Qanday eslanishiga ko'ra, xohlabmi, tasodifanmi, demak irodaning aralashuviga ko'ra ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga ajratiladi. Materialning qancha muddatga eslanishiga ko'ra esa: qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira turlariga bo'linadi. Xotira haqida umumiy ma'lumotlarni berdik. Endi esa ko'rish qobiliyati buzilgan bola va katta kishilarda xotira qanday kechadi? Rivojlanadi? o'ziga xos tomonlari qanday? kamchilik, yetishmovchiliklarni qay yo'sinda to'g'rilash, korrektsiyalash mumkinligi haqida mulohaza yuritamiz. Ta'kidlanishicha, inson bilimlarning 80% qismini ko'rish a'zosi orqali olar ekan. Qolganlarini esa eshitish va boshqa sezgi a'zolarimiz orqali qabul qilar ekanmiz. Qo'rlik muammosining naqadar jiddiyligi shundan ko'rinib turadi. Xotira: eslash, esda olib qolish, unutish, bilish, qayta esga tushirish jarayonlari kishining ijtimoiy mehnat faoliyatining asosini tashkil etadi. Maxsus psixologiya fanida qilingan va qilinayotgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'rlarda xotira normal ko'ruvchi shaxslar xotirasidan nafaqat hajmi jihatidan, balki o'ziga xos ko'rinishlari, rivojlanish xususiyatlari bilan ham ajralib turar ekan. Ko'rish analizatorining zararlanishi shartli bog'lanishlarning yuzaga kelishiga, differentsirlashishiga halaqit berar ekan. Buning uchun ko'p hajmli mustahkamlash ishlari olib borish talab etiladi. Demak ko'rlik nuqsoni qo'zg'alish va tormozlanish deb nomlangan asab jarayonlarining mutanosibligini ham buzar ekan. Buning oqibatida, xotira tezligi pasayadi. Olib borilgan tadqiqotlar bu toifa bolalarning materiallarni eslab qolishlari kam samaradorligi bilan izohlanar ekan. Bu bolalar xotirasi nafaqat hajmi jihatidan, balki eslanayotgan materialni tushunib eslashlari ham buzilar ekan. Tushunib eslash yoki mantiqiy eslash ma'lumki, idrok jarayoni bilan uzviy bog'liq. Demak, eslab qoluvchi shaxs materialini ko'rmasdan uni to'la, atroflicha idrok eta olmaydi. Bu yog'i esa barchaga ma'lum. To'la idrok etilmagach narsa va hodisalar tushunib qabul etilmagach, uzoq muddat eslab qolinmaydi. Buning oqibatida, «zanjir reaksiyasi» kabi bola tafakkurini tashkil etuvchi tahlil, tasnif, umumlashtirish, jarayonlar yuzaki, samarasiz amalga oshadi. Buning oqibatida esa yana yuqoridagi kamchilik fikrlash kamchiliklari yuz beradi. Normal bolalarda ma'lumki, berilayotgan materiallarning bolalar tomonidan boshi va oxiri yaxshi o'zlashtiriladi. Ko'rish nuqsoni bor bolalarda bu holat boshqacha namoyon bo'lar ekan. Ya'ni, bu bolalar berilayotgan materiallarning boshlang'ich qismini yaxtam o'zlashtirib, tez charchashlari oqibatida oxirida berilayotgan materiallarni qiyin yoki kam o'zlashtirar ekanlar. Shu narsa diqqatga sazovorki, ko'r va zaif ko'ruvchi

bolalar xotira hajmida, eslab qolish tezligida, mexanik xotira va mantiqiy xotira jarayonlari boyicha bir-biridan keskin farq qilar ekanlar.

Individual farqlar turli xil sabablar oqibati bo'lishi mumkin. Bunga nuqson darajasi, yuz bergan vaqti, asab tizimi xususiyatlari, aqliy taraqqiyot darajasi, sezgilar, tajriba va boshqa sabablar kiradi. Bu kabi kamchiliklar bo'lishiga qaramasdan ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda xotira jarayonlarining kechishi, taraqqiyoti normal ko'ruvchi bolalar xotira qonuniyatlari boyicha amalga oshishi aniqlangan. Tadqiqotchilar ko'r bolalar xotira jarayonlarining sekin rivojlanishini, bu bolalardagi ko'rgazma-harakat tajribalarining kamligini, ularning tez charchashlari, hamda bu toifa bolalarni o'qitish ishlarining yuqori darajada takomillashmaganligi bilan bog'laydilar. Bu bolalarda xotira hajmining kamligi, sekin eslab qolish, tez esdan chiqarish holatlari bevosita ko'rlik oqibati bo'lmasdan, balki nuqson asosida bola ruhiyatida yuz beradigan chetga chiqishlar natijasidir. Ko'r bolalar xotira jarayonlarini o'rganish asosan ular tasavvurini o'rganish orqali amalga oshirilgan. Qator tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar xotirasi ustida muntazam mashqlar olib borilmasa, ular xotirasi pasayib borishga moyil ekan. Hatto, 1-3 oylik vaqt oraliqlari ham salbiy ta'sir etar ekan. Egallangan materiallarni tez esdan chiqarishga sabab bo'luvchi omillardan yana biri bu takrorlashlarning yetarli emasligidan ham yuz berar ekan. Bu borada F.N.Shemyakin tadqiqotlari e'tiborlidir.

Ma'lumki, tasavvurlarning saqlanishi ko'rish o'tkirligiga ham bog'liq. Ko'r va zaif ko'ruvchilarni ko'rgazma-harakat tarzda o'qitish xotira jarayonlariga birmuncha ijobiy ta'sir etar ekan. Ko'rlar tomonidan narsalarni bilish normal bolalarga qaraganda bir muncha sekin, hamda to'la bo'lmaydi. Bu toifa bolalarga xos narsalardan yana bir tomoni, ular narsalarni o'ziga xos xususiyatlar bilan bilib olar ekanlar. Bu bolalar egallangan materiallarning bir qisminigina esga tushira olar ekanlar. Bu bolalar oliy asab tizimlarida tormozlanish jarayonlarining ustunligi oqibatida ham, egallangan bilimlarini qayta esga tushirishda ma'lum qiyinchilikl sezar ekanlar. Shu bois bo'lsa kerak, bu toifa bolalarda reministsentsiya (oldin unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyin esga tushishi) normal ko'ruvchi bolalardan ko'proq uchraydi. Ko'r bolalar xotirasining holati berilayotgan materiallarning sifat va mazmuniga ham borliqdir. Ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarda xotiraning barcha turlari (so'zmantiq obrazli, hissiy va harakatni maxsus ta'lim-tarbiya orqali shakllantirish, rivojlantirish mumkin.

Ilgari idrok qilingan narsa va xodisalarni ongimizda qayta gavdalanishiga tasavvur qilamiz. Xotira ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda mavjud bo'lmagan narsalarning obrazlarini ko'z o'ngimizda maqsad qilib qoyamiz. Masalan: ertaklar, romanlar, umuman biror asarni o'kiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavdalaniish hayoliy tasavvuridir.

Ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarning tafakkuri.

Qator mualliflar (T.P.Golovina (1975), L.P.Grigoreva (1985), M.I.Zemtsova (1956, 1973), V.G.Yermakov (1989), A.L.Zamulin (1990), G.M.Milaeva (1974), L.I.Plaksina (1982), L.V.Rudakova (1982), L.I.Solntseva (1967) va b.) ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar normal ko'radiganlar kabi fikrlash operatsiyalarini amalga oshiradi. Shu bilan birga, bolalarda ko'rish qobiliyati

buzilganda bolalarda tahlil qilish idroki sekin, fragmentar, ko'p bosqichli tarzda kechadi. Bu zaif ko'ruvchilarning obrazli tafakkuri rivojlanishini qiyinlashtiradi. Predmet va hodisalarni xayolan bo'laklashda, keyinroq ularni sintezlashda turli belgilar obrazlarining yaxlitlik vabir paytilik kabi sifatleri zarar ko'radi

Normal ko'radiganlar muhitida yashayotgan va ishlayotgan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shunday hayoti vaziyatlarda bo'ladiki, u butun vaziyatni yaxlit idrok etolmaydi va vaziyatni o'z idroki uchun qulay bo'lgan alohida elementlar asosida tahlil qilishiga to'g'ri keladi. Bunday hollarda vaziyatni qayta yaratish va baholash uning alohida belgilari tahlili va sintezi, ularni anglab yetish va mavjud bilim hamda tasavvurlar tizimiga, hayot va ta'lim jarayonida yaratilgan umumiy kontseptsiyaga kiritish asosiga quriladi. Bu ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar hayoti va faoliyatida tafakkurning katta ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Tiflopsixologiyada tafakkur ko'rish nuqsonini psixologik kompensatsiyalash va atrof olamni bilish usullarini shakllantirish jarayonining eng muhim omillaridan biri sanalishi haqida fikr anchadan beri mavjud. Biroq tafakkur jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan aniq eksperimental tadqiqotlar ko'p emas. A.G.Litvak² va A.F.Samoylov³ ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar tafakkuri rivojlanishining uchta kontseptsiyasini ta'kidlaydi: ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar tafakkurining tezlashgan rivojlanish nazariyasi; ko'rish nuqsonining tafakkur rivojlanishiga salbiy ta'siri nazariyasi va tafakkur rivojlanish darajasining ko'rish nuqsonlariga bog'liq emasligi kontseptsiyasi.

Har uchala kontsepsiya konkret faktlarga tayanadiki, ular o'z g'oyalarini ta'kidlash uchun huquq beradi. Biroq ularning hech biri yo xayoliy obrazlar, yo tafakkurning shakllanish jarayonidagi o'ziga xoslikning mavjudligini inkor etmaydi.

Birinchi kontsepsiya ko'zi ojizlarning nutqiy-mantiqiy tafakkuri nisbatan yuqori rivojlanganligi fakti haqidagi kuzatishlar, talqinlar va fikrlarga asoslanadi (S.F.Struve, 1810; A.M.Shcherbina, 1929; A.R.Krogius, 1926; K.Bryuklen, 1934; B.I.Kovalenko, 1962). Ikkinchi kontsepsiya ko'zi ojizlar va ayniqsa zaif ko'ruvchilar bilan olib borilgan hissiy bilishdagi kamchiliklar tafakkurda va noaniq umumlashmalar hamda ularning formal tushunchalari hosil bo'lishida aks etishini aniqlab bergan tadqiqotlarga tayanadi (M.I.Zemtsova, F.N.Shemyakin). Uchinchi kontsepsiya ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarning fikrlash faoliyati rivojlanish darajasini uni shakllantirish jarayonini boshqarish va dasturlashtirish sifati bilan bog'laydi (A.I.Zotov va uning izdoshlari).

Ko'rishda nuqsoni bo'lganlarda tafakkurni eksperimental tadqi qilish asosan genetik jihatdan maktabgachagacha va maktabgacha yoshidagi bolalarda normal ko'radiganlar uchun ishlab chiqilgan metodikalardan foydalanib olib borilgan. Natijalar ko'radigan bolalarda olingan natijalar bilan solishtirganda ko'p jihatdan metodikalarni ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar foydalanishi uchun o'gartirishlar kiritish va tajribalarni o'tkazish sharoitlariga bog'liq bo'lib chiqqan.

² Литвак А.Г. Тифлопсихология. - М.: Просвещение, 1985. - С.188-191.

³ Самойлов А.Ф. Проблема мышления в тифлопсихологии // Психологические особенности слепых и слабовидящих школьников. - Л.: ЛГПИ, 1981. - С.39-69.

Maktabgachagacha va maktabgacha yoshidagi ko'zi ojiz bolalar tafakkur darajasini o'rganishga oid tadqiqotlar J.Piaje metodikalari boyicha olib borilgan.

J.Piaje olib borgan normal ko'radigan bolalarning intellektual rivojlanishini o'rganishga oid tadqiqotlar unga rivojlanish bosqichlarini ajratish va hal qilinishi maktabgachagacha yoshdagi bolalarning tafakkuri xarakterli xususiyatlarini ochib beradigan va bolalarning o'z ilmiy tafakkuriga o'tishini belgilash imkonini beradigan qator vazifalarni ishlab chiqish imkonini berdi. «Piajetopshiriqlari» va «Piaje fenomeni» - P.Y.Galperin va D. B. Elkonin bolalar ob'ekt xossalaridan biri o'zgarganda modda miqdori saqlanishi qonunini tushunadigan fikrlash vazifalarini taqdim etishdan iborat metodikalarni shunday nomlagan. J. Piaje tadqiqotlari natijalariga ko'ra, 7-8 yoshli bolalar miqdorning saqlanishi qonunini tushunishga qodir, bu ularda ilmiy tafakkurning yuzaga kelganidan dalolat beradi.

M.Gottesman tadqiqotlari unga ko'zi ojiz bolalar tafakkur rivojlanishida albatta anomal emas va intellektning rivojlanishida hech bir kechikishga ega emas degan xulosaga kelish uchun asos berdiki, u idrok etiladigan axborotni integratsiyalay olmaslikdan dalolat berishi kerak edi. Tadqiqotchi ko'rsatib berdiki, ko'zi ojiz bolalar tafakkur rivojlanishida aynan o'sha bosqichlarni taxminan o'sha yosh davrida o'tadi va Piaje vazifalarini ko'rish idrokiga tayanmasdan yecha oladi.

Ko'ruv nuqsonida tashqi olamni sezish, his etish nuqsonning darajasiga qarab ozmi-ko'pmi buziladi. Bu o'z navbatida tashqi olamni aniq chuqur va farqlangan holda sezish va idrok etishni susaytiradi. Bu ham o'z navbatida bilish jarayoniga, aqliy rivojlanishga salbiy ta'sir etadi. Ko'ruv nuqsoni natijasida idrok etish jarayoni qiyinlashadi. Ayniqsa, obrazlarning yaxlit holda shakllanishidagi kamchiliklar, narsalar va hodisalarni farqlashdagi kamchiliklar, ularning muhim qismlarini ajratishdagi yetishmovchiliklar tafakkurning eng muhim jarayoni bo'lgan umumlashtirishni qiyinlashtiradi. Aynan shuning uchun ham, ko'rlar idrokining sxematikligini-chizgi shakldaligini, fragmentarligini va hissiy sezishning boshqa kamchiliklarini yengib o'tish uchun ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Ko'rlarda ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlarni kompensatsiya qilishda, o'rnini qoplashda, sensor sezish sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etishda tafakkurning xizmati shundaki, har xil turdagi xulosa, hukmlar chiqarish bilan mavhum fikrlashni amalga oshiradi. Ko'r bola idrok eta olmagan yoki idrok etish imkoniyati bo'lmagan narsalar va hodisalarning mohiyatini ochishga tafakkur jarayonlari yordam beradi va yordam berishi zarur.

Taqqoslash jarayonining qiyinligiga sabab esa, tahlil va tasnif jarayonining yetarli amalga oshmasligidir. Ko'rlarda tahlil va tasnif jarayonining qiyinligiga sabab: bir tomondan narsa va ob'ektlarning belgi va mohiyatlarini sezish – idrok etishning qiyinligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, idrok etilayotgan narsa va ob'ektlarning qisman – suktessiv, fragmentar idrok etilishidir. Narsalarni har tomonlama, chuqur tahlil qilishning imkoniyati chegaralanganligi natijasida, narsalarni yuzaki bilish, muhim qismlarni sezmasdan qolish yuz beradi.

Ko'rlar narsalarning muhim qismlarini ajratishga qiynalishlari yoki faqat umumiy belgilarnigina farqlashlari natijasida narsalarni bir tizimga solishda, guruhlashda qiyinchilik kelib chiqadi. Shunday qilib ko'r va zaif ko'ruvchi

shaxslarning sensor sohasidagi kamchiliklari hissiy bilishni qiyinlashtiradi va kambag'allashtiradi. Bu o'z navbatida tafakkurning rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Fikrlash jarayonida tushunchalarning to'g'ri shakllanishi katta ahamiyatga ega. Tushunchalar asosan tasavvur yordamida, uning obrazlaridan hosil bo'ladi. Masalan: sog'lom bola «dars» so'zini ko'p marta eshitadi, lekin dars haqidagi haqiqiy tushuncha uni ko'rgandan so'ng paydo bo'ladi. Ko'rlarda tushuncha va uning haqiqiy obrazi – o'rtasida ajralish (divergentsiya) yuzaga keladi. Tushunchalarning mantiqiy va xissiy ajralishi ko'pincha noto'g'ri yoki formal, yuzaki, soxta xulosa chiqarishiga sabab bo'ladi. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda ba'zan hayotdan – reallikdan ajralib qolgan tushunchalar yuzaga keladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilish jarayonlari.

Sezgi – inson sezgi organlariga ta'sir qiluvchi predmet va hodisalarning eng sodda ruhiy jarayonidir. Inson sezgisi tovush, rang, shakl dunyosi haqida ma'lumot beradi. Sezgidan farqli o'laroq idrok predmet va hodisalar yaxlit obrazini o'zida namoyon qiladi. Har qanday anglash jarayoni idrok etish va sezishdan boshlanadi. Bu uning dastlabki sezgi bosqichidir. Lekin idrok atrofdagi olam haqida to'liq tasavvur berolmaydi. Meteriyani biz bevosita idrok etolmaydigan xossalari mavjud. Tashqi olamni anglash va aks etishning eng yuqori formasi tafakkurdir. Rivojlanishda nuqsoni mavjud bolalar sezgisi atrof muhitni obektiv aks ettiradi va predmet hamda hodisalarni anglashning muhim bosqichi sanaladi. Kar bola idrok va sezgi asosida atrofdagi predmetlar rangi, mazasi, hidi, shakli haqida ma'lumot oladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sezgisi va idroki shakllanishining umumiy qonuniyatlari bilan birga spesifik xususiyatlarga ega bo'ladi. Avvalam bor, bu bolalarda asosiy sezgi turlaridan biri eshituv sezgisi mavjud bo'lmaydi. Bizning organizmimizga doimo tovush ta'sirotlari ta'sir ko'rsatadi. Rivojlanayotgan bola asosiy bilim manbaini eshituv sezgisi, idroki orqali qabul qiladi. U atrofdagilar bilan muloqotga kirishib, radio, musiqa eshitib, kino, teatrlarni tomosha qilib, ko'p ma'lumotga ega bo'ladilar. Kar bola bunday imkoniyatlardan chegaralangan bo'ladi. Bu atrofni anglash jarayonini qiyinlashtiradi va kompensatsiyani talab etadi. O'z navbatida bu ko'ruv, harakat, hidlash sezgisi va idroki rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituv sezgisi mavjud emas degan fikr noto'g'ridir. Yangi okustik apparatlar yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning 40% da eshituv sezgisi qoldiqlari mavjudligini ko'rsatdi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish mumkin. Davomiy mashg'ulotlar mashqlar jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idroki faollashtiriladi. Bunda eshituv idrokining rivojlanishi anatomofiziologik mexanizmining tiklanishi evaziga emas, balki eshituv idrokini faollash yo'li bilan amalga oshadi. Kar bolada eshituv sezgisi va idrokini yo'qolishi sababli ko'ruv sezgisi va idroki asosiy o'rin tuta boshlaydi. Kar bolaning ko'ruv analizatori atrofdagi olamni anglashda asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalardagi ko'ruv sezgi va idroki eshituvchi bolalar darajasida bo'lish L.V.Zankov, I.M.Solovev, K.I.Veretskiy, tadqiqotlarida dalillangan. Shu sababli eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar

eshituvchi bola ahamiyat bermaydigan tashqi olam xususiyatlari va nozikliklariga ahamiyat beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv sezgisiga qaraganda ko'ruv sezgisining ustunligi, harakat sezgisining, teri-taktil sezgilarning faolligi kuzatiladi. Eshituvchi bolalar karlarga nisbatan yashil, siyohrang, qizil, sabzi ranglar ko'p almashtiradilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ranglarni nozik farqlaydilar. L.V.Zankov va I.M.Solovev ta'kidlashicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar chizgan rasmlarda, eshituvchi bolalar chizgan rasmlarga nisbatan ko'p detal va qismlarni qamrab olgan bo'ladi. Kar va eshituvchi bolalar rasmlari taqqoslanganda eshituvchi bolalar rasmlarida predmetlarning muhim qismlarini tasvirlarda mavjud emasligi ko'rinadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rasmlarida bunday kamchiliklar kam bo'ladi, lekin ular fazoviy munosabatlar ifodalangan rasmlarni qiyinchilik bilan chizadilar. L.V.Zankov va I.M.Solovev ta'kidlashicha ko'ruv idroki jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchilarga nisbatan predmetning qo'shimcha detallariga ko'p ahamiyat beradilar. Shu sababli, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda idrokning analitik tipi sintetik tipidan ustun turadi, deb ko'rsatish mumkin. I.M.Solovev bu holat eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituvchi bolalarga nisbatan ko'ruv sezgisi ustun degan xulosaga olib kelmaydi, deb e'tirof etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi shakllanishida ko'ruv idroki katta ahamiyatga egadir. Eshituvchi bola eshituv va ko'ruv sezgisi va idrokiga tayanib, gapirishni o'rganadi.

Eshituv sezgisini yo'qotish bilan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi faollashadi, o'tkirlanadi. Ko'ruv idrokidan tashqari, anglash jarayonida hidlash va harakat sezgilari ham muhim o'ringa egadir. Harakat sezgilari inson badani, qismlari, nutqiy organlar harakati haqida signal beradi. Eshituv analizatori funksiyasini buzilishda nutqiy harakatlar aniqligi, differensiallanganligi buziladi. I.M.Solovev va boshqa olimlar eshituvning yo'qolishini nafaqat artikul apparat sezgisi, balki nafas olish apparatining harakat sezgisiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, mimika, daktilologiya kabi nutq shakllari harakat va ko'ruv sezgilari asosida shakllanadi. Teri sezgilari taktil va temperatura sezgilarini qamrab oladi. Ular birligi predmet, uning shakli, kattaligini ifodalovchi materialni anglash imkonini beradi. Bu sezgilar retseptorlari bormoq uchlarida, til uchida joylashgan bo'ladi. Sezgilar faol faoliyatni talab etadi va retseptorlarni ta'sirlovchilar bilan kontakti davomida yuzaga keladi. Teri sezgilari, idrok boshqalar bilan birga predmetni to'liq idrok etishga yordam beradi. Teri sezgilari predmetni ko'rish orqali idrok etishni to'ldiradi. Asosan predmetlarni hajmi va fazoviy joylashuvida idrok etishda, predmetlarni tashqi qatlamini sezishda teri sezgilarining ahamiyati kattadir. U materialni ko'rish orqali anglashga ko'rish ega o'z navbatida sezishga yordam beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv idroki, teri taktil hamda harakat sezgilariga tayangan holda atrof olamni idrok eta olish imkoniyati yuqoriligi rus psixologi T.G.Tigranova tomonidan o'rganilgan.

Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarning diqqat xususiyatlari.

«Diqqat-ongimizning muayyan obektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat. Diqqat ixtiyorsiz, ixtiyoriy va

ixtiyoriydan keyingi turlarga ajratiladi»⁴ - deb bayon etilgan izohli lugʻatda. Diqqat mohiyati inson tomonidan biror narsalarni aniq oydin tarzda aks ettirishda koʻzga tashlanadi. Bir vaqtning oʻzida boshqa narsalardan biror predmetni ajratib idrok etishga yordam beradi. Diqqatning fiziologik asosiga bosh miya ayrim qismlaridagi qoʻzgʻalishlarning ayrim markazlarda toʻplanishi tashkil etadi.

Inson tomonidan sezgilar orqali qabul qilinayotgan barcha narsalarni idrok etish diqqatsiz amalga oshmaydi. Idrok, demak diqqatsiz yuz bersa yuzaki, fragmentar sodda tarzda amalga oshadi. Shu bois, bolalarning oʻquv fanlarini toʻla, keng oʻzlashtirishlarida, maʼlumotlarni tushunishlarida diqqat jarayoni oʻta muhimdir. Shu bilan birga diqqat xususiyatlari: turgʻunlik, boʻlinuvchanlik, taqsimlanish, koʻchish kabilar ham tez suratlar bilan takomillashib boradi. Diqqatni biror joyiga toʻplay olish, uni shu nuqtada maʼlum muddat ushlab turish diqqatning sifatlaridandir. Diqqatni boʻla olish har bir shaxsning qoʻlidan kelavermaydi. Bu narsa asab tolalari, hujayralarining harakatchanligiga bogʻliq. Diqqat asosan oʻquv faoliyat asosida amalga oshib boradi. Normal eshituvchi shaxslarda ham, eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarda ham taʼlim-tarbiyaning asosiy maqsadi diqqatni tarbiyalashdir. Nuqsonli bolalar diqqati qator bolalarda, bolalar diqqatini tarbiyachi, tarbiyachining ogʻzaki nutqi boshqarib borsa, eshitish qobiliyati buzilgan bolalar diqqatida koʻrish taassurotlar yetakchilik qiladi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar bir vaqtning oʻzida ham koʻrgazma materiallarni idrok qilish, ham tarbiyachining labidan oʻqib olish amalda mumkin emas. Shu bois, bu bolalarga dastlab narsalar namoyish etiladi. Undan keyin ular tushuntiriladi. Bu toifa bolalarda 1 va 2 – signal tizimlari orasida munosabatlar tez shakllanmaydi. Bu bolalar diqqatini toʻplash, yigʻish, tarbiyalashda turli-tuman koʻrgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy samaralar beradi. Ogʻzaki nutq umuman nutq orqali karlar bilan muloqot qilish surdopedagoglarning bolalar bilan boʻladigan faoliyatlarida asosiy vositadir. Bu bolalarda nutqni oʻstirish orqali ular diqqatini boshqarib, tarbiyalab borish mumkin. Shu narsa juda muhimki, gapirayotgan kishining lablariga butun diqqatni qaratish oson vaziyat, ish emas. «Labdan oʻqish, - degan edi F.F.Rau, bu nutq aʼzolaridan chiqayotgan ogʻzaki nutqni koʻrish idrokidir». Bu narsa gapirishga oson. Ammo, uni boshdan kechirmoq kerakki, bu yerda qanchalik diqqat zarurligini anglamoq uchun. Shu bois, bu toifa bolalar normal eshituvchi bolalardan koʻra tezroq koʻproq charchaydilar. Bu bolalarga yordam tarzida daktil nutqdan foydalanish tavsiya etiladiki, bu usul orqali bolalar idroki yengilashib, oʻquv materiallarini egallashlari osonlashadi. Daktil nutqi eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar taʼlim-tarbiyasining dastlabki yillarida keng qoʻllanilishi tavsiya etiladi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar diqqatini ushlab turishning uchinchi xususiyati, sharti surdopedagog oʻzini toʻgʻri tutishidir. Surdopedagog quyidagi qoidalarga amal qilmogʻi zarur. Butun bolalarga yuzi bilan qaragan holda mashgʻulotni olib borishi. Mumkin qadar xonada bilim berganda yurmasligi, toʻgʻri kelgan holda tushuntirmasligi lozim. Koʻrgazma qurollar namoyish qila turib, bir vaqtning oʻzida uni tushuntirishga harakat qilmasligi kerak. Kar va zaif eshituvchi bolalarning diqqatlarini

⁴ Психология. Қисқача изоҳли луғат. Т.1998 й., 15 бет.

to'plashning to'rtinchi sharti shuki, xonada mumkin qadar ko'proq ko'rgazma qurollardan foydalanish lozim. Beshinchi sharti shundan iboratki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar diqqati ovozi qo'zg'atgichlarga bog'liq emas. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar diqqatini to'plash, bir maromda ma'lum muddat ushlab turishning asosiy omillaridan biri mimikalaridir. Bu narsa juda katta ta'sirga, jalb etuvchi kuchga ega. Kar va zaif eshituvchi bolalarda diqqat maxsus ta'lim-tarbiyaning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning xotirasining o'ziga xos xususiyatlari

Xotira – oldin idrok etilganni ifodalash, saqlash va tasvirlash bilan belgilanuvchi ongli ruhiy jarayondir. Xotirada insonning oldingi tajribasi, uning faoliyati, idroki, qayg'urishi ifodalanadi. U inson faoliyatida muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, meyorda eshitadigan bolalar ma'lum hajmdagi bilimlarni eshitish orqali egallaydilar. Kar va zaif eshituvchi bolalarda esa mazkur holat maxsus korreksion pedagogik ta'limsiz amalga oshirilishi murakkabdir. Bu bolalarda o'quv materiallarini ko'rish orqali olganligi bois, ko'rish xotirasining ustunlik qilishidan darak beradi. Tashqi olam bilan aloqa natijalarini saqlash va ifodalash xotira asosini tashkil etuvchi tasavvur shaklida amalga oshadi. Xotira tasavvuri – bu predmet va hodisalarni xissiy ko'rgazmali umumlashgan obrazlaridir. Xotira faoliyati natijasi sifatida ular o'tmishida inson tomonidan idrok etilgan predmet, hodisalarni ifodalaydi, bevosita faoliyat natijasida sezgi obrazlari idrok yuzaga keladi. Shunday qilib, agar idrok obrazlari bo'lmasa, xotira taassuroti mavjud bo'lmaydi (Masalan, Tug'ma karlarda tovush, shovqin, taqillatish haqida taavvurlar mavjud bo'lmaydi). Idrok va tasavvur o'xshashligi ularda predmet va hodisalar xususiyatlari va qirralari namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Tasavvur idrokka nisbatan kambag'alroqdir. Unda predmetlarni faqat ma'lum tomonlari namoyon bo'ladi, lekin ba'zi tomonlari tushub qoladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda xotira funksiyasi va xususiyatlari.

Xotira o'tmishning ifodasi sifatida quyidagi asosiy funksiyalari yordamida amalga oshadi: ilk idrok etilgan materialni eslash, saqlash, tanish va bayon etish. Eslab qolish ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Agar inson o'z oldiga materialni eslab qolish maqsadini qoymasa, material irodaviy harakatlarsiz, istaksiz esda saqlansa, bu ixtiyorsiz eslab qolish sanaladi. Agar inson oldida materialni eslab qolish, uni egallash maqsadi tursa, bu ixtiyoriy eslab qolishdir. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, barcha figurani bir vaqtda ko'rsatishda eshitishda nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarni obektni eslab qolishida farqlar kuzatilmadi. Ketma-ketlikda predmetlarni ko'rsatishda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalarga nisbatan sust eslab qolganlar. Ketma-ketlikda figuralarni ko'rsatish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni eslab qolishini qiyinlashtirgan. Bunda figuralarni ayrim qismlari idrok etilib, asosiy mohiyatga e'tibor kam qaratilgan. Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar idrok etilganni bir butunga fikriy integratsiya qilishda qiynalishi dalillandi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda so'zlarni egallash maxsus ta'lim jarayonida amalga oshadi va sog'lom bolalardan shu xususiyati bilan orqada qoladi. Tadqiqotlarning birida eshitishda nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarning 3 turdagi so'zlarni idrok etish tadqiq etilgan.

1. Ko'rish orqali idrok etilayotgan predmet va hodisalarni ifodalovchi so'zlar.
2. Taktil analizatori yordamida idrok etiluvchi predmet belgisi ifodalovchi so'zlar.
3. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so'zlar.

Tadqiqot natijalari tahlili ko'rsatishicha ko'ruv orqali qabul qiluvchi so'zlarni, ifodalovchi so'zlarni eslab qolishda eshitishda nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarda farq kuzatilmaydi. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so'zlarni eslab qolishda eshitishda nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasida farq mavjud. Bu turdosh so'zlarni eslashda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalardan qoladi. Lekin teri analizatori orqali idrok etilayotgan so'zlarni eslashda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bolalardan ustunligi kuzatildi. Tadqiqotda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar asosan ovoz chiqaruvchi hayvonlar va ovoz chiqarib ishlaydigan mexanizmlarni ifodalovchi so'zlarni yaxshi eslab qolishni namoyon bo'ldi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda obektlarning ovozi haqidagi tasavvur saqlangan analizatorlar faoliyati asosida amalga oshadi. Eshituv tasavvurlari doirasidagi fe'llar ko'ruv vibratsiyasi, taktil doirasidagi fe'llar bilan almashtirilishi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'p kuzatiladi. Shuningdek, bolalarni ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotirani qo'llashga o'rgatish muhimdir. O'rganilayotgan materialni o'tilgan bilan qiyoslashga o'rgatish ham xotirani rivojlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda uzoq muddatli eslab qolishga tayangan shakllantirish lozim, shuning uchun savol-javob faqat ayni dars bo'lishga emas, balki o'tilgan mavzu boyicha bo'lishi kerak. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar xotirasini rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Bu takror turi bolalarda qiyoslash operatsiyasi faollashtiradi fikr operatsiyani rivojlantiradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar vaqtlar boyicha ajratilgan takrorlashga o'rgatish muhimdir. Agar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar qolishga berilgan material hajmiga ko'ra katta va oson bo'lsa, uni hammasini yodlash talab etiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni so'zlarni ma'nodosh so'zlar almashtirish o'qilgan matn mazmuni o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatish muhimdir. Bu eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar fikrlash xotirasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning tasavvur va uning xususiyatlari.

Tasavvur – yuqori ongli jarayon bo'lib, tassurotni yangilanishi va mavjud obrazlar asosida yangilarini yaratishni ko'zda tutadi. Tasavvur shaxs ehtiyojlari asosida motivlanadi. Inson o'z tasavvurida yorqin obrazlar yordamida o'z ehtiyojini qondiradi. Bu holatlarda tasavvur haqiqat aksini tezlashgan holda namoyon qiladi. Faoliyat so'ngida bu jarayon natijalarini tugallangan holda fikriy tasavvur qilishimiz mumkin. Tasavvur yordamida yaqin, uzoq kelajak hodisalarni oldindan tahlil qilish imkoni tug'iladi. Predmet, hodisa, shaxslarni idrok etish jarayonida insonda ayni shu paytda analizatorlarga ta'sir etuvchi obrazlar, dunyosi yuzaga keladi. Idrok etish natijasida yuzaga kelgan obrazlar xotirada saqlanib qolishi tasavvur yoki xotira obrazlari deb nomlanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasavvurining o'ziga xosligi so'zlashuv nutqining kech shakllanishi va mavhum tafakkurning o'ziga xosligi bilan asoslanadi. Kar bolalarning ko'ruv obrazlari yorqinligi, jonliligi bilan xarakterlanadi, lekin tafakkurning kech

shakllanishi soʻzning harfiy maʼnosini tushunishda murakkablik tugʻdiradi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarni soʻzlarni koʻchma maʼnosini tushunishdagi qiyinchiliklar tasavvurning yetarli darajada emasligi bilan xarakterlanadi. Tasavvurni quyidagi turlarga tasniflash lozim:

1. Passiv tasavvur;
2. Faol tassavur. U ijodiy va yaratuvchanlik xarakteriga ega boʻladi.

Passiv tasavvur oldindan oylangan va oldindan oylanmagan boʻlishi mumkin.

Yaratuvchan tasavvur. Yaratuvchan tasavvur haqida predmet, hodisa, voqeaning soʻz orqali tavsiflash asosida uning koʻrgazmali obrazi, taassuroti asosida yuzaga keladi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar ruhiy faoliyatining bu turi oʻziga xos boʻladi. Yaratuvchan tasavvurga koʻra bola ongida atrof olam keng, koʻp qirrali boʻlib namoyon boʻladi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar aqliy dunyoqarashi shaxsiy tajriba doirasidan tashqarisiga chiqadi. Lekin soʻzlashuv nutqi va mavhum tafakkurining rivojlanishdan orqada qolishi kar bolani insonlarning ijtimoiy tajribasini toʻliq egallashiga toʻsqinlik qiladi. Bola ongida asar muallifi tomonidan yaratilgan obrazlar, hodisalar haqida tasavvur yuzaga keladi. Bu bolalarga turli davrlardagi hodisalar va inson his-tuygʻularini tushunish imkonini beradi. Tarbiyachilar kuzatishicha, eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarda oʻqish jarayonida shakllanuvchi obrazlar har doim ham toʻgʻri tavsiflanmaydi. Koʻpincha bu oʻqilgan asar mazmunini tushunmaslikka olib keladi.

Kar bolalarlarning ijodiy tasavvurining elementar shakllari haqida

Ijodiy tasavvur tasavvurni oldindan namoyon boʻlishi va mustaqil ravishda yangi obrazlar, taassurotlar yaratish bilan belgilanadi. Ijodiy tasavvur va tafakkurning oʻzaro munosabatini tadqiq etib, A.V.Petroyevskiy va M.B.Verbenskiy bu ikki ruhiy jarayonda intellektual faoliyatning turli aspektlarini koʻradilar. Ular tasavvur va tafakkurning bir necha shakli mavjud deb eʼtirof etadilar. Ijodiy tasavvur jarayoni sifatida xotira asosida yangi obrazlarni yaratish bilan belgilandi. Tasavvurning qurilish materialı – bizning oʻtmish tajribamiz, tasavvur natijalari Yangi obrazlar – tasavvur tassurotlari sanaladi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar eshituvchi bolalardan ovoz chiqaruvchi predmetlar haqida bilib oladilar. Kichik yoshdagi eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar uchun predmetlarni ovoz chiqarish hodisasi mavhumdir. Taʼlim jarayonida eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar ham ovoz chiqaruvchi predmetlarga farqsiz boʻlmasdan, ularga ahamiyat bera boshlaydilar. Tasavvurni nutqni rivojlantirish bilan birga olib bormoq maqsadga muvofiqdir. Uni egallab, kar bola tasavvurga tayanib, suhbatdosh hikoyasi yoki oʻqilgan hikoya mazmunini aniq aytib bora oladi. Soʻzlashuv nutqini rivojlantirish tasavvurini boyitishga, ijodiy obrazlarning shakllanishga olib keladi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning xayol xususiyatlari

Hayol – mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarning yaratilishidan iboratdir psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy hayol turlariga ajratiladi»⁵. «Hayol yoki fantaziya, tafakkur kabi, yuksak bilish

⁵ Психология қисқача изоҳли луғат. Т-1998 йил. 40-бет.

jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos ijobiy harakatlariga ega bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini hayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordamida ko'tilayotgan natijani tasavvur qilish inson mehnatining hayvonlar instintiv faoliyatidan tub farqidir»⁶ - deb ta'kidlangan darslikda. Hayolning psixik jarayon sifatida birinchi va muhim vazifasi shundan iboratki, u mehnatni boshlashdan oldin uning natijasini tasavvur qilish imkonini beradi. Hayol faol va passiv bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz tarzida amalga oshishi, yuzaga kelishi mumkin. Qayta tiklovchi, ijodiy hayollar ham bor. Hayolni yuksak, xohlagan turi – orzudir. Nuqsonli bolalarda hayol, ayniqsa, yosh bolalarda o'ziga xos xususiyat, ko'rinishga ega. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalardagi hayolning o'ziga xosligi ulardagi og'zaki nutq va mantiqiy tafakkurining kechikib shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Ko'rish tasavvurlari har doim ham kerakli darajada tahlil etilmaydi. Shu sabab ular tomonidan yangi predmetlar tahlili qiyosiy amalga oshadi. Demak, nuqson: ko'rishmi, eshitishmi, aqliymi, nutqmi baribir hayol jarayonlarining kechishiga, shakllanishiga, rivojiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmas ekan. Bu deyarli isbot, tushuntirish, talab etilmaydigan haqiqatdir. Lekin, bu taassurotlarni qancha erta, muvaffaqiyatli korreksiyalasak bolalarlarda hayol jarayonlari shunchalik tez va to'liq rivojlanishi mumkin. Bu jarayonning tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini e'tiborga olsak, masalaning mohiyati yanada tezroq ravshanlashadi. Bu mavzuda albatta, O.I.Skoroxodovanning «Kak ya voprinimayu, prestavlyayu i ponimayu okrujayushix mir» (M. 1972) kitobini tahlil etish darkor. Ayniqsa, kitobning ko'r, kar kishi tomonidan «dunyoni», qanday tasavvur etish to'g'risidagi qismlar chuqur o'rganilmog'i darkor.

Xayol shaxsning intilishi, talablari bilan ham belgilanadi. Ko'rgan, eshitgan, bilgan, narsalar obrazlari xotiramizda saqlanadi. Kerak vaqtda bularni tiklashimiz mumkin. Bu jarayon xotira obrazlari sifatida jonlanadi. Yoki, tasavvurlar shaklida ko'z oldimizga keladi. Xayol obrazlari tasavvur obrazlaridan o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Tafakkur va xayol oralig'ida uzviy, mantiqiy birlik, bog'liqlik bor. Ammo, o'ziga xos farqlari ham bor. Bularni ajrata olish darkor. Inson biror murakkab muammoni yechishi talab etilganda tafakkurga murojaat etadi. Bunday natijalarga erishish yo'llari mavjud bo'lsa, tafakkur orqali bo'lsachi, unda biz tafakkurdan ko'ra hayol kuchiga tayanamiz. Hayolning rivojlanishi konkret ko'rgazma obrazlardan mavhum tushunchalar orqali yangi hayol obrazlari ijod qilish tarzida amalga oshib boriladi.

Eshitish analizatorining zararlanishi oqibatida bu bolalarning tashqi dunyoni aks ettirish faoliyati, ijtimoiy muhit ham bu toifa bolalar shaxsining mukammal shakllanishga salbiy ta'sir etar ekan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni hayol xususiyatlarini rivojlantirishda ta'lim jarayonida rol o'yinlarni tashkillashtirish maqsadga muvofiq.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantirish.

Tafakkur – haqiqatni bevosita va umumlashgan holda aks ettiruvchi bilish jarayonidir. Hozirgi kunda bolalar tafakkurining rivojlanishini uch bosqichi –

⁶ А.В.Петровский. Умумий психология. Т-1992 йил, 381 бет.

ko'rgazmali – harakat, ko'rgazmali – obrazli, so'zli – mantiq tavsiflanadi. So'nggi bosqichda umumlashish, tushunchaning shakllanganligi darajasi, ishlatiladigan material xarakteriga ko'ra konkret – tushunchali va abstrakt tushunchali tafakkur o'zaro tasniflanadi. Ko'rgazmali – harakat tafakkuri predmet bilan tashqi harakatni o'zida jamlaydi, bunda bola maqsadga erishish vositasi sifatida turli predmetlardan foydalanadi. Amaliy vazifalarni amalga oshirishda muammoni hal etishni bir sharoitdan ikkinchisiga o'tkazish zaruriyati yuzaga keladi. Bu ko'rgazmali – harakat umumlashmalarini shakllanishga olib keladi. Ko'rgazmali – harakat tafakkurining o'ziga xosligi, bir sharoitdan boshqasiga o'tishda bola harakati va predmet aloqasi, munosabati tamoyili to'liq namoyon bo'lmasligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, nutqiy rivojlanishgacha tafakkurning inert, harakatchan emasligi kuzatiladi. Ma'lum nuqtai nazardan bola narsani anglab, undan qiyinchilik bilan ajraladi. Nonutqiy muloqot imo – ishora yoki so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun asosiy omil sanaladi. Kar bolani nutqini rivojlantirish uning tafakkurini rivojlantirishda muhim o'ringa ega. A.V.Zaporojes fikrcha bolani amaliy tajribaga va sensor tarbiyaga ega bo'lishi asosidagina bu jarayon amalga oshishi mumkinligini e'tirof etadi. Bolaning amaliy tajribasi inson qo'li bilan yaratilgan predmetlar bilan topishi, harakatlarni natijalar bilan qiyoslash, sabab – oqibat aloqalarini belgilashdir. Shuningdek bolalar predmetlararo munosabatlarni ham anglaydilar. Ko'rgazmali – harakat tafakkurini rivojlanishidan orqada qolish nutqi mavjud bo'lmagan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ham uchraydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar harakatni umumlashtirish usuliga ega bo'lmaydilar, shu sababli bu vazifani o'rgatish uchun to'rt marotaba ko'p vaqt va uch marotaba ko'p ko'rgazma kerak bo'ladi.

A.R.Luriya va F.L.Yudovich nutqiy rivojlanishi orqada qolgan sog'lom egizak bolalarni tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan. Bolalar harakatni so'zdan ajratish, rejalashtirish, elementar tasniflash malakasiga ega bo'lmaganlar. Predmet ifodasi, belgi, munosabatlarini anglab bola predmet obrazlari bilan tafakkur harakatlarini amalga oshiradilar.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uzoq muddat davomida ko'rgazmali – obrazli tafakkur bosqichida qoladilar. Xususan, T.V.Rozonova tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'rgazmali – obrazli tafakkurining rivojlanishidagi farq maktabgacha ta'limining boshida kuzatilishini isbotlaydi. Ko'rgazmali – obrazli tafakkurni rivojlantirish model tasavvurlarni umumlashtirish imkonini yuzaga keltiradi. Ko'rgazmali – obrazli tafakkurni shakllantirish so'zlash nutqining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, ko'rgazmali – obrazli tafakkurni so'zlash – mantiq tafakkuri bosqichiga o'tishi sog'lom bolalarga nisbatan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda uzoq muddat davomida amalga oshadi. Bu fikrlash operatsiyalarini rivojlanishida namoyon bo'ladi. Fikrlash operatsiyalari – tizimga tashkillashtirilgan umumiy harakatlardir. Bu fikrlash operatsiyalari asta – sekinlik bilan amalga oshadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda fikrlash operatsiyalari eshituvchi bolalarga nisbatan kech shakllanadi. Analiz va sintez jarayonini rivojlanishida ham orqada qolish kuzatiladi. Bu jarayonlar yanada uzoq muddatli va sistematik tarzda amalga oshadi. Taqqoslash jarayonida farqlarni topish va o'xshatish munosabatlari amalga oshadi. I.M.Salovyov ta'kidlashicha,

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda taqqoslashning quyidagi jihatlari namoyon bo'ladi: ikki predmetni taqqoslashdan birining analiziga o'tib ketish, vazifani soddalashtirish, predmetlarni taqqoslashdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'smirlik chog'ida taqqoslash texnikasini egallashda yutuqlar kuzatiladi, taqqoslash sifati oshadi.

Abstraksiyalash jarayoni syujetli – rasm o'yin va o'quv faoliyati jarayonida amalga oshadi. Syujetli – rasm o'tishning xarakterli xususiyati o'rindosh predmetlarni qo'llash hisoblanadi. Almashtiriluvchi predmetlar xususiyatini ajratish va taqqoslash abstraksiyaga asoslanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar almashtirilgan predmetlarni qo'llashda qiyinchiliklarga uchraydilar. Hatto almashtirish uchun funksional mumkin bo'lgan predmetlar ular tomonidan har doim qo'llanilmaydi, ularni real funksional ahamiyatida ajratish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun qiyin tarzda kechadi. N.I.Shif ma'lumotlariga ko'ra, maktabgachagacha yoshdagi, maktabgacha yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun almashtiruvchi vosita sifatida tanishga nisbatan, notanish predmetlarni qo'llash qulaylik tug'diradi. Abstraksiya jaryonida orqada qolish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyatida ham orqada qolishiga sabab bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar kattaliklarni taqqoslash, kattaliklar o'zaro munosabatini tushunish, masala mazmunidan uni ko'rgazmali ifodalash, berilgan munosabatlarda ko'rgazmali sharoitda ajratishni ifodalovchi bir qator masalalarni hal etishda qiyinchiliklarga uchraydi. Asosiy qiyinchiliklar matn mazmuni boyicha xulosa chiqarish, ma'lumotlarni analiz va sintez qilishda yuzaga keladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda sezgilarning qanday xususiyatlari bor?
2. Ko'rishda nuqsonga ega shaxslarda ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotiraning o'ziga xosligini ochib bering.
3. Ko'rishda nuqsonga ega shaxslarda qisqa muddatli va operativ xotira qanday ahamiyatga ega?
4. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar idrok va sezgi jarayonlariga umumiy tavsif bering.
5. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni sezgi va idrokining o'ziga xos xususiyatlarini yoriting.
6. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqini shakllantirishda ko'ruv sezgisining o'rni qanday?
7. Kar va zaif eshituvchi bolalarning tafakkur xususiyatlarini izohlang.
8. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning hayol va tasavvur xususiyatlarining o'ziga xosligi va bog'liqligi qanday?
9. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni xotira xususiyatlarini ochib bering.
10. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar diqqat turlari, ularning xususiyatlarini haqida.

3-Mavzu Intillektida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish jarayonlarini o'ziga xosligi.

Reja.

1. Aqli zaif bo'lgan bolalar bilish jarayonlarining o'ziga xosligi.
2. Ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish jarayonlarini o'ziga xosligi.
3. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik muammosi va xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Sezgi, idrok , diqqat, xotira , xayol, tasavvur, tafakkur, nutq.

1. Aqli zaif bo'lgan bolalar bilish jarayonlarining o'ziga xosligi.

Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham aqli zaif bola bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilimdan tobora to'liqroq va aniqroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi.

Muayyan fan va hodisalar ob'ektiv dunyoni bilish jarayonidan o'rganiladi va ularning tashqi, ichki mohiyatini o'zlashtirish jarayonida omillar aniqlanadi. Mushohada, tasavvur va abstrakt tafakkurga asoslanib faktlar umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqarish natijasida nazariyalar, qonunlar va kategoriyalar yaratiladi.

Bilish ikki qismga - **nazariya** va **amaliyotga** bo'linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik raqam va boshqalar. Nazariyada g'oya shakllanadi.

Amaliyot bilimlarning haqiqiylikini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba, o'zgartirish, yaratish - bular amaliyot shakllariga kiradi.

Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Marsni kuzatish jarayonini olaylik. Jonli mushohada va abstrakt tafakkur yordamida uchirilgan ilmiy apparatlar orqali olingan materiallarni laboratoriyalarda tekshirish amaliyotga kiradi.

Ilmiy bilishning vazifasi hodisalarning mohiyatini, ularning rivojlanish qonunlarini ochishdangina emas, balki biron - bir qonunning qay tariqa namoyon bo'lish sabablarini ham ko'rsatib berishdan iborat.

Ilmiy omil ilmiy bilishning elementi bo'lib, kuzatish, tajriba asosida qo'lga kiritiladi, omilga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati, amaliy faoliyat uchun ahamiyati ham bo'lmaydi. Shuning uchun ilmiy bilimning, fanning asosiy maqsadi omillar asosida yotgan umumiy bog'lanishlarni, qonuniyatlarni topish, ularning mohiyatini bilishdir.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari bilishda omillarni o'rganishga katta ahamiyat berganlar. Abu Nasr Forobiy (873—950) bilimning elementi bo'lgan omillarini o'rganishga katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, bilimning asosini mavjud narsa va hodisalarni inkor ettiradigan omillar tashkil etadi. Ibn Sino (980—1037) kasallikni vujudga keltiruvchi ob'ektiv omillarni o'rganish asosida kasalliklarni turlarga ajratadi va davolash usullarini ishlab chiqadi. Beruniy (973—

1048) tabiat hodisalari sirlarini o'rganishda tajriba, empirik kuzatish va ular asosida olingan faktlarga asoslanadi.

Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish tevarak - atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga ta'sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator, I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim sifatlarini idrok qiladi: biz sovuq, iliqlik, sho'r, oq, qora, achchiq, chuchuk va hokazolarni ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm - maza bilish, teri - muskul - harakat va organik sezgi organlarining faoliyati orqali bilib olamiz.

Sezgilar - olam haqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilishda, masalan, olimning bilishi bilan bolaning bilish faoliyati o'rtasida umumiylik bo'lsa ham, lekin ular bir-biridan farq qiladi. Olimlar olamni bilib olib, ilgari fanga ma'lum bo'lmagan yangi haqiqatlarni kashf etadilar, yangi qonuniyatlarni aniqlaydilar va shu tariqa fanning ilgarilab ketishiga imkon yaratadilar. Bolalar esa ta'lim jarayonida olam haqidagi elementar bilimlarni bilib olib, o'zlari uchun ilgari noma'lum bo'lgan, biron fan kashf etgan va odamlarning ijtimoiy - tarixiy amaliyotida tekshirib ko'rilgan yangi bir narsani bilib oladilar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida defektolog bolalarni olimlar tomonidan yaratilgan bu qonunni bilishga to'g'ri, yengillashtirilgan, vaqt jihatidan qisqa yo'ldan olib boradi. O'qitish natijalari bilim sifatida, aqli zaif bolalarning korreksion rivojlanish darajasida o'z aksini topadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalardagi ta'limning umumiy vazifalari aqli zaif bolalar nuqsonlarini tuzatish vazifasi bilan birga olib boriladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'limning asosiy, zaruriy xususiyatlaridan biri uning nuqsonni tuzatishga yo'nalganligida bo'lsa, ikkinchi xususiyati, uning bolaning rivojlanishida o'ziga xos amalga oshirilishidadir.

Bosh miya faoliyatlari nuqsoni asosida aqli zaif bolalarning rivojlanishi cheklangan bo'lib, orqada qoladi. Aqli zaif bola kam rivojlangan emas, balki o'zgacha rivojlangan va rivojlanayotgan boladir. Uning rivojlanishi nuqsonli ravishda amalga oshib boradi. Aqli zaif bolaning bilish faolligi va mustaqilligi birmuncha past bo'ladi. Bu kamchilik ularning bevosita hayot qiyinchiliklariga duch kelganlarida namoyon bo'ladi.

Me'yordagi ommaviy maktab bolalari ma'lum voqealarga e'tibor berib, ular haqida bilim egallasalar, aqli zaif bolalar bu voqealarni sezmasliklari mumkin. Bu holat maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'limtarbiyani qiyinlashtiradi. Shunga qaramasdan maktabgacha ta'lim bu bolalarda faollik, mustaqillikni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Shuni ta'kidlash o'rinliki, aqli zaif bolalardagi buzilgan ruhiy jarayonlar maxsus pedagogik ta'sirga yaxshi beriladi. Shu sababli maktabgacha ta'limida «yaqin orada rivojlanishi mumkin bo'lgan zona»ga alohida e'tibor beriladi.

Maktabgacha ta'limining ko'rgazmaliligi ham uning o'ziga xos tomonlaridan biridir. A.N.Grabyorovning ta'kidlashicha, ko'rgazmalilik idrok, tasavvurlarni tuzatishga imkoniyat yaratadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasasilarida ko'rgazmalilik ommaviy maktablardan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega. Aqli zaif bolalar ko'rgazmalilik orqali narsa, voqealarning ichki mohiyatini tushunib boradilar. Shu orqali ularning fikrlash faoliyatlari to'g'rilanib boradi. Balki

ko'rgazmalilik og'zaki tushuntirishlar bilan birga namoyish etilsagina kutilgan maqsadga erishish mumkin. Shundagina aqli zaif bolalarning nutqi, tafakkuri birga rivojlanib boradi, maktabgacha ta'lim ta'limi jarayonida aqli zaif bolalarning faol emasligini, mustaqil ishlashlarining chegaralanganligini yodda tutish kerak. Aqli zaif bolalardagi bu xususiyatlar maktabgacha ta'lim ta'limining oxirida ham normal tengdoshlariga yeta olmaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasasining barcha ta'limiy – tarbiyaviy jarayonlarida defektologlar bu kamchiliklarni bartaraf etib borishlari kerak.

Shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim muassasasi ta'limi sodda, bolalar nuqsoniga moslab, mexanik tarzda berilishi tufayli har doim ham kutilganday natija bermaydi. Shu sababli o'quv materiallari qancha sodda bo'lmasin, albatta ongli, tushunarli tarzda berilishi kerak. Shundagina bu ta'lim bolalar nuqsonlarini tuzatishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim defektolog va bolalarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, bolalarning bilim olishiga, zarur ko'nikma va malakalar hosil qilishlariga xizmat ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar va maxsus pedagogika amaliyoti tahlili maktabgacha ta'lim muassasasida o'qitish jarayonining tobora jiddiy xususiyatlari va uning normada rivojlanayotgan bolalar ta'limi jarayonidan farqini belgilash imkoniyatini beradi.

Eng muhim xususiyatlardan biri: aqli zaif bolalar maktabda o'qitishning dastlabki bosqichida ularning maktabgacha tayyorligi jiddiy ahamiyat kasb etishidadir. Aqli zaif bolalarni maxsus maktabgacha muassasalarda tayyorlash ancha samaralidir. Biroq, aqli zaif bolalarning katta qismi bunday muassasalarga qatnashmaydi. Ijtimoiy muhit, bolaning atrofdagilari, oilada u bilan olib boriladigan ishlar xarakteri uning butun rivojlanishiga, jumladan, muomala vositalari shakllanishiga ta'sir etadi. Aqli zaif bolalar tarbiyasi sharoitlari turlicha ekani ularning umumiy va nutqiy rivojlanish darajasidagi turli-tumanlikni keltirib chiqaradi, bu esa ta'lim jarayonini murakkablashtiradi.

Maktabgacha ta'lim ta'limi amaliy yo'nalishga ega. Amaliyot aqli zaif bolalarning nazariy bilimlarni egallashlariga yordam beradi hamda ular amaliyotda qatnashib, nazariy bilimlarini oshirib boradilar.

Tarbiya jarayoni – defektolog va aqli zaif bolalarning maxsus tashkil etilgan, izchil o'zgaruvchan, maqsadga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyati bo'lib, bunda bolalarning ta'limi, tarbiyasi va umumiy rivojlanish masalalari hal etiladi. O'qitish asosini bolalarning defektologlar rahbarligidagi faol rejasi bilish faoliyatini tashkil etadi. O'qitish jarayonida aqli zaif bola tegishli fan asoslari ko'rinishida namoyon bo'ladigan tabiat, jamiyatning ko'p qirrali dunyosi bilan tanishadi.

Maxsus tashkil etilgan bilish jarayoni bolaning atrofdagi voqelikni anglashini tezlashtiradi. U o'z vazifalari, mazmuni, tamoyillari, tashkiliy shakl va metodlari, struktura va mantiqiga ega. Bola nisbatan qisqa muddat ichida insoniyat ming yillar davomida egallagan bilimlar asoslarini o'zlashtiradi. Shu bois o'qitish ob'ektiv borliqni bilishning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri sanaladi.

Ta'lim yagona bilish jarayoni sifatida o'qitish (defektolog faoliyati) o'qish (bola faoliyati) shaklida kechadi. O'qitish – defektolog tomonidan aqli zaif bolalar faoliyatini boshqarish. U o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, bolalar bilish

faoliyatini to'g'ri rejalash tizimi, rag'batlantirish, nazorat qilish va tahlil etishdan iborat. Defektolog aqli zaif bolalarga faol ta'sir etib, ularning aqliy, axloqiy va irodaviy kuchlarini o'quv vazifalarini hal qilishga safarbar etadi.

O'qish – aqli zaif bolalar tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarini egallashning faol jarayonidir. Bunda bolaning aqliy rivojlanishi, aqliy sifatlari, xarakter qirralari, shaxs xususiyatlari shakllanadi. O'qish – aqli zaif bola uchun murakkab jarayon bo'lib, uning faolligi va mustaqilligi rivojlanganligi darajasiga bog'liq va aqliy, irodaviy va jismoniy sa'y-harakatlarni talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiyaning vazifasi har bir bolani har tomonlama rivojlanish, bitiruvchilarni sog'lom tengdoshlari bilan barobar xalq xo'jaligining turli sohalarida amaliy faoliyat yuritishga tayyorlashdir. Maktabgacha ta'lim muassasasi jarayoni metodologik asoslarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar tashkil etadi. O'qitish jarayonida ta'lim va tarbiya turli yo'llar bilan ta'minlanadi. Ko'p vaqt amaliyot bolalarning bilim va malakalarini qo'llay olishi bilan bog'lanadi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, amaliyot nazariyadan avval egallanishi mumkin. Aqli zaif bolalarning shaxsiy tajribasi ularning amaliy faoliyatida bilim va malakalar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyot bilan ta'lim jarayoni barcha bosqichlarida bilimlar haqiqiyligi tekshiriladi. U ta'lim jarayonida maqsad sifatida gavdalanadi. Zero, bilim va malakalar, eng avvalo, amaliy faoliyat uchun zarur.

Maktabgacha ta'lim didaktikasida ta'lim jarayoni rivojlanuvchi, dialektikaning asosiy qonunlariga bo'ysunuvchi sifatida qaraladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim jarayoni uchun umumta'lim maktabi ta'lim jarayonini rivojlantirish, o'zgartirish va takomillashtirish manbalari bo'lgan ziddiyatlar xarakterlidir. Ular orasida tobora umumiy, asosiy ziddiyatlar: jamiyatning maktab ta'limiga talablari va mazkur sharoitda ta'limning real imkoniyatlari; insoniyat to'plagan ijtimoiy-tarixiy tajriba hajmi bilan bolalar o'zlashtirilgan bilim hajmi; o'quv fani bilan fanning tegishli sohasi; ta'limda ilgari suriladigan bilish va amaliy vazifalar; murakkab talablar hamda bolalarning aqliy rivojlanish darajasi, ularning imkoniyatlari, egallagan bilim, malaka va ko'nikmalari o'rtasidagi ziddiyatlar ajralib turadi. Tobora xususiy ziddiyatlarga; bolalar egallagan bilim darajasi va yangi bilimlar, egallangan bilimlar va ularni amaliy qo'llash; bolalarning o'qishga nisbatan talab etiladigan va erishgan munosabati daraja sifatlarini bilish faolligi, mantiqiy usul va operasialari, qiziqish va qobiliyati, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. O'qitish jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu maktabgacha ta'lim muassasasida maxsus vazifa bo'lib, o'ziga xos yo'llar bilan hal etiladi. Ta'lim davomida bola nutqni muloqot, bilish va fikrlash vositasi sifatida egallashi lozim, Aqli zaif bola nutqi rivojlanganligi darajasi uning umumiy va aqliy rivojlanganligining ko'rsatkichidir. Aqli zaif bolalarda nutqni shakllantirish mantiqiy tafakkur rivoji bilan birgalikda olib borilishi kerak. Barcha psixik jarayonlar rivojlanishining umumiy sharti bolalarning ta'lim jarayonida faolligi va mustaqilligini ta'minlashdir. Bunda shaxsiy, hissiy-irodaviy omillar: qiziqish va rag'bat, iroda, o'qishdan quvonish muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonining korreksion vazifasi

bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishida aqli zaiflik asoratlarini tugatishdan iborat.

Maxsus ta'lim jarayonida aqli zaif bolalarning butun bilish faoliyatini o'zgartirish va shaxsini shakllantirish amalga oshiriladi. Yordamchini o'qitish jarayonida eshitib idrok etishni rivojlantirish katta o'rin tutadi. Korreksion vazifalar aqli zaif bolalar rivojlanishi qonuniyatlari va har bir bolaning xususiyatlarini hisobga olgan holda hal etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'qitishning barcha vazifalari aqli zaif bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlari haqidagi ilmiy ma'lumotlarga asoslanib, bu rivojlanishni ta'minlash bo'yicha yo'naltirilgan ish uchun sharoit yaratish hisobiga hal etiladi.

Bolalarning barcha faoliyat turlarida rivojlantiruvchi xarakterdagi omillar mavjud.

Barcha faoliyat mazmuni, mohiyati bolalarning dunyoqarashlarini boyitib borishga xizmat qiladi. Shu asosda bolalarning bilish jarayonlari o'sib, rivojlanib boradi va shunga imkoniyat yuzaga keladi. Har qanday faoliyat, agar u pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil qilinsa, shaxsning aqliy va irodaviy sifatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Inson o'z faoliyatini rejalashtiradi, o'z oldiga maqsad qo'yadi, oxirgi natija ustida bosh qotiradi, materiallar tanlaydi. Bu jarayonlarda inson faqatgina harakat qilib qolmasdan, mumkin qadar mukammal usullarni qidiradi, ijodiy yondashadi.

Faoliyat natijasi baho bilan bog'lanadi hamda namuna bilan taqqoslaniladi, tahlil qilinadi. Faoliyatni tashkil etish qanchalik yuqori darajada bo'lsa, bu faoliyat shaxs kamolotiga shunchalik katta ta'sir etadi. Barcha faoliyat turlarida intilish, motivlar katta rol o'ynaydi. Shu motiv asosida bola o'z faoliyatiga turlicha munosabatda bo'ladi. Motivlar bolada faoliyatga nisbatan qiziqish yoki befarqlikni yuzaga keltiradi. Shu asosda bola rivojiga ham turlicha ta'sir etadi.

Bolalardagi faoliyatga bo'lgan motivlar turli-tumandir. Bola faoliyatini bir necha motivlar asosida tashkil etishi mumkin. Qiziqish, javobgarlik, jamoadagi hayot, ijtimoiy motivlar shular jumlasiga kiradi. Faoliyatdagi motivlar unga ma'lum yo'nalish beradi. Bu narsa shaxsning rivoji uchun katta ahamiyatga ega. Faoliyat usullarini, yo'llarini egallash va ularni rivojlantirish ham shaxsning rivojiga ijobiy ta'sir etadi.

Bolalar turli ko'nikma, malakalarni egallash bilan birga o'z faoliyatlarini takomillashtirib boradilar. Ko'nikma, malaka, odatlarni takomillashtirish irodaviy sifatlarining ham rivojlanishiga yordam beradi. Xullas, faoliyatda yaxshi natijalarga erishish uchun shaxs turli hissiy holatlarga tushadi. Bu esa, o'z navbatida, shaxsiy sifatlarining o'sishiga olib keladi.

Bolaning rivojlanib borishi jarayonida faoliyat ham o'zgarib boradi. Agar bolalardagi faoliyat dastlab tahlil asosida amalga oshgan bo'lsa, borgan sari mustaqil xarakter kasb etib boradi. Shaxsning rivojlanishi davomida, tajribalarning ortishi asosida faoliyat o'ziga xos xarakter kasb etadiki, bunda shaxs mustaqil, original yo'llarni qidirib topa boshlaydi. Bunday faoliyatda faqatgina shaxsning umumiy xususiyatlari ochilmasdan, балки хусусий, индивидуал томонларининг очилиши, намоён бўлиши учун кенг имкониятлар яратилади.

Barcha yoshda faqatgina ma'lum faoliyat rivojlanib qolmasdan, balki faoliyat turlari ham o'zgarib boradi. Masalan, bog'cha bolalarida o'yin faoliyati, bolalarda o'qish faoliyati, o'smir va yoshlarda mehnat faoliyati. Xatto, faoliyatning harakatlari, uning mazmuni, yo'llari, motivlar ham o'zgarib borar ekan.

Inson faoliyati - uning rivojlanishining asosidir. Faoliyatsiz rivojlanish bo'lmaydi. Bu qonuniyat yosh avlod uchun juda zarurdir.

Bolalar rivojidagi asosiy faoliyat turi - bu maktablardagi izchil, rejali tashkil etiladigan o'qishdir. Bilim egallash yoki bolaning bilish faoliyati o'zining yetakchi faoliyat ekanligi bilan boshqa har qanday faoliyat turlaridan ajralib turadi. Bu ishlar reja asosida, maqsadga muvofiq, defektolog - defektolog rahbarligida amalga oshirilganligi sababli, shaxsning rivojida beqiyos katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni sinfdan sinfga o'tgan sari bolalar dunyoqarashlari u yoki bu muayyan bilimlar doirasi bilan qurollantirib boriladi. Shular asosida bolalar bilim doiralari kengayib, chuqurlashib boradi. Hissiyot va sezgirlik ham takomillashib boradi. Ta'lim mazmunining borgan sari murakkablashib borishi bolani yuqori pog'onaga olib chiqadi. Barcha ta'lim yillarida bolalar juda katta rivojlanish yo'lini bosib o'tadilar.

Sinfdan sinfga o'tgan sari bolalar ijodiy faoliyatga layoqatli bo'lib boradilar. Bolalarning bolalik, o'smirlik davrlaridagi mehnat faoliyati ularning rivojlanishida yetakchi omillardan biridir.

Maktabgacha ta'lim davrida bolalarni tarbiyalash va kamol toptirib borish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'lim bilan tarbiya vaktabgacha ta'lim muassasasi bolalarining ruhiy kamol topib borishi uchun belgilab beruvchi ahamiyatga egadir. Kamol topib borishdagi olg'a harakat esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida defektolog shuni e'tiborga olishi muhimki, bolalar o'zlariga taklif qilingan ba'zi vazifalarni tamomila mustaqil ravishda bajara oladilar, bunda ular ruhiy kamol topib borishning shu paytgacha erishilgan darajasiga, amaliy tajriba, bilim, malaka va ko'nikmalarga tayanadilar. Shu bilan birga biror murakkabroq topshiriqni mustaqil ravishda eplay olmagan bola uni defektolog yordamida (uning qo'shimcha tushuntirishlar ko'rsatishi, yordamchi savollar berishi va hokazo yo'l bilan) bajara oladi. Bu hol maktabgacha ta'lim muassasalarbolasi imkoniyatining go'yoki ikkilamchi darajasi bo'lib, u psixologiyada «yeng yaqin kamol topish zonasi» deb ataladi. Shu sababli ta'lim jarayoni aktual kamol topish darajasigagina, ya'ni shu paytgacha tarkib topgan ruhiy funksiyalarigagina tayanib qolmay, balki uning potensial imkoniyatlariga, tarkib topayotgan funksiyalariga, ya'ni eng yaqin kamol topish zonasining aktual kamol topib o'tishiga yordam berishi lozim. Bu holda bola bugun yordam olgan taqdirdagina bajara oladigan vazifani ertaga mustaqil bajara oladigan bo'lishi zarur. Ta'lim bilan kamol topish o'rtasidagi ichki bog'lanish ham xuddi ana shundadir. Binobarin, ta'lim bilan kamol topib borish o'rtasidagi aloqa g'oyat xilma - xil bo'lsa ham bolaning kamol topib borishining eng yaqin zonasiga tayanuvchi ta'limgina chinakam samarali bo'lishi mumkin.

Kamol topib borishning ikki darajasi haqidagi, ta'lim bilan kamol topib borishning bog'lanishi to'g'risidagi hamda to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'limning

kamol topib borishdan oldinda borishi va uning tugallangan bosqichlarigagina tayanib qolmay, balki tarkib topayotgan ruhiy funksiyalarga ham tayanishi kerakligi haqidagi ana shu asosiy nazariy qoidalar Maktabgacha ta'lim muassasalar ta'limi va amaliyoti uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Ta'lim - maxsus tashkil etilgan bilish faoliyati bo'lib, kishilik jamiyatining turli sohadagi tajribalarini egallashga xizmat qiladi. Bularga ilm - fan, texnika, g'oya, axloq, madaniyat, san'at kiradi.

Maxsus maktablardagi ta'lim ham yosh avlodga shular haqida qisqa, oddiy tasavvurlar berishdan iborat bo'libgina qolmay, balki shu bilimlar orqali mavhum tafakkur jarayonlarini tuzatishdan iborat. Tafakkur jarayonlariga tahlil, sintez, umumlashtirish, induksiya - deduksiya, taqqoslash, xulosalash va boshqa fikriy jarayonlar kiradi. Aqli zaif bolalarda ba'zan turli analizatorlar ham u yoki bu darajada buzilgan bo'ladi. Bizlarga ma'lumki, har qanday bilish jonli mushohadadan boshlanadi. Jonli mushohada deganda dastlabki ma'lumotlarni eshitishimiz, ko'rishimiz, ten sezgilarimiz, hid bilish, ta'm bilish organlarining ishtirokida qabul qilishimiz tushuniladi. Qabul qilingan ma'lumot bosh miyada qayta ishlanib, undan amaliyotga, amalga yo'llanadi. Aqli zaif bolalar uchun eng katta nuqson hisoblangan tafakkur jarayonlarining buzilganligi sababli, to'g'rilash, yumshatish, tuzatish ishlari shunga qaratiladi.

Aqli zaif bolalarning tafakkuri

Tafakkur – atrofdagi borliqni aks etishiga imkon beradigan inson bilish faoliyatini oliy shakli, predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqa va munosabatni o'rnatadi.

Tafakkurning asosiy vazifalari:

- Umumiy o'zaro aloqalarni o'rnatish;
- Muayyan xodisalarni turi sifatida aniq hodisalar mohiyatini tushuntirish;
- Bir xil guruh hodisalari xossalarini umumlashtirishi.

Tafakkur operatsiyalari:

- tahlil qilish (hayoliy predmet, hodisa, holatlarni qismlarga ajratish va tarkibiy belgi, qismlarini aniqlash);
- sintez (turli xil belgilar o'rtasidagi aloqani taqqoslash, qiyoslash);
- mavxumlashtirish (predmetning asosiy xossalarini ikkilamchi belgilardan ajratish);
- taqqoslash (ma'lum obektlarni takkoslash va ulardagi umumiy yoki farkli belgilarni ajratish);
- umumlashtirish (ikki yoki bir kancha predmet-xodisalarni umumiy belgilariga ko'ra guruxlarga umumlashtirish).

Ko'rgazma – obrazli tafakkur

Bola anglash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishida tafakkur muhim ro'l o'ynaydi. Bola rivojlanishining ma'lum bir bosqichida unga ma'lum turdagi faoliyat xos bo'ladi.

Ilk yoshda tafakkur shakllanishida asosiy o'rinni muloqot, predmetli faoliyat egallaydi. (L.S.Vigotskiy, A.V.Zoporojets, A.N.Monstev, D.B.Yelkonin) hozirgi vaqtda mashhur psixologlarning ta'kidlashicha, bolalarda maktabgachagacha

yoshda ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli va so'z-mantiq tafakkuri rivojlanadi. Bu tafakkur shakllari ontogenez jarayonida bir-biri bilan almashinadi, ammo birinchi ko'rgazmali-obrazli tafakkur hisoblanadi. U bola rivojlanishi jarayonida, ular tomonidan ijtimoiy malakalarni egallash orqali shakllanadi. Bola tafakkurni rivojlanishida kattalar asosiy o'rinni egallaydi, ular tafakkurni o'qitish va tarbiyalash orqali rivojlantirishi kerak. Bolalarda ilk yoshda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni o'rganish bilan L.S.Novoselova shug'ullangan. U bola tafakkurining rivojlanishi butunlay uni predmetli faoliyati shakllanishi jarayoni bilan bog'liq deb ko'rsatgan. Bolada predmetlilikning paydo bo'lishi ular tomonidan insoniy faoliyat usullari va amalga oshirish motivlarini egallash yo'li orqali amalga oshadi.

Aqli zaif bolada aks ettiruvchi faoliyatning farqli xususiyati unda bilish faoliyatlarining buzilmaganligi hisoblanadi. Bu eng avvalo umumiy va vositali bilimning buzilishidir.

Maqsadga qaratilgan faoliyat sifatida tafakkur har doim ma'lum muammoning yechimi sifatida yuzaga chiqadi.

Aqliy masalalarini yechish jarayoni bir nechta bosqichlarga ega: masala shartini tushunish, savol qo'yish, yechim ehtimoli farazini yaratish, yechimni topish va uning to'g'riligini tekshirish. Barcha fikrlash jarayonlari o'zida shaxsning qobiliyatlari, bilim va malakalarini ochib beruvchi ixtiyoriy, maqsadga qaratilgan faoliyatlarini amalga oshiradi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur uchun obrazlar bilan aqliy faoliyat natijalari, tasavvuri orqali aqliy masalalarni yechish xarakteri hisoblanadi.

Xaqiqiy hayotdagi predmetlar obrazini tahlil qilish, ichki nutq yordamida amalga oshiriladi. Meyorda rivojlanayotgan bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur asosan maktabgachagacha yoshda rivojlanadi. Aqli zaif bolalarda tasavvur etilayotgan va idrok etilayotgan predmetlarni analiz va sintez qilishni rivojlanganligi kuzatiladi. Ularning diqqatini predmetlarni mavjud bo'lmagan xususiyatlari, yorqin ko'zga tashlanadigan belgilari tortadi.

Aqli bolalarida alohida predmetlar va predmetli xolatlarni so'z bilan tavsiflashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu toifa bolalar o'zlariga tanish predmetlarni qarama-qarshi qo'yib, ularni taqqoslashda ularning umumiy xususiyatlaridan asosiysini aniqlash imkoniyatiga ega emas. Ularda tasavvurga ko'ra taqqoslash vazifasini tushunmaslik kuzatiladi. Bolalar so'zni erkin ravishda qo'llay olmaydi. T.A.Pratsko Aqli zaif bolalarda topishmoq materiali asosida so'zli-obrazli masalarni yechish xususiyatlarini o'rgangan. Uning aniqlashicha topishmoqni tushunishning boshlang'ich bosqichida bolalar uning javoban ifodasini topgan so'zlarni ajratadi. Nutqning tasviriyl vositasi ular uchun tushunarsizligicha qoladi. Ammo Aqli zaif bolalarning aqliy faoliyatini ko'rgazmali vositalar yordamida faollashtirish mumkin. Maktabgacha sharoitida o'qitish jarayonida ko'rgazmali-obrazli tafakkur rivojlanadi.

Ko'rgazma – harakatli tafakkur.

Ko'rgazma – harakatli tafakkur insonning yangi sharoit va amaliy muammoli topshiriqni yechishning yangi usuli bilan to'qnashganda paydo bo'ladi. Bunday turdagi topshiriqlarga bola butun bolalik davrida – maishiy va o'yin faoliyatlarida duch keladi. Ko'rgazma – harakatli tafakkurning muhim xususiyati

shuki, holatni o'zgartirish usuli bo'lib amaliy harakat xizmat qiladi va u sinab ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Aqli zaif bolalarda ko'rgazma – harakatli tafakkurning rivojlanishi orqada qoladi. Aqli zaif bolalar predmetlar bilan harakat qilishlarining har kungi tajribalarini mustaqil umumlashtira olmaydilar. Shuning uchun Aqli zaif bolalarda umumqabul qilingan qurollardan foydalanishni talab etadigan anglash bosqichi rivojlanmagan bo'ladi. Amaliy harakatlar va ularni so'z belgilari o'rtasidagi aloqa yetarlicha bo'lmaydi. Nutq tashkil etuvchi va boshqaruvchilik vazifasini bajaradi. Aqli zaif bolalarda ko'rgazma – harakatli tafakkurini shakllantirish asosiga muammoli amaliy vazifa va vaziyatlarda mustaqil mo'ljal olishni rivojlantirish kiritilishi lozim.

Aqli zaif bolalarda amaliy vazifalarni bajarishda qiyinchilik yuzaga keladi. Masalan, Aqli zaif bolalarga kesma rasmlarni birlashtirish va Segen doskasini to'ldirish qiyinchilik tug'diradi. Ularning predmetlar bilan harakatlari impulsiv xarakterga ega, bu harakatlar fikrlash vazifasiga bog'liq bo'ladi.

Mantiqiy tafakkur

Fikrlash qobiliyati Aqli zaif bolalarda o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Aqliy faoliyat jarayoni o'zaro bog'liq aqliy operatsiyalar bilan amalga oshiriladi. Predmet va hodisalarni tahlil qilish jarayonida Aqli zaif bolalar sog'lom tengdoshlariga qaraganda kam, ma'lum qismlarni aniqlaydi. Sintez qilish jarayonida umumlashtirish jarayonining pastligi kuzatiladi. Obektlarni o'xshash va farqli belgilarini aniqlashda yordam beradigan taqqoslash operatsiyalari ham maktabgachagacha yoshdagi bolalarda o'ziga xos tarzda kechadi. Ko'pincha yo'q belgilari taqqoslanadi.

Mavhumlashtirish – Aqli zaif bolalar uchun ancha qiyin operatsiya xisoblanadi. Mavhum tafakkurning buzilishi aqli zaiflikning asosiy belgisini tashkil etadi. Aqli zaif bolalar tomonidan umumlashtirish situativ xarakterda bo'ladi. Tafakkur bilishning bosh quroli hisoblanadi. U analiz, sintez, umumlashtirish, mavhumlashtirish, aniqlashtirish kabi operatsiyalar shaklida kechadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu barcha operatsiyalar aqli zaiflarda yetarlicha shakllangan va o'ziga xos tomonlarga ega. V.G.Petrova, B.I.Tinskiy, I.M.Soloveva, N.M.Stadnenko, J.I.Shif ma'lumotlariga ko'ra Aqli zaif bolalar predmetlarni tushunadi, tahlil qiladi, qator zarur xususiyatlarni qoldirib, faqatgina yaqqol aniq qismlarinigina hisobga oladi. Bunday tahlil natijasida ular predmetlarning qismlari bilan aloqasini o'rgatishda qiynalishadi. Odatda ular faqat predmetlarning ko'ruv xususiyatlariga tayangan xolda rangini aniqlashadi. Predmetlarni tahlil qilishda ularni individual belgilarini emas, umumiy belgilarini aniqlaydi. Analizning takomillashganligi uchun predmetlarni sintez qilish qiyinlashadi. Predmetlarning alohida qismlarini ajrata turib, ular orasidagi aloqani o'rnatish olmaydi, shuning uchun predmetlar haqida butun tasavvurga ega bo'lishda qiynaladi. Aqli zaif bolalarda taqqoslash operatsiyasida tafakkurning sifatleri yorqin namoyon bo'ladi, unda maxsus qo'yilgan analiz va sintez o'tkaziladi. Ular predmetlar va hodisalardagi asosiy narsani ajrata olmay, mavjud bo'lmagan belgilar taqqoslanadi, ko'pincha mos kelmaydigan belgilar taqqoslanadi. Aqli zaif bolalar o'xshash va farqli predmetlarning farqini aniqlashda qiynaladilar. Ayniqsa

ular uchun o'xshashlikni aniqlash qiyin. Ruchka va qalamni taqqoslab, ular: "ular uzunligiga ko'ra o'xshash, yana ularning terisi bir xil" deb javob berishadi. Aqli zaif bolalar tafakkurining farqli tomoni tanqidiy qarashning yo'qligi, o'z ishlarini mustaqil baholay olmasligidadir. Ular ko'pincha o'z xatolarini belgilashmaydi, bu ayniqsa ruxiy kasallangan bolalarda bosh miyaning peshona qismi jaroxatlangan bolalarda va og'ir darajadagi aqli zaif bolalarda yorqin namoyon bo'ladi. Ko'ruv idroki asosida idrok etilgan fikrlash natijasidagi tasvir kambag'alligi, bog'liq emasligi, oddiyligi bilan ajralib turadi. Bola obektga qarab, uning nomini bilsa ham, qismlarini to'liq aytolmaydi.

Odatda, shakllarning umumiy konturlari qismlarini tartibsiz bayon etadi.

Bolalar obektlar o'rtasidagi farqni solishtirib bo'lmaydigan xususiyatlar bilan qiyoslaydilar. Masalan, bu piyola katta, bunisida esa ko'k gul rasmi bor. Ular har xil. Birinchi predmetning kattaligini, ikkinchi predmetning gulini taqqoslangan.

Ayrim hollarda bolalar vazifani oson yengil vazifalar bilan almashtiradi yoki obektni solishtirish o'rniga ulardan birini analiz qila boshlaydilar. Yoki solishtirishni boshlab, o'z harakatlarini nazorat etolmaydi. Bola o'zi uchun qiyin bo'lgan vazifada to'xtolmaydi va o'z aqliy faoliyatini yengillashtirib boshqa vazifaga o'tadi.

Aqli zaif bolalar tafakkurini tahlil qilib, bu jarayonning stereotipligi, qiyin harakatligi va umuman to'liq egiluvchan emasligini ta'kidlash joiz. Shuning uchun mavjud bilim va malakalarni yangi sharoitda qo'llash Aqli zaif bolalarida qiyinchilik tug'diradi va vaziyatini xato bajarishga olib keladi.

Aqli zaif bolalar tafakkurini o'rganish va to'g'ri tashxis qo'yish uchun "Kesma rasmlar" metodikasi, "To'rtinchisi ortiqcha" metodikasi, "Klasifikatsiyalar" va "Yetishmaydigan qismlarni aniqlash" metodikalarini tavsiya etish mumkin.

Aqli zaif bolalar xotirasi

Xotira – bu individ tajribasining eslab qolinishini saqlanishi va kelgusida qayta tiklanishi. Xotiraga, shuningdek, unutish ham kiradi. Bu jarayonlar faoliyatda shakllanadi.

Materialni eslab qolish, hayot faoliyati jarayonida individual tajribaning to'planishi bilan bog'liq. Eslab qolinganni kelgusida qo'llash uchun qayta tiklashi zarurdir. Faoliyatdan ma'lum bir materialni tushib qolishi uni unutishga olib keladi.

Aqli zaif bolalar xotirasi sog'lom bolalar xotirasidan bir muncha farq qilinadi. Savol tug'iladi Aqli zaif bolalar xotirasi rivojlanadimi? Xa, Aqli zaif bolalar xotirasi ham rivojlanadi, qachonki korreksion ishlari erta boshlansa va to'g'ri yo'lga qo'yilsa. Ma'lumki xotiraning rivojlanishiga bir qancha analizatorlar o'z ta'sirini o'tkazadi (ko'rish, eshitish, ta'm bilish, sezish). Ushbu analizatorlarga tayangan xolda ish tashkil etilishi Aqli zaif bolalarning xotirasini rivojlantiradi.

Aqli zaif bolalar xotira xususiyatlarini bir qancha olimlar G.Y.Troshin, L.V.Zankov, B.I.Pinskiy, G.M.Dulnev va boshqalar ilmiytadqiqot sifatida o'rganganlar. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, Aqli zaif bolalarning darajalariga qarab, xotira xususiyatlarini rivojlantirish mumkin.

Psixologiyadan ma'lumki, inson xotirasini rivojlantirish uchun avvalmbor uning barcha bilish jarayonlari ustida ish olib borish lozim.

Maktabgachagacha yoshdagi aqli zaif bolalar xotirasini bir muncha rivojlantirish uchun mayda qo'l motorikalardan foydalanish samarali natija beradi. Mayda qo'l motorikalarning rivojlanishi bu ularning nutqiy nuqsonlarini va bilish jarayonlarini rivojlantiradi. Frontal va individual mashg'ulotlarda bilish jarayonlari rivojlantiriladi. Bu mashg'ulotlarda bolalarni har tomondan rivojlantirishga e'tibor beriladi. Bolalarda ixtiyoriy xotiradan to ixtiyorsiz xotiraga o'tish uchun bir qancha vazifalar amalga oshiriladi. Bular: plastilindan biror predmetni yasash, yasash vaqtida plastilindan to'g'ri foydalanish, yani gigiyenaga rioya etish, plastilin rangini to'g'ri tanlash, ranglar uyg'unligiga e'tibor qilish malakalarini shakllantirish ham xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Individual mashg'ulotlarda bolalarning nafaqat nutq nuqsoni ustida balki xotira turlari ustida ham ish tashkil etiladi. Chunki bolaning nutqiy nuqsonini bartaraf etish vaqtida bola berilayotgan vazifani yodda saqlashi lozim, bunda asosan uzoq muddatli xotiraga e'tibor beriladi. Logoped ishni tashkil etish vaqtida bolaning individual xususiyatlariga alohida e'tibor berib, mashg'ulotni tashkil qiladi. Demak, mashg'ulot bolaning bilish xususiyatlariga va nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Aqli zaif bolalarda barcha ishlar samarasi asosan takrorlashga bog'liq. Vazifalarni bir necha marta takrorlash vaqtida o'tilgan topshiriqlar bolaning xotirasida olib qolinishiga ko'mak beradi.

Aqli zaif bolalar bilan ishlash natijasi shuni ko'rsatdiki, ularning xotirasi hajm jihatdan rivojlanishi orqada qolgan bo'ladi. Xotiraning asosiy xususiyatlaridan biri bu uning hajmidir. Aqli zaif bolalar xotira hajmi qisqa bo'ladi. Bolalarga bilim berish vaqtida ular ma'lumotni juda oz miqdorda esda olib qoladilar. Shuning uchun ular egallashi lozim bo'lgan materialni kam o'zlashtiradilar. Xotira hajmi qancha rivojlansa, bu ularning bilim olish malakalarini rivojlantiradi.

Xotira hajmini rivojlantirish uchun bolaning individual xususiyatlari inobatga olinadi. Agar aqli zaif bolada bilish jarayonlarining pasayishi bilan birgalikda unda nutqiy nuqsonning bir qancha qo'pol buzilishlari, shu bilan birgalikda tutqanoqlik yoki bo'lmasa eshitish idrokining pasayishi birgalikda kelsa, bu bola bilan ishlash jarayonida barcha nuqsonlari inobatga olinadi. Yani bunday bolaning xotirasini rivojlantirish uchun uning bilish jarayoniga va eshitish xususiyatiga tayangan holda ishlar tashkil etiladi. Bugungi kunda inklyuziv ta'limning joriy etilishi ma'lum bir nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olishiga katta yordam beradi. Asosan ko'rishida nuqsoni bo'lgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalar bilan ta'lim olish huquqiga ega bo'ladilar. Aqli zaif bolalar ham bundan mustasno emas.

Uzoq vaqt davomida Aqli zaif bolalar xotirasi mexanik ravishda rivojlangan deb yuritilardi. Hozirgi kunda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Aqli zaif bolalar xotirasi mexanik ravishda rivojlanmagan, chunki mexanik xotira rivojlanishi uchun ham analiz – sintez malakalari yaxshi shakllangan bo'lishi kerak. Aqli zaif bolalarda esa analiz – sintez malakalari rivojlanishi bir qancha orqada qolgan bo'ladi.

Defektologning asosiy maqsadi esa aqli zaif bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, korreksion ishlarni tashkil etishdan iborat.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, aqli zaif bolalar xotirasi ham rivojlanadi faqatgina aqli zaif bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Aqli zaif bolalar xotirasini tekshirish uchun "10 ta so'zni yod olish" metodikasi, "L.V.Zankov" metodikasi, "Voqealar ketmaketligini aniqlash" metodikalari tavsiya etiladi.

Aqli zaif bolalarning diqqati.

Diqqat – ongning ma'lum manbani to'laroq aks ettirishi uchun o'sha manbaga qaratilishidir. O'sha manbalarga diqqatni qarata bilish esa, shaxsning faolligini bildiradi. Diqqat xayotda ruhiy faoliyatning bir tomoni bo'lib ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga muvaffaqiyatli bilim, ko'nikma, malaka egallashning asosi hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqat ruhiy hayotning xususiyati sifatida, mehnat faoliyatida yuzaga kelgan. Diqqatning fiziologik mexanizmlari juda ham murakkabdir. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, diqqatning mexanizmi reflektor faoliyat bilan bog'liq. Diqqatning namoyon bo'lishini, yuz berishini kishining xolatidan, yuz mimikasidan ham bilsa bo'ladi. K.D.Ushinskiy diqqatni inson qalbining eshigi deb bejiz ta'riflamagan bo'lsa kerak. Insonning faollik darajasiga ko'ra diqqatning 3 turini ajratish mumkin:

1. Ixtiyorsiz diqqat.
2. Ixtiyoriy diqqat.
3. Ixtiyoriydan so'ngi diqqat.

Ko'pincha tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha mo'ljal olish faoliyati hamda yangi tasavvurlarga extiyoj hammadan ko'ra bosh miya po'stlog'i to'laqonli bo'lmagan go'daklarda zaiflashgan bo'ladi. (S.S.Korsanov, G.Ye.Suxareva) G.Ye.Suxareva ta'kidlashicha "Oligofren bo'lgan bolalarda sog'lom bola uchun xarakterli bo'lgan atrof-muhitni o'rganishga shiddat bilan intilish mavjud bo'lmaydi".

Aqli zaif bolalar diqqatining o'ziga xosligi anchagina faktorlarga bog'liqdir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari aqli zaiflikning o'zak belgilari (nerv jarayonlarining kam harakatliligi, dominantaning zaifligi, mo'ljal olishning buzilishi) uning butun shaxsiy rivojlanishining borishida chuqur iz qoldiradi, diqqatning tahliliga olib keladi. Bu esa o'z navbatida psixik faoliyatning mazmuniga kirarkan, uning jarayoniga hamda natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan bu bolaning analiz va sintez jarayonlarining nisbatan yuqoriroq darajasini talab etuvchi vazifalarni bajarayotganida ayon bo'ladi.

Diqqatning kamchiliklari nutqda o'z asoratini qoldiradi. Bunday bolalar o'zlarining va o'rtoqlarining nutqiga e'tibor berishmaydi. Bu esa xarakatlarning parokandaligiga sabab bo'ladi. Diqqat kamchiliklari xususan notanish materialni o'tishda, qiyinchiliklarga duch kelganda namoyon bo'ladi. Aqli zaif bolalar qiyinchiliklarni yengib emas, uni chetlab o'tishga urinadi. Aqli zaif bolalarning intilishlari mushohada va muhokamalari bilan asoslanmagan bo'ladi.

Aqli zaif bolalarda iroda jarayonlarining yetarli rivojlanmaganligi hamda xislarini intellektual boshqarishning zaifligi tufayli yorqin va kuchli

qo'zg'atuvchilardan foydalanib ixtiyoriy diqqatni tez va osongina keltirib chiqarish mumkin. Lekin ular diqqatini tutib turishi juda mushkul bo'ladi.

Uyg'onish jarayonlarining buzilishi hamda ichki tormozlanish Aqli zaif bolaning ish qobiliyati buzilishiga olib keladi. Asab tizimining kam xarakatliligi, ulardan birining qotib qolishi aqli zaif bolalarga o'z diqqatini bir obektdan boshqasiga ko'chirishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, bu faoliyatning boshqa turiga qiyinchilik bilan ko'chishga olib keladi.

Sog'lom rivojlanayotgan quyi sinf bolalari bilan Aqli zaif bolalar orachidagi keskin farq diqqatni taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Ta'lim olish jarayoni diqqat e'tiborni bir joyga to'plashni talab qiladi. Lekin aqli zaif bolalarda asosiy g'oya zaifdir. Tez yo'qoluvchi bir g'oyaning o'rniga ikkinchisi yuzaga keladi. Bu diqqatning patologiyasiga, faol diqqatning buzilishiga, diqqatning noixtiyoriy tebranishida o'z ifodasini topgan ortiqcha chalg'uvchanlikka olib keladi. Bunday parokandalikda bola o'z faoliyatini ko'ziga nima ko'rinsa shunga sarflab hech bir ishini oxiriga yetkaza olmaydi, o'z diqqatini o'rganish obektiga jamlay olmaydi.

Diqqatning chalg'uvchanligi uning parishonxotirligida o'z ifodasini topadi. Bu esa diqqatning barqarorligiga batamom ziddir. Toliqish, asablarning bo'shligi, asab tizimining xoldan toyishi natijasida tashqi quzg'atuvchilarni kuchaytiruvchi chalg'uvchanlik sodir bo'ladi.

Chalg'uvchanlikning oldini olish uchun ma'lum bir vaqtda faoliyat turini o'zgartirib turgan ma'qul. Agar bunday qilinmasa bolalar tormozlanish xolatiga tushib qolishib, mehnatdan chiqib ketishadi.

Aqli zaif bolalarning irodaga bog'liq ishlarni har doim deyarli qoniqarsiz bajaradilar. Bu o'rinda mashhur fransuz pedagogi E.Segenning ushbu misralari e'tiborga loyiq: "Chuqur aqli zaif bola hech narsa qila olmaydi, hech narsa bilmaydi, eng kerakligi esa - u hech narsani xohlamaydi". Demak, aqli zaif bolalardagi asosiy nuqson xohish, istakning yetishmasligidir.

Shu narsa ma'lumki aqli zaif bolalar dars jarayonlarida tez charchaydilar. Bu bolalarning diqqatlari uzoq muddat biror nuqtaga, ta'limga qaratilmaydi. Shuning oqibatida bu bolalar tez-tez darsdan chalg'ib turadilar.

Aqli zaif bolalarning dars vaqtlarida chalg'ib turishlari, ularning o'z xohish-istaklari bilan emas, balki bosh miyalarida yuz bergan kasallikning natijasidir. Shu sababli yordamchi maktabgachalarning xodimlari bunday xolatlarga to'g'ri munosabatda bo'lishlari kerak.

Ta'lim jarayonlarida ixtiyoriy diqqatning vaqti-vaqti bilan ixtiyorsiz diqqatga o'tib turishi yaxshi samara beradi, ya'ni bolaning ixtiyoriy diqqatlari muddati cho'zilib boradi.

Diqqat xususiyatlari.

Diqqat xususiyatlariga uning xajmi, taqsimlanishi, yig'ilishi, turg'unligi, o'tishi kiradi.

Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qancha sabablarga bog'liq. Odam o'zining diqqatini uzoq muddat qiziq yoki mazmunli bo'lmagan narsaga qarata olmaydi. Agar diqqatimiz qaratilgan narsa qiziqarli va yangi mazmundor bo'lsa, shu narsaga diqqatni ancha vaqt qaratib turish mumkin. Shu sababli yordamchi

maktabgachalarda ta'limni qiziqarli tashkil etish borasida ko'p gapiriladi. Ayrim bolalarning diqqat hajmi keng bo'lsa, ayrim bolalarning diqqat hajmi tor bo'ladi. Bolalarning diqqati ayni bir vaqtda faqat bitta narsagagina emas, balki ikkita yoki uchta narsaga ham birdaniga qaratilishi mumkin. Demak, diqqatning bo'linishi deganda biz ayni bir vaqtda diqqatimizning ikki yoki uch narsaga qaratilishini tushunamiz. Diqqatning ana shunday xususiyatini diqqatning ko'chuvchanligi deb yuritamiz. Diqqatning yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlari tufayli odam atrofdagi muhitga, undagi turli-tuman o'zgarishlarga tez moslasha oladi.

Diqqatning bu asosiy xususiyatlari bolaga tug'ma ravishda, irsiy yo'l bilan berilmaydi. Bu kabi xususiyatlar yoshlikdan boshlab turli faoliyatlar – o'yin, o'qish, mehnat jarayonlarida tarkib topib boradi. Ana shuni nazarda tutib maxsus maktabgachalarning barcha tarbiyachilari turli-tuman dars va o'yin jarayonlarida bolalar diqqatini har tomonlama hamda izchil ravishda shakllantirib borishlari kerak.

L.S.Vigotskiyning ko'rsatishicha aqli zaif bolalarda diqqatning oliy shakllarining buzilishi biologik va madaniy rivojlanishi orasidagi bog'liqlikning buzilishidir.

Aqli zaif bolalar bilan korreksion ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bola diqqatining fiziologik mexanizmlarini bilish talab etiladi.

Aqli zaif bolalardagi ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan pastdir. Buning sababi, ichki tormozlanishning zaifligi va tashqi tormozlanishning yaqqol ko'zga tashlanishidir. Qiyin boshqariladigan tashqi tormozlanish Aqli zaif bolalarda diqqatning turg'un-sizligiga olib keladi. Aqli zaif bolalardagi diqqatning taqsimlanishi, o'tishining qiyinligi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining mo'rtligi asosida yuz beradi. Aqli zaif bolalar diqqatini tarbiyalab borishda ularning oliy asab faoliyatining tiplarini e'tiborga olish darkor. Aqli zaif bolalar diqqatini shakllantirib borish shaxsni shakllantirib borish bilan uzviy bog'liq. Aqli zaif bolalar diqqatini qator psixologik metodikalar bilan o'rganish mumkin. Ayniqsa, "Shulte jadvali" metodikasi, "Korrektur sinov" metodikasi va "Belgilarni qo'yib chiq" metodikalar yaxshi natija beradi.

Ruxiy rivojlanishida sustlashgan bolalar bilish jarayonlarini o'ziga xosligi.

M.S.Pevzner ruxiy rivojlanishi sustlashning kelib chiqishida bosh miya peshona qismining o'z vaqtida "pishib" yetilmaganligidan deb biladi. Bu fikrni I.F.Markovskaya ham o'z izlanishlarida tasdiqlaydi. Bu bolalar aqliy, hissiy jihatdan orqada qolish bilan birga jismoniy jihatdan ham orqada qolishi kuzatiladi. Bu esa skelet, muskullar rivojlanishida, bolaning vaznida, bo'yida o'z aksini topadi. Ular ko'pincha oshqazon, ichak va nafas olish a'zolari kasalliklariga moyil bo'ladilar. Bu bolalar erta yoshligidan normal bolalarga nisbatan kechroq rivojlana boshlaydilar.

Chaqaloqlikning ilk davrida boshini tuta bilishi, tik turishi, yurishi, ilk so'zlari, nutqning shakllanishi kechikadi. Turli shamollash va yuqumli kasalliklarga moyil bo'ladilar. Jumladan, RRS bolalarning 60%ida oshqazon ichak kasalliklari, 50 % ida yurak qon-tomir kasalliklari, 61 % ida surunkali infeksiyalar, 33 % ida gijja kasalliklari aniqlangan.

RRS da esa intellektual jarayonlar oligofrenlardagedek chuchqur zararlanmasdan, birmuncha yuzaki zararalangan bo'lib, tiklanish xarakteriga ega.

RRS da ruhiy rivojlanish tezligi, surati sekinlashgan bo'ladi. Yuqoridagilar bilan birga, RRSda intellektual tomonlarga nisbatan, ko'proq, xissiyot buzilishlari yetakchi o'rinda turadi. Bu buzilishlar ruhiy yoki jismoniy infantilizm ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Infaktilizm-tom ma'nodagi "bolalikdir". Bolaning umumiy qiliqlari, qiziqishlari o'z yoshiga mos bo'lmay, balki bir muncha yosh bolalarni eslatsa, biz bunday bolalarga nisbatan, "psixofizik infantilizm" iborasini qo'llaymiz. Masalan, bola 7 yoshga kirib, maktabga borish muddati kelgan bo'lsada, bola o'zini 5 yoshli boladek tutadi. Unda jonli, o'zidan yosh bolalardagidek qiziqishlar bo'ladi. Agar bola yana biror yil taraqqiy etsa, o'z tengdoshlariga o'xshab ketishi mumkin.

Bolalarda ham ruhiy, ham jismoniy rivojlanish birgalikda orqada qolsa, ularga nisbatan "garmonik psixofizik infantilizm" iborasi ishlatiladi. Faqatgina ruhiy rivojlanishi orqada qolsa, ularni "psixik infantilizm" deb yuritamiz.

T.A.Vlasova va M.S.Pevzner RRSning ikki xil shaklini ko'rsatadilar. Bularning asosida turli xil RRS ning shakllanish mexanizmalari yotadi.

1. Hissiyot – iroda sohasining rivojlanganligi. Bunda ba'zan bilish jarayonlarining buzilishi bo'lmasligi mumkin. Bunday bilish jarayonlarining buzilishi bo'lmasligi mumkin. Bunday hatolarni tibbiyot hodimlari qoldiqli va qoldiqsiz "psixofizik infantilizm" deb nomlaydilar.

2. Neyrodinamik buzilishlar, turg'un astenik va serebrastenik holatlar (turg'un psixik va nerv bo'shashishlari).

Infantalizmning yuzaga kelish sababalariga ilk bolalik davridagi yuqumli va modda almashinuvining buzilish kasalliklari ham kirishi mumkin.

Ruhiy rivojlanmaslikning bir ko'rinishiga, bosh miya peshona qismlarining sekin pishib yetilishini ko'rsatishimiz mumkin.

Serebrastenik holatlarning kelib chiqish sababalariga: turli jarohatlar, asfiksiya, ilk go'daklik davridagi ichki kasalliklar kirishi mumkin.

Bularning natijasida bola nerv sistemasida funksional yetishmovchiliklar yuzaga keladi. Bular o'z navbatida, aqliy ish qobiliyatlarining buzilishiga olib keladi.

Shunday qilib RRSning klassifikatsiyasiga qaytadigan bo'lsak, birinchidan, hissiy-iroda sohasining yaxshi rivojlanmaganligini ko'ramiz.

Bu buzilish, bola shaxsiy taraqqiyotini sekinlashtirib, intellektual faoliyalarning maqsadga muvofiqligini pasaytiradi. Ikkinchidan, neyrodinamik buzilishlari, o'z navbatida bilish faoliyatlarini qiyinlashtiradi.

RRS bollalarning tasnifi asosida 3 ta omilning bir-birlariga munosabatlari yotadi:

1. Infantilizm.
2. Serebrastenik xarakterdagi neyrodinamik buzilishlar.
3. Ensefolipatik buzilishlar.

RRS tasnifiga asosan to'rt xil turga xos bo'lgan bolalar kiradi.

I.RRSning konstitutsional shakli.

Bu shaklda garmonik, qoldiqsiz, ruhiy va ruhiy-fizik infantilizm asosiy o'rinni egallaydi (ruhiy turg'un bo'lmaganlar). Bu turdagi bolalar o'zlaridan bir necha yosh kichik bo'lgan bolalar rivojlanishiga to'g'ri keladi. Ularda kayfiyat ko'tarinki, o'yin faoliyatida tashabbuskorlik hislatlari saqlangan bo'ladi. Ta'limdagi qiyinchiliklar asosan intellektual qiziqishlarning va shaxsning butunlay rivojlanmaganligi yaqqol sezilib turadi. (o'yinga bo'lgan qiziqishlari ustunlik qiladi). Bolalarda ko'pincha kayfiyat ko'tarinki, xulq-atvorda hissiy motivlarning ustunligi, hissiyotlarning yuzakiligi, turg'un-sizligi va shaxsning gipersugestivligi (moyillikning ustunligi) kuzatiladi. Bunday bolalarning hissiy-iroda sohasidagi yetishmovchilik, tana tuzilishidagi o'zgarishlar bilan birga keladi.

II. RRSning somatogen shakli.

Bu shakl asosan surunkali infeksiyalar, allergik holatlar, turli ichki kasalliklar (ichki a'zolar, ayniqsa yurak kasalligi) natijasida kelib chiqadi.

Ruhiy rivojlanishning susayishida asosiy rolni turg'un asteniya o'ynaydi, ya'ni ularda tez charchash, umumiy ruhiy tonusning pastligi ko'rinadi.

Ba'zan somatogen infantilizmga turli nevroitik qo'shilmalar: o'z-o'ziga ishonmaslik, qo'rqish bilan birga kuzatilishi mumkin.

III. RRSning psixogen shakli.

Bu shaklda asosan hissiy iroda sahasining buzilishi, yetarli pedagogik sharoitning bo'lmashligi natijasida kelib chiqadi. Atrof-muhitning bolaga erta yoshidan boshlab salbiy ta'sir qilishi natijasida bola ruhiyatning o'zgarishi xosdir. Ammo, bu shakldagi RRS bolalarni pedagogik qarovsiz bolaardan ajratib olish zarur. Pedagogik qarovsiz bolalarning ruhiyati normal bo'lib, faqat bilish, o'quv malakalarining tengqurlariga nisbatan yetishmasligi bilan farq qiladilar. Aqliy ma'lumotlar yetarli bo'lmaydi. Ko'proq shaxsning patolgik rivojlanishi ko'zga tashlanadi. RRSning psixogen shaklini kelib chiqish sababalariga ko'ra, o'z navbatida uch gruppaga bo'lish mumkin:

1. Bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, bolani butunlay o'z holiga tashlab qo'yish natijasida ularda burch va ma'suliyat hissi shakllanmaydi. Ularda hissiy-iroda sohasining yetishmasligi qaysarlik gipersuggestivlik, o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun zarur bilim va malakalarning yetishmasligi bilan birga keladi.

2. Bolani haddan tashqari erkalatish, yetarli mustaqil faoliyatga o'rgatmaslik, tashabbuskorlik, mas'uliyat hissini shakllantirmaslik natijasida ("oila erkasi") turi kelib chiqadi. Bunday bolalarda hissiy-iroda sohasining pastligi, egoizm hislatlari, mehnatga salbiy munosabatda bo'lish, doimo yordamga muhtoj bo'lish kabi salbiy hislatlar o'z ifodasini topadi.

3. Psixogen xarakterning nevroitik turi deb ataladi. Bolaga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish, jismoniy jazolash, qattiqqo'llik, alkogolizm bilan bog'liq turli agressiv munosabatlar, bunday turning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday bolalarda nihoyatda qo'pollik, tashabussizlik, jur'atsizlik, mustaqillik xarakterda bo'lmashlik hislari shakllanadi. Bularning hammasi bolaning bilish faoliyatiga ham salbiy ta'sir etadi.

4. RRSning serebral shakli boshqa turlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning aksariyatida jismoniy yetishmovchiliklar, tana nomutanosibliigi

kuzatiladi. RRS bolalar bosh miya elektroensifologrfiyasining ko'rsatishicha, 50%dan ortiq bolalarning asab sistemasida organik buzilish mavjud.

Serebral xarakterdagi RRS bolalarda hissiy-irodaviy holatlarning taraqqiy etmaganligi, asosan organik infantilizm tarzida ko'rinadi. Bu turdagi infantilizm normal bolalarga nisbatan hissiyotning jonliligi yetishmaydi. Hissiy holatning ko'rinishiga qarab serebral organik infantilizmni 2 qismga bo'lish mumkin.

1. Kayfiyatlari ustun bo'lmagan, eyforik xarakterdagi bolalar bo'lib, ularda yosh bolalarga xos xislatlar saqlangan bo'ladi.

2. Tormozlanuvchi xarakterda, kayfiyati past bo'lib, ularda ishni mustaqil hal qila olmaslik, tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqinch holatlari bilan birga keladi.

Hissiy holatlarga ko'ra ikki qismga bo'lingan serebral organik xarakterdagi infantilizm ko'p hollarda qator qo'shimcha ko'rinshlar bilan birga keladi. Bularga quyidagilar kiradi:

a) serebral-endokrin infantilizmi. Bunda asosan ichki sekresiya bezlari faoliyati buzilgan bo'ladi. Buning natijasida bolalarda hissiy holatlarning rivojlanmasligi, nevropatiyalar yuzaga keladi. Bunday hollarda uyquning buzilishi, ishtahaning yaxshi emasligi, dispepsiya holatlariga moyillik yuzaga keladi;

b) serebrastenik holatlar tez-tez uchrab turadi. Markaziy asab sistemasi tez charchaydi. Neyrodinamik buzilishlar kuzatiladi. Bularga aqliy ish qobiliyatlarining buzilishi, eslab qolish holatlarining yaxshi emasligi, diqqatning tarqoqligi, tez ta'sirlanish, qiz bolalarda yig'loqlik, g'qil bolalarda haddan tashqari qo'g'aluvchanlik bo'lishi kiradi. Bu bolalarda shovqin, yorug' nur, issiqqa chiday olmaslik, ishtaha va uyquning buzilishlari, qon bosimining pasayishi, tanasining turli joylarida har xil tuyg'ular sezish, oshqozon-ichak faoliyatining buzilishlarini ko'rish mumkin;

v) nevroz xarakterdagi holatlar – serebrasteniya bilan bog'liq bo'lib qorong'i, yakkalikdan qo'rqish, o'z va atrofdagilar sog'lig'i uchun xavsirash, tortishishlar, duduqlanish, enurez kabi xarakterli hislatlar bilan birga ifodalanadi;

g) ruhiy harakat qo'g'aluvchanligi – asosan o'g'il bolalarda ko'p uchraydi. Umumiy harakatchanlik, diqqatning tarqoqligi, tez chalg'ish ularga xos hislatlardir;

d) affektiv buzilishlar – kayfiyatning besabab o'zgarib turishi agressiv ishlarga moyilligi kabi salbiy – shaxsiy hislatlar bo'ladi;

ye) ruhiy buzilishlar – aqliy faoliyat bo'lgan qiziqishlarning pastligi, o'qishga salbiy munosabatda bo'lish, o'g'irlik, yolg'on gapirishga va jinoyatilikka moyillik kabi salbiy – shaxsiy hislatlar bo'ladi;

j) tutqanoqli buzilishlar turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi;

z) Apatiko-adinamik buzilishlar – tashabbuskorlikning buzilish, aqliy faoliyatning pasayishi, haddan tashqari hissiy bo'shashishning o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Serebral organik xarakterdagi keskin ifodalangan RRS bolalarda neyrodinamik va ensefalopatik buzilishlaridan tashqari ba'zan kuchli bo'lmagan ayrim bosh miya po'stloq va po'stloq osti funksiyalarining buzilishi natijasida eshitish, ko'rish, tuyish, iroda, idrok, nutqning harakat (motor) va tushunish

(sensor) tomonlari, uzoq va qisqa muddatli xotira jarayonlari ham birmuncha zararlanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan asosiy serebral xarakterdagi RRS bolalarni yaxshi bilish, ularni oligofreniyadan ajrata olish, diagnozni to'g'ri qo'yish uchun zarur.

Serebral organik xarakterdagi RRS bolalarda bilish faoliyati birmuncha keskin buzilishlarga uchragan holatlar ham bo'lishi mumkin. Bunday vaqtlarda RRS ni aqli zaiflardan farqlash, ajratish juda murakkab diagnostik ishdir.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik muammosi va xususiyatlari.

O'zlashtirmaslik, ayniqsa, bolalar tomonidan majburiy maktabgacha barnomasini egallashlariga to'sqinlik qiladi. Ma'lumki, bolalarida aqliy va amaliy jarayonlar, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Bunday boshlang'ich bilimlarning tug'dirib, ba'zan ayrim bolalarning ta'limdan chetga chiqib olishlariga sabab bo'ladi. Bunday hollarda agar bola rivojlanishida buzilishlar bo'lmasa, maxsus yakkama-yakka ishlar orqali o'zlashtirmaslikning oldini olishi mumkin. Buning uchun o'zlashtirmaslikning oldini olish mumkin. Buning sababalarini aniqlash, diagnostika qilish kerak. Ommaviy maktabgachadagi o'zlashtirmaslik sababalari qator pedagog va psixologlar:

M.A.Danilov, V.I.Zikova, N.A.Menchinskaya, T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, A.I.Leontev, A.R.Luriya, A.A.Smirnova, L.S.Slavina, Yu.K.Babanskiylar tomonidan turli yo'nalishlarida o'rganilgan. Olimlar o'zlashtirmaslik sababalari sifatida bolaning jismoniy jihatdan zaiflanishini, turli nutq kamchiliklarini, eshitish va ko'rish kamchiliklarini, aqli zaiflikni hamda bolalar va tarbiyachilar orasidagi salbiy holatlarni ko'rsatadilar. Har bir qiyinchilik bilan oz miqdordagi o'zlashtirmovchi bolalar qamrab olingan. O'zlashtirmovchi bolalarning yarmini ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tashkil qiladi. Bunday taraqqiyot kamchiliklari, shakllari M.S.Pevzner, G.Ye.Suxareva, M.G.Reydiboym, T.A.Vlasova, K.S.Lebidinskayalar tomonidan tahlil qilingan. Bularning barchasi RRS nuqsoni bilan homilaning ona qornida, tug'ilish, ilk bolalik chog'ida markaziy asab sistemalarining yuzaki, kam miqdorda zararlanishi oqibatida kelib chiqadigan rezidual qoldiq holatlar orasida bog'liqlik borligini ta'kidlashdi. Markaziy asab sistemasining yuzaki zararlanishi natijasida bunday bolalarda maktabgacha ta'limiga ham jismonan, ham fiziologik, ham ruhiy mos kelmaslik yuzaga keladi. Maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyor bo'lmaslik quyidagicha namoyon bo'ladi:

- 1) tashqi olam haqidagi tasavvur va bilimlarning yetarli emasligida;
- 2) aqliy jarayonlar, malaka va harakatlar yetishmasligida;
- 3) nutq rivojlanishining orqada qolishida;
- 4) ma'lum qiziqish va motivlarda namoyon bo'ladigan bilish qiziqishlarining chegaralanganligida;
- 5) o'z hulqlarini idora eta olmasliklarida ko'zga tashlanadi.

RRS bolalar yuqoridagi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha maktab ta'limiga tayyor bo'lmaydilar. Ularning ruhiy xususiyatlari qator o'ziga xos belgilari, ko'rinishlari bilan normal va Aqli zaif bolalardan farq qiladilar. Albatta, bu

xususiyatlar ruhiy jarayonlar: diqqat, idrok, xotira, nutq, tafakkur va boshqalarning xususiyatlari bilan belgilanadi.

V.I.Lubovskiy rahbarligidagi olimlar tomonidan qilingan va qilinayotgan ishlarni ko'rsatish mumkin. Ruhiy rivojlanishi susaygan bolalarning oliy asab faoliyatlari quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Asosiy asab jarayonlarining kuchsizligi, tormozlovchi shartli bog'lanishlarning sekinligi, asab jarayonlarining tez charchashi va toliqishi;

- asab jarayonlarining keng irradiatsiyasi (markaziy nerv sistemasida qo'zg'alish jarayonining keng tarqalishi);
- asab jarayonlarining inertligi, bo'shligi.

Yuqorida aytib o'tilgan RRS bolalar asab sistemasining o'ziga xos xususiyatlari ma'lum darajada aqli zaiflarga ham xosdir. Ammo, RRS bolalardagi bunday holatlar Aqli zaif bolalardagidek keskin ifodalanagan bo'lmaydi.

Bundan tashqari, sifat jihatdan ham farq qiladilar, ya'ni shartli bog'lanishlarning hosil bo'lishida, Aqli zaif bolalardan farqli ravishda, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda so'z-nutq sistemasi katta rol o'ynaydi. Shuni qayd qilish lozimki, oliy asab faoliyatining yuqoridagi xususiyatlari neyrodinamikaning yetarli darajada yetilmaganligadan darak beradi. Bu hol normal bolalarda ham uchrashi mumkin. Lekin ularda bog'cha yoshidagina kuzatiladi, xolos.

RRS bolalarning ruhiy jarayonlari va bilish faoliyatlari qator olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan va o'rgatilmoqda. Bularga T.V.Yegorova, V.I.Lubovskiy, T.I.Karenkova, L.I.Peresleni, S.A.Domishkevich, V.L.Podobed, A.G.Poddubnaya, P.B.Shoshin, N.G.Lutonyan, A.A.Avtotinh, I.A.Korobeynikov, V.S.Slepovich, V.I.Nasanova, R.D.Triger, N.A.Sqpina, G.A.Shevchenko, G.M.Kapustina, G'.B.Shoumarov, K.K.Mamedov, Ye.A.Morshinina va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

G.I.Jarenkovaning ko'rsatishicha, diqqatning yetarli rivojlanmaganligi quyidagicha ifodalanadi:

- ma'lum bir faoliyatning dastlabki boshlanish bosqichida diqqatning kuchliligi va ma'lum vaqtdan so'ng pasayib ketishi;
- diqqatning kuchliligi faoliyat boshlangandan keyin ma'lum vaqt o'tgach yuzaga kelishi;
- diqqat kuchining muntazam ravishda kuchayib va susayib turishi kuzatiladi.

RRS bolalarning idroki quyidagicha xarakterli xususiyatlarga ega. Birinchidan sezgi organlari orqali olingan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash tezligi past bo'ladi. Shu sababli RRS bolalar ma'lum barnoma materialini o'zlashtirish uchun ko'p vaqt sarf qiladilar. Ammo aqli zaif bolalardan bir muncha farq qilib, normal tengdoshlari o'zlashtirgan materialni to'la o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ikkinchidan RRS bolalar eshitish, taktil, ko'rish idroklarining nozik shakllari yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababli oraliq tovushlarni va ranglarni normal tengdoshlaridek farqlay olmaydilar.

Uchinchidan, narsa va buyumlarning fazodagi joylashish munosabatlarini idrok etishlari yetarli bo'lmaydi. Buyularning bir-biriga nisbatan oldida, yonida, orqasida kabi tushunchalarni yetarli tushunib yetmaydilar.

To'rtinchidan, idrok etayotgan ob'ekt, narsa va buyumlar sonining ortishi, ko'payishi, idrok etilayotgan vazifa murakkabligining ortishi, o'sishi, bir vaqtning o'zida bir nechta taasurolarni idrok etish zaruriyati yuzaga kelishi natijasida bunday bolalar idrokning birmuncha yomonlashishiga olib keladi.

RRS bolalar idrokning yetarli rivojlanmaganligi asosida markaziy asab sistemasidagi analizatorlar orasidagi munosabatlarining buzilishi yotadi.

Ba'zi avtorlarning (Ye.U.Daulenskie, I.F.Markovskaya...) ko'rsatishicha, idrokning nozik shakllarining yetishmasligi bunday bolalarning 70 % ida uchraydi.

Idrok etilayotgan ob'ekt, narsalar kontrastligi va rangning kamayishi, umumiy fondan shaklni ajratishga qiyinchilik tug'diradi.

Diqqatning ma'lum ob'ektlarga qaratilish vaqti bo'yicha, narsa va hodisalarning o'zgacha holatda idrok eta olish xususiyatiga ko'ra ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o'z normal tengdoshlaridan keskin farq qiladilar. RRS bolalarda idrokning turli xususiyatlarining yetishmasligi chet el olimlari tomonidan ham ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, RRS bolalar tuyush reaksiyalarida normal tengdoshlaridan orqada qolar ekanlar.

RRS bolalar tuyush (persentiv) reaksiyalarda, masalalar yechishda samarali bo'lmagan ish usullaridan foydalanishadi.

Idrok etilayotgan narsalarni ko'rganda ham, ma'lum darajada buyumning kam belgilarini ko'rishga ulguradilar. Bunday ko'rish idroklarini bartaraf etish uchun RRS bolalarga maxsus yordam berib borilishi kerak. Ko'rish orqali idrok etilishi kerak bo'lgan buyum, narsalar ortiqcha elementlarsiz bo'lishi, hamda ko'rsatish bilan birga og'zaki tushuntirish ishlarini qo'yshib olib borish yaxshi natijalar beradi. Idrokning yetarli bo'lmashligi ko'rish, eshitish tasavvurlari ham yetarli darajada shakllanmaydi. Buning natijasida tafakkur jarayonlari, turlari ham yetarli rivojlanmaydi. RRS bolalarning idrok etish jarayonlarining dinamikasi birmuncha yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lib, normal bolalarga nisbatan sezilarli darajada orqada qoladi.

Oddiy tasvirlarni, rasmlardagi buyumlarni bilib olish tezligi, normal bolalardagidan birmuncha pastligi P.B.Shoshin ishlarida to'la ochib berilgan.

Yuqoridagilarga xulosa qilib, RRS bolalar idroki quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turishini ta'kidlash mumkin.

- sensor axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash tezligi sekinlashganligi;

- ko'rish, eshitish va taktil idroklarining nozik shakllari yetarli emasligi;

- idrok etishda fazoviy munosabatlarning yetarli emasligi;

- buyumlarning ko'payishi natijasida idrok etishning yomonlashuvi.

RRS bolalarning idrok xususiyatlarini tibbiy-pedagogik komissiya a'zolari tomonidan e'tiborga olinishi kerak. Maxsus maktabgacha tarbiyachiTarbiyachilari ta'lim-tarbiyada quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

- RRS bolalarning ma'lum materialni egallashi uchun ko'p vaqtning sarflanishi;

- ko'rish orqali qabul qilinadigan materiallar mumkin qadar kam elementlardan iborat bo'lishi;

- yangi materiallar berish vaqtida, bolalar diqqatini chalg'itadigan qo'zg'atkichlar bo'lmashligi kerak.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning xotira jarayonlarining o'ziga xos tomonlari.

Klinik va ruhiy-pedagogik tekshirishlarining ko'rsatishicha, xotira buzilishlari RRS bolalarning xarakterli belgilaridan biri ekan. Xotira jarayonlarining buzilishi murakkab va o'ziga xos ko'rinishiga ega. RRS bolalar xotirasining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ular xotirasining ayrim tomonlari ko'proq, ayrim tomonlari kamroq buzilganligidir. Xotira jarayonlari unumdorligining pasayishi, RRS bolalarda o'z faoliyatlarini unumli tashkil qila olmaslik, eslab qolishning samarali usullarini o'llay olmaslik natijasida kelib chiqadi.

RRS bolalar xotirasining kamchiliklariga qaramasdan, ularda yetarli rivojlanish imkoniyatlari bor.

RRS bolalarda xotira hajmining kamayganligi, qisqa va uzoq muddatli xotira turlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

T.V. Yegorova, N.G.Lutonyan, N.G.Poddurnaya, N.B.Novinskaya, G'.B.Shoumarovlar ishlarida RRS bolalar xotirasining turli tomonlari atroflicha ochib berilgan. RRS bolalar xotirasining hajmi, eslab qolishning turg'unligi, qisqa muddatli, operativ, ixtiyoriy, ixtiyorsiz xotira turlari normal tengdoshlaridan birmuncha pastligi aniqlangan.

RRS bolalarning mexanik xotirasi normal bolalar darajasiga yaqin bo'lib, Aqli zaif bolalar darajasidan keskin farq qiladi. (G'.B.Shoumarov).

RRS bolalarni xotira jarayonlarining xususiyatlariga ko'ra 3 ta guruhga bo'lish mumkin.

1. Normal bolalarga yaqin bo'lgan daraja.
2. Normal bolalar bilan Aqli zaif bolalar orasidagi daraja.
3. Aqli zaif bolalarga yaqin bo'lgan daraja.

Diqqat, idrok va xotira faoliyatining maqsadga qaratilganligining o'sib yetishmaganligi natijasida RRS bolalarning aksariyatida, ixtiyoriy xotirasining yetishmasligi kuzatiladi. Sodda, murakkab bo'lmagan materiallarini eslab qolish vazifalarini bajarishda RRS bolalar, normal bolalar darajasiga yaqinlashsa, xotira faoliyatlari murakkablashgan sari aqli zaif bolalar darajasiga yaqinlashadi.

Xotira faoliyatning maqsad sari yo'nalganligining yetishmasligiga esda saqlab qolishning maxsus usullardan foydalana olaslik ham RRS bolalar xotirasining o'ziga xos belgisidir. Normal bolalardan farqli ravishda RRS bolalar xotirasining samaradorligiga, esda olib qolinayotgan material xarakteriga ko'proq bog'liqdir ya'ni ko'rgazma (noverbal) material, so'z (verbal) materialga nisbatan yaxshiroq esda olib qolinadi. RRS bolalarda faqat esda olib qolish emas, balki esga tushirish aktivligi ham pasaygan bo'ladi. Uzoq muddatli va qisqa muddatli xotira bo'yicha RRS bolalar normal bolalardan keskin farq qiladi.

RRS bolalarning tafakkur xususiyatlari.

L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, A.V.Zaporojes, G.S.Kostyuk, A.A.Lyublinskaya va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ta'limotga

binoan, inson tafakkurning uch xil turi: ko'rgazma – harakat, ko'rgazma – obraz, so'z-mantiq shakllari mavjud. Katta yoshdagi normal kishilarda tafakkurning bu turlari yetarli darajada rivojlangan bo'lib, bir-birlari bilan dialektik birlikni tashkil qiladi.

Tafakkur turlari, mazmuniga oid barcha yoshlarga tegishli umumiy materiallar T.V.Rozanova tomonidan batafsil berilgan (1978 y.). Nuqsonli bolalar tafakkur xususiyatlarini o'zlashtirmovchi bolalarda tekshirgan

RRS bolalar tafakkurning o'ziga xos bo'lgan va uni aqli zaiflardan oson ajratishga imkon beradigan xususiyatlaridan biri, so'z-mantiq tafakkur bilan ko'rgazma-obrazli tafakkur turlarining o'zaro munosabati va rivojlanish darajalaridir (G'.B.Shoumarov).

RRS bolalarning so'z-mantiq tafakkuri yetarli rivojlanmagan bo'lib, ba'zi holatlarda ularni yengil darajadagi aqli zaiflardan farqlay olmaslik mumkin.

Ammo, ularning ko'rgazma-harakat va ko'rgazma-obrazli tafakkur turlari aqli zaiflardan keskin farq qilib, normal tengdoshlariga yaqinlashib boradi. Bu esa ularning bilish faolyatlarida katta rivojlanish imkoniyatlari mavjudligi va ularning bir qismi ma'lum ta'lim yillaridan keyin, maxsus ta'lim-tarbiya va davolash ishlari natijasida o'z normal tengdoshlariga yetib olishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tafakkur turlarining bunday munosabati va notekisligi katta differensial diagnostik ahamiyatga egadir. Ma'lum ob'ektlarni tahlil qilganda RRS bolalar normal tengdoshlariga nisbatan kamroq, lekin Aqli zaif bolalarga nisbatan ko'proq belgilarni aniqlaydilar. Lekin, shu bilan birga ularning tahlil jarayoni rejasiz ravishda bajarilganligi sababli ob'ektning ko'pgina qismlari tushirib qoldiriladi. Ammo, ularga Tarbiyachi tomonidan ma'lum yordam berilganda, tahlil natijalarida keskin o'zgarish bo'lib, normal tengdoshlariga yaqinlashadi. Tarbiyachi tomonidan yordam berilganda, tahlil natijalarida keskin o'zgarish bo'lib, normal tengdoshlariga yaqinlashadi. Tarbiyachi tomonidan yordam berilganda Aqli zaif bolalarda ham ijobiy o'zgarishlar bo'lishi mumkin, ammo, bu o'zgarish RRS bolalardagidek katta bo'lmaydi. Bu esa RRS bolalarning o'z taraqqiyotlarida rivojlanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarga ega ekanligini, ular pedagogik yordamdan samarali foydalana olish mumkin ekanligini ko'rsatadi.

RRS bolalarda tafakkur jarayonlari: tahlil – tavsifdan tashqari umumlashtirish, tasniflash, sistemalashtirish, taqqoslash darajalari jihatdan normal va Aqli zaif bolalar tafakkur jarayonlari orasida bo'ladi. Berilayotgan vazifa murakkablashgan sari RRS bolalarning tafakkur qilish saviyasi Aqli zaif bolalarnikiga yaqinlashib boradi. Tafakkurning boshlang'ich sinflardagi taraqqiyot dinamikasini o'rgangan, kuzatgan T.V.Yegorova boshlang'ich sinf oxiriga kelib, aksariyat holda RRS bolalar tafakkuri normal bolalar tafakkuri saviyasiga yaqinlashganligini ko'rsatadi. Bu yaqinlashish ayniqsa, RRS bolalar tomonidan umumlashtirish va tasniflash jarayonlarida o'z ifodasini topadi.

Tafakkur xususiyatlarini tekshirishda, faqat vazifani bajarish natijalari emas, balki tafakkur qilish uslublariga ham alohida e'tibor berish kerak. RRS bolalar, Aqli zaif bolalarga nisbatan biron aqliy vazifani bajarayotganlarida birmuncha samaraliroq usullardan foydalanadilar. RRS bolalar ma'lum vazifalarni bajarish vaqtlarida Aqli zaif bolalardan sifat jihatdan farq qiladilar.

RRS bolalar tafakkuriga oid ilmiy izlanishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, RRS bolalar tafakkurining quyidagi xususiyatlari mavjud:

1. So'z – mantiq tafakkur turining quyi darajadali bilan, nisbatan saqlangan ko'rgazma – obraz va ko'rgazma – harakat tafakkur turlariga ega.
2. Bilish jarayonlarining yaqqol sezilib turadigan notekis rivojlanganligi.
3. Intellektual faoliyatlarning maqsadga muvofiqligining bir muncha buzilganligi bilan xarakterlanadi.
4. Tafakkurning inertligi, bo'shligi, bir xil xarakterlarga moyilligi, tahlil-tavsif jarayonlarining yaxshi shakllanmaganligi ko'rinadi. Bunday xususiyatlar Aqli zaif bolalarda birmuncha chuqurroq xarakterga ega bo'ladi.
5. RRS bolalar aqliy masalalarni yechish vaqtlarida ko'rsatilgan yordamdan, Aqli zaif bolalarga qaraganda unumliroq foydalanadilar.
6. Intellektual aktivlikning yetarli emasligi.
7. Berilgan ko'rsatmani tushuna olish, ammo ko'rsatma talablari asosida faoliyatni to'g'ri tashkil eta olmaslik.
8. Intellektual vazifalarni yechish vaqtida zarur hissiyot – irodaning yetishmasligi, topshiriqlarni yechishning aktiv yo'llarini qidirib topa olmaslik.
9. RRS bolalarda aqliy ish qilish qobiliyatlari normal tengdoshlariga qaraganda birmuncha pasaygan bo'ladi.

Ruhiiy riojlanishi sustlashgan bolalar nutqi. RRS bolalar nutqi normal bolalarga nisbatan rivojlanish, shakllanish nuqtai – nazaridan birmuncha orqada qoladi. Ularda turli talaffuz kamchiliklari uchrab turadi. Tovushlar talaffuzining buzilishi, tovush obrazlarining yetarli shakllanmaganligi yozish va o'qishda xatolarga yo'l qo'yishga olib keladi.

RRS bolalar lug'at boyligi birmuncha cheklangan bo'lib, aktiv lug'ati yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Ular nutqidagi mavjud tushunchalar tor, noaniq ba'zan esa noto'g'ri bo'ladi. Grammatik umumlashtirishlar yetarli bo'lmaganligi sababli, yozuvda turli xil xatoliklarga yo'l qo'yadilar. RRS bolalar nutqini A.Yu.Panasjuk tomonidan 1973 yilda mamlakatimiz tarixiy, milliy, madaniy, ijtimoiy sharoitga moslashtirilgan Veksler metodiksi bilan tekshirganimizda subtestlar ichida "lug'at" bo'yicha eng past ko'rsatkichlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ularning aksariyat 7 yoshda ham maktabga bormasdan bog'chada qolishni hohlaydi. O'qishga bo'lgan qiziqishlarga nisbatan, o'yinga bo'lgan qiziqishlari ustunlik qiladi. O'yinga bo'lgan qiziqishining ustunlik qilganligi va o'qishda doimo, muntazam muvaffaqiyatsizlikka uchrab turishi natijasida bu bolalarda o'qishga nisbatan salbiy munosabat shakllana boradi. O'z-o'ziga ishonmaslik xislari shakllanadi. O'zlarining qobiliyatlarini baholashda haddan tashqari past baholash hollari kuzatiladi. Bu esa, ular shaxsining shakllanib yetishmasligi, hissiyot – iroda faoliyatlarida o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan bilish ehtiyojlarining shakllanmaganligida o'z ifodasini topadi. Aksariyat hollarda, RRS bolalarda intellektual faollik, qiziqishlar yetarli bo'lmaydi. RRS bolalar faoliyati o'rganilganda, ularning o'z faoliyatlarini yetarli rejalashtira olmasligi, xatti-harakatlarning normal bolalarga nisbatan qo'zg'aluvchanligi, o'z-o'zini nazorat qilish saviyasining pastligi, o'z imkoniyatlarini yetarli baholay olmasligi va faoliyatlarini maqsad sari yo'naltirishning yetarli emasligi ma'lum bo'ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Diqqat va uning turlariga tavsif bering.
2. Aqli zaif bolalarning bilish jarayonlarini xususiyatlari haqida.
3. Xotira – psixologik jarayonini izohlab bering.
4. Aqli zaif bolalarning xotira xususiyatlari
5. RRS bolalarni xotira jarayonlarining xususiyatlariga ko‘ra nechchi turga bo‘linadi va qaysilar
6. RRS tasnifiga asosan nechchi xil turga xos bo‘lgan bolalar kiradi.
7. RRS bolalar bilish jarayonlarining o‘ziga xosligi
8. RRS bolalar nutq xususiyatlarining o‘ziga xosligi

4- Mavzu Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutq xususiyatlari

Reja

1. Nutq haqida tushuncha. Nutq turlari.
2. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutq xususiyatlarining o‘ziga xosligi.
3. Tafakkur va nutqning uzviy bog‘liqligi.

Tayanch tushunchalar: Nutq, tafakkur, artikulyatsion apparat, dislaliya, nutq tasnifi, rinolaliya.

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lib, nutq vositasida o‘zaro aloqa bog‘lay olish, fikrlasha bilishidir. Turli tovushlarning ma’lum tartibda birgalashib, payvasta bo‘lib qo‘shilishidan yuzaga kelgan ma’noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo‘ladi.

Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til birliklarini o‘rinli qo‘llanish yotadi. Tilning murakkab sistemasi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo‘lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o‘zlashtirib olinadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So‘zning ahamiyati o‘z-o‘zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o‘zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o‘xshash emas va ma’lum darajada bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda paydo bo‘ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanish jarayonida murakkab, sifati jihatidan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo‘ladi.

Kishilarning tili vositasida o‘zaro munosabatda bo‘lish jarayoni nutq deb ataladi.

Nutq birgalikda mehnat qilish jarayonida kishilarda bir-biriga nimadir aytish ehtiyoji tug‘ilgan vaqtda yuzaga keladi. Kishilar nutq yordamida o‘z zamondashlariga muayyan vaqtda nimalar yuz berayotganini xabar qilibgina qolmaydilar, balki insoniyat to‘plagan bilimlarning avloddan-avlodga yetkazib beradilar. Bola nutqni egallab olganidan keyin o‘zi tug‘ilgan jamiyat hayotida

kishilar bilan munosabatda bo'ladi. Agar bola biror sababga ko'ra nutqni eslab qolmasa, uning aqliy kamoloti past darajaga tushib qolishi mumkin.

Fikrlash bolaning nutqi va tafakkurini o'sishida muhim vositadir. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib, yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil, farq tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi, ichki nutqda nutq organlarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq yozma nutqdan quyidagilar bilan farqlanadi: og'zaki nutq, tovush nutq, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og'zaki nutqda intonatsiya, mimika, imo-ishora jestikulyatsiyadan keng foydalanib, eshitish sezgisi asosiy ro'l o'ynaydi. Tafakkur va nutq bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Shaxs o'ylayotganda, odatda, fikrlarni so'zlar, jumlar tarzda, ichki nutq deb ataladigan nutq tarzida ifoda etiladi. Biroq shunday hollar ham bo'ladiki, shaxs fikrini so'zlar bilan ifoda eta olmay qoladi. Bu holda odam ichki nutqdan tashqi ifodaga o'tishda o'z fikrini boshqa kishilarga tushunadigan qilib bayon etishda qiynaladi.

Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o'z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqida o'ylab oladilar. O'ylagan paytida ovoz chiqarmasdan ichki nutqdan foydalanadilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, o'ylangan va fikrlangan nutqdir. Bu nutq fikrlovchi kishining o'ziga qaratiladi. Ichki intonatsiya, mimikadan foydalanish imkoni bo'lmaydi. Shu munosabat bilan yozma nutq ancha qiyinchilik tug'diradi. Yozma nutq ancha murakkab va mavhumdir. Og'zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o'zaro aloqa vositasi, quroli sifatida xizmat qiladi. Og'zaki nutq monologik va dialogik nutq bo'lishi mumkin. Monologik nutq nomining o'zi aytib turganidek, bitta odamning nutqidir. U ko'pincha boshqa kishilarga, tinglovchilarga (doklad, hikoya) qaratilgan bo'ladi, lekin monologik nutq tinglovchilarga qarata aytilayotgan vaqtida ular uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Dialogik nutq ikki yoki undan ortiq kishining suhbatidan iborat bo'ladi. Har bir so'zlovchining fikrlari odatda almashinib turadi va odatda u monologik nutq singari davomi bo'lmaydi. Nutqning hamma aytib o'tilgan turlari aktiv nutq tushunchasiga kiradi. Ammo passiv nutq ham bo'ladiki, u kishining nutqini idrok etishi va tushinishini o'z ichiga oladi.

Bola nutqining normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga, tevarak - atrof haqidagi bilim va tasavvurlarni kehaytirishga imkoniyat yaratadi. Bolaning atrofida katta odamlar qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o'rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqaradi.

Bola rivojlanishida psixik jarayonlar bilan birga eshitish qobiliyati juda katta ahamiyatga ega. Buning normal rivojlanishida va umuman, barkamol bo'lib bo'lib o'sishda barcha psixik jarayonlar bilan eshitish qobiliyati chambarchas bog'liq holda, hech qanday nuqsonsiz rivojlangandagina bolaning nutq boyligi normal darajada rivojlanadi.

Aqli zaif bolaning xususiyati shundaki, uning psixikasi qoidaga bo'ysunmaydigan sharoitlarda, anomal taraqqiy topish jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bola sog'lom tengdoshlaridan shu bilan farqlanadiki, uning ilgarigi tajribasi va rivojlanishida bundan keyingi psixik kamol topish uchun zarur shart-sharoitlarni tashkil etuvchi mexanizmlar hamda psixik jarayonlar shakllanmagan bo'ladi. Shunday qilib, Aqli zaif bolaning umumiy psixik taraqqiyot darajasi odatdagi sharoitlarda uning maktabgacha bilimlari, ko'nikma va malakalarni ongli suratda egallashini ta'minlay olmaydi. Yetakchi faoliyat uning psixik jarayonlari va shaxsiy hususiyatlarida eng bosh o'zgarishlarni taqozo etibgina qolmay, balki uning o'sib borishida yaxshi ko'rsatkich hamdir.

B.N.Pinskiy ta'kidlashicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlari mustaqil holda yoki tarbiyachining ozgina ko'magi bilan bajara oladigan vazifalarni uddalashlari uchun propedevtik va korreksion tarbiyaviy tadbirlarga muxtojdir.

Nutqini o'z vaqtida to'g'ri egallash bolaga atorofini o'rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z nutqini boshqarishiga ko'maklashadi va nihoyat maktabgachada ta'lim-tarbiya berish jarayonini ancha yengillashtiradi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlaridan farqli o'laroq ancha kech tilga kiradilar. Birinchi so'zni aytish muddati bolaning uch, ba'zan besh yoshgacha kechikadi. Eng avvalo, bu yerda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. G.A.Kainning tadqiqotlariga ko'ra, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarining 66 foizi tutilib gapirishning u yoki bu shakliga duchor bo'ladi. Aqli zaif bolalarda nutqiy nuqsonlarning shunchalik katta miqdorda uchrashi tasodifiy xol emas. Zotan, bosh miya po'stlog'ining shikastlanishi, fonematik eshituvning buzilishiga, artikulyatsion apparat harakatining izdan chiqishiga olib keladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tilning lug'aviy boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Misol uchun aqli zaif bolalar qo'llaydigan so'zlar zahirasi odatdagi meyorga tenglashtirib bo'lmaydigan darajada tordir. Ular ko'pincha so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar. 1) Mavhum tushunchani ifodalovchi mashaqqat, qimmatroq, arzonroq; 2) ko'chma ma'noda qo'llangan so'z.

Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning mohiyatini tushunmaydilar, «Oltin bosh» degan ibora bolada kulgi uyg'otadi, hamda ularning e'tiroziga duch keladi. «Bunaqasi bo'lmaydi» deyishadi ular. Nari borganda bolalar bu ibora vositasida quyoshda yiltillagan sochlarni tushunishadi.

Gap shundaki miya po'stlog'ining analizatorlik faoliyati buzilishi tufayli, atrofdagilar haqida noaniq tasavvurlar bolalarni kuzatgan narsa va xodisalarni noaniq atashga olib keladi. Natijada predmetlarning o'xshashligini ilg'ab ularning farqini ilg'amasdan bunday predmetlarni bir xil so'z bilan atashadi.

M.P.Feofanovning tadqiqotlariga ko'ra aqli zaif bolalarning nutqiga oid qo'shimchalar sog'lom intellektidagi bolalarnikiga nisbatan ikki barobar kam bo'lishi aniqlangan. Ulardan maxsus xarakterdagi mashqlarda to'g'ri foydalanishadi. Biroq o'z vaqtida ular chegaralangan doiradagi sifatlarni xush ko'rishadi. Jumaladan yaxshi, yomon, katta va kichik singari. Shu boisdan ham

bolalarning soʻzlab berishlari noaniq va bir xil boʻlib qoladi. Aqli zaif bolalar nutqi sintaktik jihatdan ham, oʻziga xos ravishda ajralib turadi. Eng avvalo gaplarning tuzilishiga koʻra yengilligini qayd etish kerak. Chunki bolalar bir narsani ikkinchisiga qiyoslashda, hodisalarning sababiy bogʻlanishlarini ochib berishda qiynalishadi. Gaplarning tuzilishidagi bu xil joʻnlik aqli zaif bolaning bosh miya poʻstlogʻida shakllanuvchi oddiygina aloqalarga mos keladi. Buning ustiga, aloqalarni yetarli aniq anglamasligi, aqli zaif bolalar fikrining noaniq tugallangan boʻlib qolishiga olib keladi. Bolalar oʻqiyotgan, eshitayotgan, koʻrayotgan narsalar haqida bir qator xatolarga yoʻl qoʻyadilar. A.R.Luriya, N.P.Paramanova, O.K.Tixomirov (1973) va boshqalar oʻtkazgan tajribalar shuni koʻrsatadiki, rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bola oʻzining harakatlariga qoʻllanma boʻla oluvchi umumiy qoidalarni mustaqil ifodalab berishga qodir emas. Ichki nutq aqlida shakllangan har qanday fikrning moddiy qobigʻidir. Aqli zaif bola nutqidagi bunday nuqsonlar, ularning oʻqishini qiyinlashtiradi. Bolalar hamma vaqt ham tarbiyachining tushuntirishlarini fahmlashavermaydi, matn mazmunini mustaqil tushunib yetmaydi, oʻz harakatlarini oʻrganilgan qoida bilan nazorat etishadi. Soʻz ular uchun narsaning oʻzi bilan chatishib ketgan boʻladi, uning aniq mazmunidan ajratish uchun, yaʼni uni grammatik, fonetik jihatdan oʻrgana boshlash uchun katta shijoat talab etiladi. Ilgʻor pedagog – defektologlarning tajribalari shuni koʻrsatadiki, taʼlimning maxsus tashkil etilgan sistemasi yordamida rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalarning nutqiy faoliyatidagi nuqsonlarni korrektsiyalab borish, tafakkurning kechikishidagi nuqsonlarni oshirish mumkin. Rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar juda koʻp tovushlarni, yaʼni sirgʻaluvchi, til orqa, sonor tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Bunday holat bola nutq apparatining yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Bu guruhga kiruvchi bolalar orasida tovushlarni buzib talaffuz etish, boshqa tovushlarga almashtirish koʻproq foizni tashkil etadi. Shuning uchun ham logopedlarning, tarbiyachilarning asosiy vazifasi rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar nutqini har tomonlama oʻstirishdir. Tovushlarni toʻgʻri talaffuz etish bola artikulyatsion apparatining yaxshi uygʻunlashib, moslashib ishlashiga bogʻliqdir. Shuning uchun ham logopedlarning, tarbiyachilarning asosiy vazifasi rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar nutqini har tomonlama oʻstirishdir. Tovushlarni toʻgʻri talaffuz etish bola artikulyatsion apparatining yaxshi uygʻunlashib, moslashib ishlashiga bogʻliqdir. Shuning uchun hamma vaqt tovushlar ustida ish olib borilar ekan, albatta artikulyatsion gimnastikalar oʻtkaziladi. Ayrim unli va undosh tovushlar asta – sekin egallab boriladi. Bolalarning koʻpchiligi ayrim tovushlarni, yaʼni R, S, K, G, M, Sh, Ch tovushlarini talaffuz etishda qiynaladilar, soʻzlarni buzib talaffuz etadilar. Baʼzi bolalar soʻzdagi boʻgʻinlar oʻrnini oʻzgartirib, soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qiladilar.

Shuni aytib oʻtish zarurki, aqli zaif bolalarda faqatgina faol nutqning rivojlanishi kechikib qolmaydi. Bolalar ularga qaratib soʻzlagan nutqni yaxshi tushunmaydilar. Kattalarning savollari, talablari, tushuntirishlari va koʻrsatmalari ularning hayotida birmuncha boshqa, ahamiyatsiz rol oʻynaydi.

Rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar uchun xos boʻlgan umumiy motor rivojlanmay qolishi ham nutqning rivojlanishining sekinlashishida maʼlum bir roʻl oʻynaydi. Motorikaning (harakatlarning) rivojlanmay qolishi bolaning atrof-dunyo

bilan tanishish jarayonini buzadi va natijada ular haqida tasavvur va ma'lumotlarni to'plashni tormozlaydi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda kuzatiladigan motorikaning nuqsonlari ular nutqining talaffuz tomoniga ham ta'sir etadi. Chunki nutq tovushlarining, so'zlarning ixtiyoriy talaffuzi nutq a'zolarining yuqori darajadagi koordinatsiyalashga harakatlarini talab etadi. Aqli zaif bolalar uchun esa nutq a'zolarining koordinatsiyalashgan harakatlari qiyinchilik tug'diradi.

Aqli zaif bolalar uchun xarakterli bo'lgan fonetimatik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi va nutq harakatidagi kamchiliklar bir-biriga ta'sir etadi va nutqning rivojlanishini tormozlaydi. Ammo shuni nazarda tutish lozimki, nutq a'zolari harakatidagi kamchiliklarni xaddan tashqari ko'pirtirib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'lmaydi, chunki bu buzilishlar keyinchalik oson bartaraf etilishi mumkin. Asosiy, yetakchi rol fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligiga tegishli bo'lib, u rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishi nuqsonlarning oqibatidir.

Aqli zaif bolalar nutqidagi grammatik qurilishning buzilishlari masalasi qator olimlar tomonidan (rus tadqiqotchilari M.S.Gnezdilov, M.N.Yefimenkova, I.N.Sadovnikova, O.L.Jilsova, M.P.Fiofanovalar ishlarida) o'rganilgan. Ularning ko'rsatishicha, aqli zaif bolalar nutqda gaplardan ancha kechikib foydalana boshlaydilar. Dastlabki jumlar aqli zaif bolalar 5 yoshdan so'ng paydo bo'la boshlaydi va u bir qator kamchiliklarga ega bo'ladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi asosan sodda gaplardan iborat bo'ladi. Tuzgan gaplarida grammatik xolatlar juda ko'p kuzatiladi, gaplardan boshqaruv va moslashuv bog'lanishlar buzilishlari yuz beradi. Ko'pincha aqli zaif bolalar grammatik jihatdan to'liq bo'lmagan gaplar tuzadilar. Ularda gapning tuzilishi qoidasi asosiy bo'laklarni tashlab ketish hisobiga qo'pol buziladi. Aqli zaif bolalarning so'zlarini tovush tomonidan tahlil qila olishlari grammatik qonun qoidalarini muvaffaqiyatli egallashlarida asosiy vositadir. N.S.Rojdestvenskiyning ta'kidlashicha, «So'zdagi tovushlarni farqlamasdan, ularni ajratmasdan, bolalarni o'qish va yozishga, keyinchalik to'g'ri yozishga o'rgatish mumkin emas». Maktabgachagacha yoshdagi aqli zaif bolalarda bog'langan nutq shakllanmagan bo'ladi. Ular dialogda ishtirok eta olmaydilar. O'z fikrlarini og'zaki shaklda bayon etish uchun ular doimo kattalarning yordamiga muhtoj bo'ladilar. Meyorida rivojlanayotgan bolalarda nutqning fonematik tomonini shakllanishi 4-5 yoshda o'tadi. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida nutq oqimidan so'zlarni ajratishga, ularni tahlil qilish, ularning asosiy, ma'no beruvchi fonematovushlarni eshitishga hamda talaffuz qilishga o'rganadi. Asta-sekin eshitish analiz va sintezini aniqlab, artikulyatsiya a'zolari ishining takomillashib borib, nutqning semantik tomonini o'zlashtirgan sari bolaning talaffuzi ancha to'g'ri bo'lib boradi va maktabga borish vaqtida tilini fonetik normalariga mos keladi.

Aqli zaif bolalar talaffuzidagi nuqsonlar – nutqning to'liq rivojlanmaganligining ko'rinishlaridan biridir. Meyorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatiladigan talaffuz nuqsonlaridan farqli aqli zaif bolalarda uchraydigan talaffuz kamchiliklari boshqa, ancha murakkab, shuning uchun ham bartaraf etish qiyin bo'lgan sabablarga ega bo'ladi. Ularning asosida bola tomonidan ona tilini tovush tomonini o'zlashtirishning sekinlashganligi yotadi. Aqli zaif bolaga eshitilishi

bo'yicha o'xshash fonemalarni ajratish va so'zning tovush tahlilidagi qiyinchiliklardan namoyon bo'ladigan fonetikofonematik buzilishlar xosdir. Bular talaffuz nuqsonlarini keltirib chiqaradi. Haqiqatdan, o'xshash tovushlarni yetarlicha aniq ajrata olmasdan bola ularni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgana olmaydi, chunki mustaqil ravishda o'zining talaffuzini nazorat qilish, takomillashtira olmaydi. So'zning tovush tahlili va sintezning nuqsonlari o'z navbatida ularning tuzilishini egallab olishga to'sqinlik qiladi. So'zlarda tovushlarni tashlab ketish, o'rnini almashtirish, shuningdek, so'zni oxirigacha aytmaslikka olib keladi.

Aqli zaif bolalarda nutqning fonematik nuqsonlari turlicha namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda ular yaqqol namoyon bo'ladi. Bolalar ba'zi tovushlarni umuman talaffuz etmaydilar (Sh, R, K va boshqalar), bir qator tovushlarni noaniq talaffuz etadilar (L, Z, B), artikulyatsiyasi va eshitishi bo'yicha o'xshash tovushlar almashtiriladi. Aqli zaif bolalarning ba'zilarida tutilib gapirish kuzatilib, bu nuqson tovushlar talaffuzining buzilishlari yoki boshqa nutq nuqsonlari bilan birgalikda kelishi mumkin. Shubhasiz, talaffuz kamchiliklari aqli zaif bolalarda meyorida rivojlanayotgan bolalarga qaraganda ko'proq uchraydi.

G.A.Kashening ma'lumotiga ko'ra, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarining 60% da u yoki bu darajadagi talaffuz nuqsonlari kuzatiladi.

Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar bartaraf etilganidan so'ng ham aqli zaif bolalar tovushlarni alohida talaffuz eta olsalar ham bu tovushlarni mustaqil so'zlashishda qo'llay olmaydilar. Chunki, alohida tovushlarni talaffuziga qaraganda tovushlardan o'zining faol nutqida foydalanish haqiqatdan murakkab faoliyatdir.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan aloqa qilishda ular nutqining yetarlicha ifodali emasligi ko'zga tashlanadi. Og'zaki nutqning fonetik ifodaliligining asosiy vositasi bo'lib jumlaning aksentli ajratish va jumlaning intonatsiyasi xizmat qiladi. Aqli zaif bolalarning og'zaki nutqida ifodali vositalar juda zaif bo'ladi. Ularning nutqi monotonligi, intonatsiyasiz keraksiz pauzalar bilan xarakterlanadi. Alohida hollarda potologik sekinlashgan, past yoki tezlashgan, qo'zg'algan bo'ladi.

Aqli zaif bolalarda so'zlar boyligi odatda juda sekinlashgan bo'lishi kuzatiladi. Ular ko'pincha doimo uchraydigan, yaxshi tanish bo'lgan predmetlarning nomlarini ham bilmaydilar.

Lug'at zaxirasining kamligi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga o'z fikrini, his tuyg'u va istaklarini aniq ifodalashga to'sqinlik qilibgina qolmasdan, balki bir qator hollarda ularga qaratib so'zlangan nutqni tushunishlariga halaqit beradi. Bir tomondan predmetlar ikkinchi tomondan so'zlar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xosligi aqli zaif bolalarda kuzatiladigan predmetlararo differentsiatsiyasi haqida ma'lumot beradi. Aqli zaif bolalarning ko'pchiligi turli - tuman predmetlarni nisbatan oson tanib nomlaydilar. Ammo obektlarning xususiyatlari o'rtasida o'xshashlik mavjud xollarda ularni nomlashda aqli zaif bolalar keskin qiyinchilikka uchraydilar. Bunday xususiyatlar asosida bolalar tafakkur jarayonlari, xususan analiz va sintezning o'ziga xosligi yotadi. Atrofdagilarning yetarlicha aniq idrok eta olmay, anglay olmasdan aqli zaif bolalar

predmetlarni differentsiatsiyalab nomlaydilar va umumlashgan, mavhum nomlar bilan chegaralanib qoladilar. Ma'lumki, bolalar tanish so'zlarni ancha oson talaffuz qiladilar va ajratadilar. Demak, so'zning ahamiyati bolaning fonematik eshitishni yo'naltirish va tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Umumiy rivojlanishdagi nuqsonlar aqli zaif bolalar tomonidan atrofdagilar predmetlarni nomlab yoki harakatlarni bajarayotib talaffuz etayotgan so'zlarni tushunishga to'sqinlik qiladi.

So'zlarning ma'nosini tushunishdagi nuqsonlar o'z navbatida fonematik eshitishning rivojlanishini qiyinlashtiradi, shu bilan bola nutqini shakllanishini tormozlaydi.

Me'yorida rivojlanayotgan maktabgachagacha yoshdagi bolada nutq hayotiy tajribani bevosita angliqtirish, atrofdagilar bilan aloqa qilish bilan chambarchas bog'liq shakllanadi. Bolaning faol amaliy va bilim faoliyati uning tasavvurlari doirasini kengaytiradi, unda yangi ehtiyoj va qiziqishlarni paydo bo'lishiga turtki beradi. Bu esa o'z navbatida bolada kattalar bilan nutqiy aloqa qilish zaruriyatini keskin oshishiga olib keladi. Kattalar bilan aloqa qilish orqali bola o'zining lug'atini boyitadi, so'zlarning yangi ma'nolarini bilib oladi, so'z birikmalarini o'zlashtiradi, so'ngra ulardan o'z istaklari, hislari, boshqa odamlarga munosabatini va hokazolarni ifoda etish uchun foydalanadi. Kichik yoshdagi aqli zaif bolalarda ham nutqning rivojlanishi albatta uning hayotiy tajribasini oshishi va atrofdagilar bilan aloqa qilish bilan bog'liq. Ammo psixikaning umumiy rivojlanmay qolganligi ularda tajribani kengayishi sekin va nuqsonli kechadi. Nuqsonli rivojlanayotgan amaliy va bilish faoliyati ko'p hajmdagi turli tasavvurlar tez to'plash uchun yetarlicha asos bo'la olmaydi va bolada yangi ehtiyoj hamda qiziqishlarni paydo bo'lishiga imkon yarata olmaydi.

Savol va topshiriqlar.

1. Maktabgachagacha yoshdagi Aqli zaif bolalar nutqining o'ziga xosligi
2. Maktabgachagacha yoshdagi Aqli zaif bolalar tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar haqida ma'lumot bering.
3. Aqli zaif bolalarda nutq buzilishining turlarini aytib bering.

Adabiyotlar.

1. Shoumarov G'.B., Mamedov K.K. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, T.: O'qituvchi, 1995.
2. Petrova V.G., Belyakova I.V. Psixologiya umstvenno otstalqx shkolnikov, M.: AKADEMA, 2004.
3. Mo'minova L.R., Sh.M.Amirsaidova va boshqalar. Maxsus psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2013.

5-Mavzu Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning faoliyat xususiyatlari.

Reja.

1. Maktabgachagacha yoshdagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnat faoliyatining o'ziga xosligi.

2. Maktabgachagacha yoshdagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim faoliyatining o'ziga xosligi.
3. O'yin faoliyati- maktabgachagacha yoshdagi Aqli zaif bolalarni rivojlanishida asosiy faoliyat sifatida.

Tayanch tushunchalar: Faoliyat, o'yin faoliyati, mehnat faoliyati, ta'lim faoliyati.

Inson faoliyatining asosiy turi mehnatdir. Mehnat faoliyatni individual rivojlanishida boshqa faoliyat turlari tasniflanadi: predmetli, o'yin va ta'lim faoliyat. Hayotining 1 yilida bola qo'l xarakatlarni anglaydilar, predmetlar bilan takroriy xarakat bajaradilar. Meyorda rivojlanayotgan bolaning ruhiy jarayonlarini shakllantirish, uni shaxsini rivojlantirish predmetli faoliyat asosida amalga oshadi, bunda nutqni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Predmetlar bilan xarakat kattalar boshchiligida, ular nazorati bilan amalga oshadi. Bu dastlabki kichik miqdordagi xarakatlar bo'ladi.

Mehnat ma'lum ijtimoiy foydali moddiy yoki ma'naviy mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iboratdir. Mehnat faoliyati odamning asosiy, yetakchi faoliyatidir. Kishilarning mehnat faoliyati o'z mohiyati jihatidan ijtimoiydir. Jamiyat ehtiyojlari mehnat faoliyatini tarkib toptiradi, uni aniqlaydi, yo'naltiradi, uni aniqlaydi va boshqaradi. Mehnat taqsimoti tufayli, bironta kishi ham o'ziga kerakli narsalarni o'zi to'liq, oxirigacha ishlab chiqarmaydi. Odam jamiyat uchun kerakli, jamiyat talab qilgan (ehtiyojga ko'ra) narsalarni ishlab chiqaradi. O'zi uchun kerakli narsalarni esa o'z mehnati evaziga jamiyatdan oladi. Shaxsning ehtiyojlarining qondirilish mexanizmi va shakllari jamiyatda xukmron bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Shunday ekan, odamning mehnatda bajaradigan ish-harakatlari biologik ehtiyojlar bilan belgilanmaydi, balki ko'zlangan ishlab chiqarish maqsadi hamda bu maqsadni amalga oshirishda uning boshqa kishilarga munosabatlari bilan belgilanadi.

Mehnat jarayonining bunday xususiyatlari inson faoliyati va hayvonlar hatti-harakatlar orasida katta tafovut borligini ko'rsatib turibdi.

Mehnat faoliyati vazifalari- mehnat rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar internati tarbiya ishi umumiy tizimida salmoqli o'rin tutadi. Mehnat faoliyati bolalarda mehnatga munosabat, uning ijtimoiy jamoat qadr-qimmatini tushunishini tarbiyalaydi, jamoada ishlashni o'rgatadi. Aqli zaif bolalar maxsus ta'limida asosiy vazifalari bo'lib tegishli lug'atni shakllantirish va faollantirish mehnat faoliyati jarayonida so'zlashuv nutqini rivojlantirish, maxsus bilimlarni shakllantirish, har qanday ishni mustaqil bajarishga o'rgatish, faoliyatning har xil turlarida fikrlashni rivojlantirish, mehnat operatsiyalarini ketma-ketligini rejalashtirish bo'yicha, bilimlarni oshirish hisoblanadi. Maxsus ta'limda tarbiyalanuvchilarning mehnat faoliyati turli shakllarda amalga oshiriladi.

O'z kiyimlariga qarash va navbatchilikning har xil turlari murakkab bo'lmagan bilimlarini egallash xona o'simliklariga qarash.

Bajariladigan har bir ish aloxida xarakatni ko'rsatib berish asosida olib boriladi. Zarur mehnat operatsiyalarini bosqichma-bosqich o'rganishda yoshi va

qobiliyatiga ko'ra mehnat vazifalarini asta-sekin murakkablashtirgan xolda korreksion ishlar amalga oshiriladi.

Bundan tashqari tarbiyalanuvchilar o'rtasida og'zaki so'zlashishni o'rgatish uchun mehnat faoliyatidan foydalanish, musobaqalar tashkil etish mumkin. Mehnat vazifalari foydali bo'lishi kerak, ularni bajarishni topshirish esa, tarbiyachining ishonchidan guvohlik beradi. Mehnatdan jazolash vositasi sifatida foydalanish mumkin emas.

Aqli zaif bolalar ta'lim faoliyati. Ta'lim faoliyati o'sib kelayotgan insonni mustaqil amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Ta'lim – ikki tomonlama jarayonni ko'zda tutadi: bilim berish va egallash. Bilim egallash tarbiyachi raxbarligida amalga oshadi va bolalarni ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Rivojlanishida nuqsoni bolalarni o'qitishda ta'lim faoliyat va o'quv qiziqishlarini tarbiyalash katta kuch-quvvat talab qiladi, xususan kar bolada ta'lim olishning tor, chegaralangan motivlari bo'ladi. Bolalar faqat ota-onasini xafa qilmaslik uchun sinfda obro'ga ega bo'lish, tarbiyachidan maqto'v eshitish uchun ta'lim oladilar.

Aqli zaif bolalar faoliyatida uni atrofdagilarga faol munosabatni namoyon bo'ladi. Faoliyat ixtiyoriy xarakterli vositasida amalga oshuvchi holatlardan tarkib topadi. Inson o'z xarakterini sezgi va idrok asosida nazorat qiladi. Shu sababli normal rivojlanuvchi bolada xarakter nazoratida katta rol eshitishga beriladi. Tovushlar, ovozlarni qabul qilib bola xarakterini bir ritmiligi, yaxlitligini nazorat qiladi. Bunday jarayonda eshituv va ko'ruv sezgisidan tashqari kinestetik sezgi-idrok muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqli zaif bolalar hayotida ma'lum darajada bosuvchi taktil-vibratsion sezgi rivojlanib boradi. Bola vibratsiyalarga ko'ra atrof olam haqidagi dunyo haqida bilimga ega bo'la boshlaydi. Shunday qilib, taktil-vibratsion nazoratga ko'ruv nazorat qo'shiladi. Bu bolaga o'z kinestetik sezgilarini to'liq anglashga yordam beradi.

Aqli zaif bolalar oldiga qo'yilgan maqsad va uni amalga oshirish yo'llarini moslashtirishga qiynaladilar. Ular maqsadga yetishish sharoit va talablari mos taxlil qilishga qiynaladilar, faoliyatni amalga oshirishni rejasiga ega bo'lmaydilar. Aqli zaif bolalar ayrim faoliyat turlarini faqat tarbiyachi ko'rsatmasi yoki taqlid asosida amalga oshiradilar, chunki ular mustaqil xarakterlarni ketma-ketligi aniqlay olmaydilar. Xususan, amaliy ishlarda master faoliyatini kuzatib, Aqli zaif bolalar uning xarakterini ketma-ketlikda bajara olmaydilar. Faoliyatni to'liq maqsadga qaratilmagani natijalarga tanqidiy yondashuvni yuzaga kelmasligiga olib keladi.

Aqli zaif bolalarni ta'lim-tarbiyasida ularda ko'ruv, taktil-vibratsion va kinestetik nazoratni shakllantirishi talab etiladi. Bunday nazorat jismoniy, tarbiya, mehnat va tasviriy sa'nat mashg'ulotlarida shakllantiriladi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'z faoliyatini rejalashtirish va o'zini nazorat etishga o'rgatish muhimdir.

Asta-sekin rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim faoliyati mazmun va maqsadga muvofiqlik aksini oladi. Bu jarayonda bilim asosida nimalarga nazariy bilim va amaliy maxoratni o'rgatish aloxida tashkillashtirilgan shakllarda olib boriladi.

Korreksion rivojlantiruvchi vazifalar rivojlanishidagi nuqsonni bartaraf qilishga yunaltilgan ijtimoiy ishni o'tkazilishini taqozo etadi. Bolalarning nutqini rivojlantirishga aqliy faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo'ladi. Korreksion rivojlantiruvchi vazifalar tarbiyachi tomonidan bolalarning doimiy bilim olish asoslarida amalga oshiriladi. Ta'limiy, tarbiyaviy, va korreksion rivojlantiruvchi vazifalar uzviy bog'langan xolda olib boriladi.

Taraqqiyot davomida shunday vaqt keladiki, unda bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatning shunday turiki, uning bevosita maqsadi ma'lum informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlar shakllarini o'zlashtirishdan iboratdir. Sub'ektning o'z maqsadi o'rganishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyatni ta'lim (o'quv) deb ataladi. Ta'lim faoliyati o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

a) ma'lum bir ideal va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyat bilan tashqil qilish uchun narsa va hodisalarning zarur xususiyatlari haqidagi informatsiyalarni o'zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimdir);

b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va operatsiyalarni o'zlashtirish (bu jarayonlarning mahsuloti malakalardan iborat bo'ladi);

v) ko'zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to'g'ri yo'l va operatsiya tanlash hamda nazorat qilish uchun ko'rsatilgan informatsiyalardan foydalanish usullarni yegallash (bu jarayonning mahsuli - ko'nikmadan iborat bo'ladi). Shunday qilib, insonning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Ta'lim jarayoni insoniyatning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishga yo'naltirilgandir.

Ta'lim faoliyati bolalarga, yoshlarga bilim berib qolmay, ularni o'z harakatlarini, operatsiyalari va malaka, tajribalarni, bilish jarayonlarini boshqarish o'rgatishga yo'naltirilgan. Ta'lim faoliyati odamni mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

O'yin faoliyati. Maktabgachagacha yoshdagi kar bolalarning asosiy faoliyati (3-7 yosh) o'yin faoliyati sanaladi. O'yinning xarakatli, didaktik va syujetli-rolli turlari tasniflanadi. Syujetli-rolli turlari tasniflanadi. Syujetli-rolli o'yin jarayonida bolalar o'zlariga berilgan rollar asosida katta odamlar hayoti, ularning faoliyati va o'zaro munosabatini ifodalaydi. O'yin davomida atrof-olam haqidagi tasavvur aniqlanadi, chuqurlashadi, ularni bilimi kengayadi, qiziqishlari shakllanadi (xayvonlar, kitob, mehnat faoliyatiga qiziqish). O'yin jarayonida bolalar ijtimoiy xulq qoidalarini egallaydilar.

Syujetli-rolli o'yin bolani o'rganish vositasi sanaladi, xususan uyida bola o'z xususiyatlarini imkoniyatini ochib beradi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar meyordagi bola singari barcha o'yin turlarini sevib o'ynaydi. Bolalar syujetli-rolli o'yinda kattalar faoliyati va o'zaro munosabati aks etadi. Dunyoqarashni, dunyoni idrok etishni nutqiy muloqot chegaralanganligi sabali o'ziga xos bo'lgani uchun ularni syujetli-rolli o'yin faoliyati eshituvchi bolalarning o'yin faoliyatidan farq qiladi. Aqli zaif bolalar o'yinlari eshituvchi bolalarga nisbatan predmet protsessual darajada to'xtab turadi hamda juda sodda ko'rinishida bo'ladi. Predmetlarni o'yin jarayonida qo'llashda sog'lom bolalar uni yangi nomini qo'llashadi. Aqli zaif

bolalar predmetlarni almashtirishda qiyinchiliklarga uchraydilar. Kattalar qalamni qoshiq yoki kubikni dazmol o'rnida qo'llashni aytsalar va bola buni amalga oshirsa, bu uni qalam bilan ovqat yeyishi va kubik bilan dazmol qilishni boshlaydi degani emas. Syujetli-rolli o'yin jarayonida umumiy va nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra murakkablashadi. Ular oddiy predmet xarakatidan inson o'zaro munosabat va sezgilarini tasvirlashga o'tadilar. Uning faoliyati pedagogik raxbarligiga bog'liq bo'ladi. Maxsus ta'lim jarayonida o'yin faoliyati o'zgaradi, turli mazmunga ega syujetli-rolli o'yinlar yuzaga keladi. Syujetli-rolli o'yinlar maktabgacha yoshida ham saqlanib qoladi. Bolalarda turli qoidalarga ega intellektual o'yinlar katta o'ringa ega.

Hayotining birinchi yillaridayok bolada faoliyatning oddiy shakllarini o'zlashtirishi uchun dastlabki shart - sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi o'yin faoliyati hisoblanadi. Ma'lumki, o'yin faoliyatini hayvonlarning bolalarida ham kuzatiladi. Bu - ularning turli xildagi xarxashalaridan, urishishni taqlid qilishi, u yoqdan - buyoqqa chopishi va hokozolardan iboratdir. O'yin faoliyati bilan organizmda kuch - quvvat almashinuvi o'rtasidagi bog'lanish o'yinga nisbatan mayilning tug'ilishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin bolalarda ham o'z faolligini ro'yobga chiqarish shakli, hayot kechirish va faoliyat ko'rsatish shakli bo'lib xizmat qiladi. Bolaning o'yin harakatlari avval boshdanoq buyumlardan foydalanishning insoniy usullari va amaliy xulq - atvorining katta yoshdagilar bilan muloqot jarayonida va katta yoshdagilar raxbarligida o'zlashtirilib olinadigan insoniy shakllari zahirida rivojlanib boradi.

O'yin faoliyati tufayli so'zning ahamiyatini buyumning tashqi ko'rinishidan amalda ajratiladi va bu mohiyat buyum ustidagi harakatlar bilan, uning kishi faoliyatidagi vazifasi bilan bog'lanadi. Buyumlarga bo'lgan munosabat odamlarning buyumlarga nisbatan funktsiyalari sifatida nomoyon bo'la boshlaydi. Rolli o'yinlar paydo bo'ladi. Rolli o'yinlarda bola katta yoshdagi kishilarda o'zi kuzatgan ijtimoiy funktsiyalarini, ularning shaxs sifatidagi xulq - atvorini aynan takrorlaydi.

O'yin maktabgachagacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi.

A.V.Zaporojes bolalar o'yinining ilk yoshdan boshlab kuzatib borish natijasida uni xfrakatga keltiruvchi sabablar, rivojlanish qonuniyatlari, har xil yosh bosqichlarida bolalar o'yinining o'ziga xos tomonlari, mazmuni va tuzilishini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

Bolalar bog'chasining pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda kagga bo'lib, o'yindan maktabgachagacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim borishda ksng foydalaniladi. Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin maktabgachagacha tarbiya yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;

- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya bershining metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir;

Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qiliti orqali bolalarga axloqiy munosabatlari, bolalar o'ynining rivojlanishi darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatadi.

Bolalar o'yini o'zining mazmuni, hususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir, shuni uchun uni quyidagicha turkumlarga ajratiladi:

1. Ijodiy o'yinlar.

2. Qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Ijodiy o'yinlarga drammalashgan o'yinlar, qurilish o'yinlari, tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlar kiradi.

Qoidali o'yiplarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqali o'yinlar, ermak o'yinlar.

Bolalarga ta'lim tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish kerak. Bolalar bog'chasida «ta'lim va tarbiya dasturi» da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir.

Psixologlar o'yinni bog'cha yoshi davrida yetakchi faoliyat deb hisoblandilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishni ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. Uynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmuni jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil qilingan bolalar jamoasi zarur bo'ladi. O'yin bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida, bog'chaning ta'limtarbiya ishida axloqiy, mehnat va estetik tomonidan tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, hayotiy faollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi. Atoqli pedagog va shifokor N.A.Arkin o'yinni ruhiy vitamin deb bekorga aytmagan.

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ijodiy o'yinlardan muhim bilimlarni egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy

kuchini ishga soladi, tafakkurni, hayolni, diqqatni, xotirani faollashtirishni talab qiladi. Bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashni o'rganadi.

O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'otadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilish doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalarda kattalarning mehnatiga, ijtimoiy hayotga, kishilarning qahramonona ishlariga qiziqish sari ularda bo'lajak mutaxassislik, yaxshi ko'rgan qahramonlariga tahdid qilish kabi dastlabki orzular paydo bo'ladi.

A.V. Zaporozhes o'yinning ahamiyati haqida gapirar ekan, o'yinda tevarakatdagi predmet va voqealarning umumlashgan tipik obrazlari uyushmasini yaratish qobiliyati rivojlanadi, keyin ular har xil qilib, o'zgartiriladi. Bolaning kelajakdagi butun rivojlanishi uchun hayol yoki obrazni tafakkurning bunday rivojlanish xususiyati bebaho qimmatga egadir, deydi.

Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysundirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishi, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Ta'lim turli-tuman usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bu kuzatish, suhbat, o'qib berish va hokazolardir.

O'yinda aqliy rivojlanish bilan bog'liq holda axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislatni, ulug'vor orzular va intilishlarni, sog'lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi. O'yinda bola o'z xulqini boshqarishga, qiyinchilikni yengishga, o'z maqsadida qat'iy turib yetishishga o'rganadi.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqdarini javobgarlikni sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iboratdir. O'yinni bolalar o'z ixtiyorlari bilan o'ynaydilar, ammo boshqa xech bir faoliyatda o'yindagi singari bolalarning xulq bilan bog'liq bo'lgan qat'iy qoida yo'q. Bunday qat'iy qoida ijodiy o'yinga ham, qoidali o'yinga ham, qoidani bolalar o'zlari o'rnatadigan

o'yinga ham tegishlidir. Mana shuning uchun ham o'yin bolalarni intizomli qiladi, ularni o'z harakatlari va fikrlarini qo'yilgan maqsadga bo'ysundirishga o'rgatadi.

O'yinlarning turlari, mazmuni ularni har bir yosh guruhlari bo'yicha tashkil etishin taqozo qiladi. O'yin pedagogik jarayonda mehnat va ta'lim, bolalarning boshqa faoliyatlari bilan o'zaro bog'liq holda olib boriladi.

O'yinda bolalar tevarak-atrofdagi voqelikni amaliy jihatdan o'zlashtirib boradi. Bolalar o'yin jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, uni takomillashtirishni asosiy maqsad qilib qo'ymaydilar, biroq kattalardek harakat qilish, boshqa bolalar bilan aloqaga kirishish o'yin vazifalarning jozibadorligi, musobaqa va shunga o'xshashlar bolaning bilimlarini egallab, mustahkamlab borishni taqozo etadi. Bolalar hatto didaktik o'yinlarni ham biron narsani bilib olish uchun o'ynamaydilar. Ammo o'yin jarayonida bolaning bilimi o'zi sezmagani holda o'z-o'zidan takomillashib boradi.

Ta'lim jarayonida bolalarning bilimini shakllantiruvchi aniq maqsad qo'yiladi. Tarbiyachi bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, ularda o'quv faoliyatining eng oddiy malakalarini shakllantirib boradi. Ta'limning xususiyati va mazmuni bolalar o'yinlari mazmuniga ta'sir etib, uni rivojlantiradi. Mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda egallagan bilimlar bolalarning o'yin faoliyatini, qiziqishlarini rivojlantiradi.

Ikkinchi tomondan, turli xil metodlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda turli-tuman o'yin usullaridan ham foydalaniladi. Bunday usullar bolalar diqqatini to'plash, ular idrokini faollashtirish, bilimlarini to'larok o'zlashtirib olish imkonini yaratadi.

Pedagogik jarayonda mehnat bilan o'yin o'rtasida umumiylik va farq borligini ham aytib o'tish kerak. Bolalarning qo'l mehnati o'yin bilan bevosiga bog'liq. Ayniqsa, katta guruhga borganlarida bolalar mavjud o'yinchoklar bilan o'ynabgina qolmay, yetishmaganlarni o'zlari kattalar yordamida qogoz, yog'och, karton, tabiiy materiallardan yasab oladilar.

Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari (V.I.Loginova, M.V.Krulext) natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik guruhlardagi mehnat faoliyatiga o'yin xususiyatlarini kiritishni taqozo etadi. Ma'lum bo'lishicha avval bolalar kattalar mehnat jarayonini qanday bajarganlarini o'zlashtirib olib, keyin o'z o'yinlarida buni aks ettirar ekanlar, shundan keyingi mustaqil mehnat faoliyatiga o'tar ekanlar.

Bolalar mehnati qiziqarli bo'lishi uchun ko'pincha o'yin tarzida o'tiladi. Masalan, maydonchani tozalaganda bolalar axlatlarni zambillarda tashishi o'rniga mashinalarida tashiydilar, ustaxonada kartonlardan qutichilar yasaydilar va hokazo.

Bolalar o'z o'yinlarida kattalar mehnatini aks ettirishlari ularda bu mehnatga hurmatni shakllantirib boradi. Bu ham o'yinning mehnat bilan bog'liqligiga misol bo'la oladi. Shunday qilib, o'yin yaxshi yo'lga qo'yilgan pedagogik jarayonda bolalarning butun hayotini kamrab oladi va uning qiziqarli ta'minlaydi.

Bolalar o'yinining o'ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o'zaro

munosabatlarini aks ettiradi. O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro stansiyasi, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin va h.k.;

Bolalar o'yinining yana bir xususiyati uning xavaskorlik tarzida bo'lishidir (xususiyl faoliyat). Bu uning tashqi belgilari bo'lmay, balki xaqiqiy mohiyatidir. O'yinning ijodkori, yaratuvchisi-bolalardir. Ular o'yinda o'zlariga tanish bo'lgan hayotiy voqea va hodisalarni ularga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o'yinining yana bir o'ziga xos xususiyati - unda harakat, so'z va obrazlarning o'zaro bog'lanib ketishidir. O'yinda bola o'zi aks ettirayotgan qahramonlarning xis- hayajoni, kechinmalari, harakatlari bilan yashaydi.

Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qaxramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor, xullas hammahxammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga bir xilda yordam beradi.

Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi.

O'yinda obraz, o'yin harakati, so'z o'zaro bog'lanib, o'yin faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi, borliqni aks ettirish vositasi bo'lib xizmat qo'ladi.

Bolalarning o'yinlari qiziqarli, mazmunli bo'lishi uchun o'yinning hamma turlaridan o'rinli foydalanilsa, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishiladi.

O'yinlar bolalarning jismoniy yetuk bo'lishi, aqliy va axloqiy jixatdan tarbiyalanishlari, nutq nuqsonini bartaraf etish uchun muxim ahamiyatga ega. Shu bilan birga o'yin bolalarni rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, ya'ni o'yin jarayonida o'zaro munosabat malakalari paydo bo'ladi, murakkab axloqiy, xis-tuyg'ular shakillana boradi.

Har bir o'yin tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'yinni tug'ri tanlash va bolalar bilan tug'ri o'tkazish juda muxim ahamiyatga ega.

O'yinni o'tkazish jarayonini shunday uyushtirish kerak-ki, unda bolalar urtoqlarcha munosabatda bo'lishi, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mexnatga tug'ri munosabatda bulishini urgansin.

O'yin bolalar uchun xaqiqiy xayotdir. Tug'ri tashkil qilingan o'yin nutqida nuqsoni bulgan bolalarda yangi so'zlarni ishlatish uchun extiyoj tug'diradi, ularning lug'at boyligi oshadi, nutqidagi kamchilklar korreksiyalanib boriladi.

Mashxur shifokor va pedagog Ye.A.Arkin o'yin bolalaning jismoniy rivojlanishiga katta ta'sir etadi deb ta'kidlaydi.

O'yin bolaning asosiy faoliyati xisoblanadi. O'yin bolaning garmonik rivojlanishining psixik jarayonlari shaxs va intellektini rivojlantiradi. Mashxur psixolog D.B.Elkonin o'z tekshirishlarida shuni aniqladiki: o'yin barcha psixik jarayonlarning elemetlaridan tortib eng murakkab psixik jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etadi. Ushbu ko'rsatganlarni inobatga olgan xolda tarbiyachilar o'yini tug'ri va mazmun jixatdan bolalarning yoshiga mos qilib tanlashlari kerak.

O'yin faoliyati orqali bolalarda quydagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O'yin orqali shaxsning ma'lum bir faoliyatiga bo'lgan qiziqishi ortadi.
2. Kommunikativ muloqat madaniyatini egallashga yordam beradi.
3. Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi bilim va o'zligini namoyon etishga imkon yaratadi.
4. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi, muljalni tug'ri olish ko'nikmalarni xosil qiladi.
5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarni barxam berish imkoniyati yaratiladi.
6. Shaxsning ijobiy xislat va fazilatlarini shakillantirishga zamin tayyorlaydi.
7. Insoniyat uchun ahamiyatli bulgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi.
8. O'yin ishtirokchilarida jamoa muloqat madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.
9. O'yin va o'yin mashqlari tortinchoq bolalarni ham foallashtirishga yordam beredi.
10. O'yin bolalani nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bulib, o'yin va mashqlarda nutqiy material ongli ravishda o'zlashtirilib, mexanik yodlashga yo'l quyilmaydi.
11. Такроплаш ва мустахкамлаш жараёнида нутқий материал системалаштирилади, умумлаштирилади, болалар ҳар бир буюмнинг о'зига хос сифат ва хусусиятларини билиб оладилар.

O'yin mavzusini tanlashda tarbiyachi mavzuning dastur talablariga muvofiqligini, hamda tushunarliliгини хисобга олади. O'yinlarning хаддан ташқари турли-туман бо'лишига ортиқча э'tибор бериш ҳам то'g'ри эмас. Ба'зан турли та'лимий вазифаларни амалга оширишда битта о'yинни турли вариантларда о'tказиш ҳам яхши натижалар беради.

Логопедик о'yинларни ташкил этишда, логопеднинг иши о'yинларни tug'ри ташкил этишга қаратилган бо'лиши керак, тарбиявий ташкилий ишлардан фарqli равишда.

Чунки логопад болалар ко'п холларда сог'ломдирлар ва уларнинг о'yинга булган эхтиёжлари о'з тенгқурларидекдир. Лекин шу билан бирга улар о'з тенгқурларидан фарқ қиладилар. Бу фарқ жисмоний ривожланишида, маторикасида, паряз параличларида ко'затилади.

Нутқ камчилиги психик сферага, айниса шу асосда: қо'zg'алувчанлик, депрессив холатлари, негативизм, тормозланиш холлари, камситганлик холатлари ко'затилади.

Ко'затишлар шуни ко'рсатадики, хатто мактабгачагача ёшдаги болаларда о'з камчилигини сезган холда о'зларини камситилгандек сезадилар. Бундай холатлар боланинг о'зига, жамоага бо'лган муносабатида уни бахолашда ко'затилади. Бундай холатларнинг барчаси боланинг харакатига ва хулқига та'sир этади. Бу болалар о'yинида ҳам сезилади. Г.В. Косованинг ко'затишича бундай болалар тенгқурлари билан о'yинашда о'зларини четга оладилар, чунки кулгу холатига тушиб қолишдан қурқадилар. Лекин о'yин мазмунини ва қоидаси улар учун лойиқдир.

Умумий ва нутқ моторикасининг бо'зилиши (дизартрикларда) болаларда о'йинда тез чарчаб қолиши ко'зтилади. Харакат безовталиги, о'зига ишончсизлик, нутқий чарчашлар коллектив о'йинга киришида қийинчилик туг'диради.

Алалик болаларда, о'йинчоқлар билан о'йналадиган о'йин мазмуни ва мақсадга йуналтирилган ҳаракатни билдирмайди. О'йин уларда бир хил мазмунни ва тақлидни акс эттиради. Купинча улар о'йинчоқларни бир қулдан иккинчи қуларига о'тказадилар, о'йинчоқни ко'затадилар, лекин о'йнамайдилар. **Дудуқланувчи** болаларда о'йинда уятчанлик, нотуг'ри нутқидан қурқиб о'йинга тез кириша олмасликларини ко'затамиз. Улар о'йинда ко'пинча томошабин бо'ладилар ёки иккиламчи ролларни танлайдилар.

Дидактикада о'йинлар ижодий ёки сюжетли-ролли ва қоидали о'йинларга бо'линади. Қоидали о'йинлар о'з навбатида дидактик ва ҳаракатли о'йинларга бо'линади.

Ижодий о'йинларни мазмунини болаларнинг о'злари уйлаб топадилар ва уларда о'з таасуротларини, борлиқ ҳақидаги тушунчаларини ҳамда унга муносабатларини акс эттирадилар.

Қоидали о'йинларда эса тайёр о'йин мазмуни, аниқ қоидалари, ҳаракатларини кетма-кетлиги олдиндан белгиланган. Ижодий о'йинлар билан қоидали о'йинларни фарқи шундаки: ижодий о'йинда болаларни фаоллиги сюжетни ривожланишига қаратилган бўлса, қоидали о'йинларда эса ақлий вазифани бажариш қоидаларга амал қилиш биринчи уринда бо'лади.

Мактабгачагача ёшдаги болаларни асосий фаолияти бу о'йиндир. Нар қандай о'йин турлари, о'йин элементлари, нутқида нуқсони бор болалар билан олиб бориладиган коррекцион ишларни барча босқичларида фойдаланилади (М.Ф.Брунс, Н.А.Власова, Г.А.Волкова, И.И.Демина, Е.Ф.Рау, В.И.Рождественская, М.Е.Хватцев ва бошқалар).

О'йин фаолиятидан ко'п қиррали (кенг) фойдаланиш, о'йин орқали болага ҳар томонлама та'сир этишдир.

Мактабгачагача тарбия ёшида нутқида нуқсони бор болаларга та'сир этиш воситаси сифатида қоидали о'йинлар дидактик ва ҳаракатли о'йинлардан фойдаланилади. Аксарият педагог ва психологлар о'йин назарияси билан шуг'илланиб келганлар. Уларнинг фикрича о'йинлар болаларнинг ма'навий ва ахлоқий камолотида уларнинг мукаммал инсон бо'либ, камол топишида г'оят катта тарбиявий та'сир қудратига эгадир. О'йин орқали болалар жамоа бо'либ яшашга, уюшқоқликка биргаликда ижод қилишга, мустақилликка о'рганадилар. Ахлоқий сифатлари ва тушунчалари, фазилатлари таркиб топади.

Нутқ камчилигига эга бо'лган болалар билан ишлашда о'йин элементлари, о'йин усулларида фойдаланиш кенг тарқалган.

Муаллифларнинг аксарияти о'йинни нутқга та'сир этувчи восита сифатида қарашган.

Власова логопедик ишларни барча босқичларида расмли о'йинлардан кенг фойдаланишни таклиф этди:

- 1) расмларни номлаш
- 2) расмли лото о'йини, расмга қараб гапириш.
- 3) диққат ва хтирани ривожланиши учун таниш расимлар юзасидан савол-жавоб о'тказиш.
- 4) нутқ машқларини аввал таниш расимларни та'рифлаб бериш, сунг нотаниш бир қатор расмлар бо'йича ҳикоя тузиш.
- 5) Тинглаган ҳикояларни гапириб бериш.
- 6) ички нутқ ко'ргазмасиз машқ қилиш.

М.Ф.Брунс фикрича о'йин орқали дудуқладиган болани характери шакилланади, уни интизоми, жамоага муносиб тафаккури фаол нутқ фаолияти шакилланади. О'йинда эмоционал томони болаларда қизиқиш уйғ'отади ва логопедга болага керакли вақтда та'сир ко'рсатиш учун имконият беради. О'йин болаларни жисмоний тарбиялаш системасида, бог'чанинг та'лимтарбия ишида ахлоқий, меҳнат ва эстетик томонидан тарбиялашда катта о'рин тутди.

О'йинда ёш организмга хос бо'лган талаб ва эҳтиёжлар қондирилади, хаётий фаоллик ортади, бирдамлик, тетиклик, қувноқлик тарбияланади. Шунинг учун ҳам болаларни жисмоний тарбиялаш системасида о'йин муносиб урин эгаллайди. Атоқли педагог ва шифокор Е.А.Аркин о'йин рухий витамин деб бекорга айтмаган.

О'йин та'лим ва машғ'улотлар билан, ко'ндалик ҳаётдаги ко'затишлар билан о'звий бог'лиқ булиб жуда катта та'лимий-тарбиявий аҳамиятга эгадир. Ижодий о'йинлардан муҳим билимларни эгаллаш жараёни юзага келади, бу боланинг ақлий кучини ишга солади, тафаккурни, хаёлни, диққатни, мусоқилликни шакиллантиради.

Қоидали о'йин боланинг сенсор ривожланиши, тафаккур ва нутқини, ихтиёрсиз диққатини ва хотирасини, ҳар ҳил ҳаракатларини мунтазам равишда машқ қилдириб бориш имконини беради. Нар бир қоидали о'йин ма'лум дидактик мақсадга эга булиб, болани умумий ривожлантиришга қаратилган бўлади. Та'лимнинг о'йин шаклида булиши муҳим аҳамиятга эга булиб, боланинг ёш хусусиятларига мос келади. Қизиқарли о'йин боланинг фаоллигини оширади, о'йинда бола машғ'улотдагига нисбатан мураккаброқ масалани ҳал қилиш мумкин. Бу-та'лим бутунлай о'йин шаклида булиши керак деган гап эмас. Та'лим турли-туман усуллар ва методларни қуллашни талаб этади. О'йин та'лимнинг шаклларида бири булиб, боқа бир метод билан қушиб олиб борилгандагина яхши натижа беради.

Болалар о'з о'йинларида катталар меҳнатини акс эттиришлари уларда бу меҳнатга ҳурматни шакиллантириб боради. Бу ҳам о'йиннинг меҳнат билан бог'лиқлигига мисол бо'ла олади. Шундай қилиб, о'йин яхши йо'лга қўйилган педагогик жараёнда болаларнинг бутун хаётини қамраб олади ва унинг қизиқарли о'тишини та'минлайди.

Болалар о'йинининг о'зига хослиги шундаки, у теварак-атрофдаги ҳаётни, кишиларнинг фаолияти ишлари, ҳаракатларини, уларнинг иш

жараёнидаги о‘заро муносабатларини акс эттиради. О‘йин пайтида хона болалар учун денгиз, о‘рмон, метро станцияси, темирйўл вагони бо‘лиши мумкин ва х.к.

Болалар о‘йинининг яна бир хусусияти унинг хавоскорлик тарзида булишидир(хусусий фаолият).Бу унинг ташқи белгилари бо‘лмай,балки ҳаақиқий мохиятидир.О‘йиннинг ижодкори,яратувчиси-болалардир.Улар о‘йинда о‘зларига таниш булган ҳаётий воқеа ва ходисаларни уларга булган муносабатлаини акс эттирадилар.

Болалар о‘йинининг яна бир о‘зига хос хусусияти-унда ҳаракат, со‘з ва образларнинг о‘заро бог‘ланиб кетишидир. О‘йинда бола о‘зи акс эттираётган қаҳрамонларнинг хис-ҳаяжони, кечинмалари, ҳаракатлари билан яшайди. Бола ҳеч қачон жим о‘йнамайди,битта о‘зи о‘йнаса ҳам у о‘йинчоқ билан гаплашади, о‘зи тасвирлаётган қаҳрамон билан мулоқот урнатади, онаси, бемор, шифокор, хуллас ҳамма-хамманинг урнига о‘зи гапираверади. Со‘з образининг яхшироқ очилишига бир хилда ёрдам беради.

Нутқ о‘йин жараёнида жуда катта аҳамиятга эга. Нутқ орқали болалар фикр алмашади, о‘з хис-туйғ‘у, кечинмаларини уртоқлашади. Со‘з болалар уртасида дустона муносабатлар о‘рнатилишига, теварак-атрофдаги ҳаёт воқеалари ва фактларига бир хилда муносабатда бо‘лишга ёрдам беради. О‘йинда образ, о‘йин ҳаракати, со‘з о‘заро бог‘ланиб, о‘йин фаолиятининг асосий негизини ташкил этади, борлиқни акс эттириш воситаси булиб хизмат қилади.

Болаларнинг о‘зи яратган о‘йиндан келиб чиқадиган ёки катталар томонидан таклиф этилган о‘йиннинг г‘ояси,мазмун,о‘йин ҳаракатлари,роллар,о‘йин қодалари унинг то‘зилишини ташкил этувчи қирраларидир.

Нутқ аппарати ҳаракатини ривожлантиришга қаратилган о‘йинлар

Бу машғ‘улотларнинг асосий вазифаси болаларда нутқ аппарати,я’ни тил,лаб,ва пастки жағ‘ тилчанинг ҳаракатланишини ривожлантиришга қаратилган.

“Ширин мураббо” о‘йини.

Мақсад: Тил ҳаракатини фаоллаштириш.

О‘йиннинг бориши: Болаларга мураббони ялаётган қизнинг расми ко‘рсатилади. Қизнинг юқорги ва пастги лабига мураббо ёпишиб қолди. Қиз мураббони тили билан ялади.(Тил ҳаракати билан мураббони ялаш ко‘рсатилади). Со‘нгра болалар ҳам ушбу машқни қайтарадилар. Логопед ҳар бир бола машқини қандай бажараётганини кузатиб боради.

Тишларимизни тозалаймиз.

Мақсад: Тил ҳаракатини фаоллаштириш.

О‘йиннинг бориши: Болалар логопедга қараган ҳолда бир қатор бо‘либ о‘тирадилар. Болаларга расм ко‘рсатилади. Қаранглар болалар, бола қандай қилиб тишларини тозалаяпти. Биз ҳам ҳозир сизлар билан тишларимизни тозалаймиз. Фақат шётка билан эмас, балки тилимиз билан. Аввал логопед тил билан тишларини тозалашни болаларга о‘зи ко‘рсатиб

беради. Со‘нгра ҳар бир болани олдига чақириб машқни бажаришини кузатиб боради. Машқ бир неча марта бажартирилади (Бекинмачоқ, қувноқ тилча о‘йинлари).

Тарбияланувчилар нутқий қобилиятини ривожлантиришда педагогнинг предметли ва нутқий хатти-ҳаракатларга тақлид қилишга о‘ргатиш, уларнинг диққатини со‘злаётган шахсларга жалб қилиш, тақлид асосида со‘злаш ко‘никмаларини шакллантириш ко‘зда тутилди. Педагог хатти-ҳаракатларига тақлид қилиш йирик ва майда моторикани ривожлантиришга қаратилган «Ко‘згу», «Маймунчалар», «Мана шундай бажар» каби педагогик технология жараёнида о‘ргатиб борилди. Уларда болалар турли-туман ҳаракатлар ва тана ҳолатлари, юз мимикаси ва эмоционал ҳолатни такрорлашга о‘ргандилар. Нутқнинг мотор-ҳаракат асосини яратиш, шунингдек, кейинчалик дактил нутқ шаклини о‘злаштириш мақсадида асосий э‘тибор майда қо‘л моторикасига қаратилди.

Нутқни ривожлантиришга оид машғ‘улотларга ко‘плаб дидактик о‘йинлар киритилди. Уларнинг бориши жараёнида болалар сюжетли ва дидактик о‘йинчоқлар воситасида турли хатти-ҳаракатларга тақлид қилишга, педагогнинг фаолиятини кузатишга, унинг табиий қо‘л ишоралари ва юз мимикаси билан уйғ‘унлашиб кетган нутқига жавоб беришга о‘ргандилар.

Нутқни ривожлантиришга оид машғ‘улотлар мавзуй тамойилга риоя қилинган ҳолда ташкил этилди. Ма‘лумки, дастурда берилган мавзулар мазмунининг болалар ҳаётига яқин ва бог‘лиқлиги («О‘йинчоқлар», «Оила», «Мевалар ва сабзавотлар», «Озиқ-овқатлар», «Кийимлар», «Оёқ кийимлар», «Тана а‘золари», «Найвонлар», «Жиҳозлар», «Идиш-товоқлар», «Байрам», «Об-ҳаво»), та‘лим муддатлари, муайян мавсумий давр билан бог‘лиқ ҳолда йил давомида такрорланиб келади. Теварак-атроф билан танишиш, о‘йинлар, тасвирий фаолият жараёнида мана шу мавзулар бирдек э‘тибор марказида бо‘лдики, бу нутқий материал мазмуни устида иш олиб боришда пухта ко‘рғазмали асос яратишга имкон берди. Тақдим этилувчи луг‘ат материали турли маиший вазиятларда, болаларнинг эркин фаолиятида, тарбиячи ва сурдопедагогнинг барча машғ‘улотларида ишлатилди. Муайян мавзу бо‘йича нутқий материал ҳажмининг унча катта бо‘лмаслиги э‘тиборга олиб борилди. Бу материалларнинг болалардан турли фикрий ва нутқий фаолликни талаб қиладиган турли хилдаги о‘йинларда, шунингдек, бошқа қатор иш турларида иштирок этишлари жараёнида ко‘п марталаб такрорланишига алоҳида э‘тибор қаратилди. Масалан, «Кийимлар» мавзуси бо‘йича машғ‘улот о‘тказишда ҳар хил кийимларни уларнинг номларини атаган ҳолда ко‘риб чиқиш, турли ко‘ринишдаги ко‘йлаклар, шимлар ва Ҳ.К. тасвирланган расмларни танлаш, қирқилган расм қисмларини жой-жойига қо‘йиб чиқиш, кийимларнинг етишмаган қисмларини чизиб то‘лдириш, қо‘ғ‘ирчоқларни кийинтириш каби усуллардан фойдаланилди. Ана шундай педагогик технология билан со‘з ма‘нолари ва иборалар мазмунини асосли о‘злаштириш учун шарт-шароит яратилди.

Ақли заиф болалар та‘лим-тарбиясининг барча босқичларида гуруҳ а‘золари билан олиб бориладиган ялпи машғ‘улотлар етакчи о‘ринни

эгаллаб, тарбиячи ва сурдопедагоглар томонидан 6-8 нафар боладан иборат гуруҳ билан олиб борилади. Ушбу машғ‘улотларда тарбияланувчилар амалий фаолиятининг ташкил этилиши турли ко‘никма ва малакаларнинг эгалланишига, янги ма‘лумот олиш ҳамда мавжуд билимларнинг мустаҳкамланишига, ме‘ёрдан о‘згача бо‘лган ривожланиш хусусиятларининг коррекция қилинишига қаратилиши лозим.

Машғ‘улотлар мобайнида болаларнинг билиши, диққати ҳамда муқимлилик хусусиятларининг ривожлантирилишига э‘тибор қаратиш лозим. Та‘лим жараёнида тарбияланувчилар о‘ртасидаги ҳамкорлик ишлари о‘заро мулоқот о‘рната олишга, шахслараро муносабатларнинг ривожланишига, жамоада ишлаш ко‘никмаларининг шаклланишига ижобий та‘сир ко‘рсатади. Масалан, ҳамкорликда расм чизиш, яшаш-қуриш ва бошқа фаолият билан шуг‘улланиш жараёнида болаларда со‘злашув нутқининг табиий шароитга мос ривожланишига эришилади. Шунингдек, уларда до‘стларига ёрдам бериш, жамоаси учун қайғ‘уриш, мас‘улият ҳисси кабилар юзага келади. Болаларнинг машғ‘улотларда иштирок этиши мактабгача та‘лимига тайёр бо‘лишини ҳам та‘минлайди.

Дастлаб фаол фикрлашни талаб этувчи нутқ о‘стириш, эшитиш гидрокини ривожлантириш ва талаффуз малакаларини шакллантириш, оддий математик тасаввурларни ривожлантириш машғ‘улотларига, со‘нгра ҳаракат ҳамда эмоционал фаолликни талаб этувчи о‘йин, расм, мусиқа, жисмоний тарбия машғ‘улотларининг о‘тказилишига э‘тибор қаратилди.

Педагог ходимларнинг фаолиятлари билан танишиш уларнинг машғ‘улотларнинг та‘лимий, тарбиявий, коррекцион ва ривожлантирувчи мақсадларини белгилашларида қийинчиликларга дуч келишлари кузатилган эди. Шунга ко‘ра тадқиқотда педагоглар билан маслаҳатлашиб, муаммони ҳал қилишда нималарга э‘тибор бериш кераклиги, қандай мақсадларни ойдинлаштириш лозимлиги алоҳида та‘кидланди:

Та‘лимий мақсад: болаларда та‘лимий дастур ҳажмидаги назарий билим ва амалий ко‘никмалар ҳамда нутқий мулоқот ко‘никмаларини шакллантириш. Тарбиявий мақсад: болаларни миллий истиқлол руҳида тарбиялаш, уларнинг шахсий ва ахлоқий сифатларини шакллантириш, ижтимоий ҳаётда о‘з о‘рнини топа олишларига имкон берувчи ко‘никма ва малакалар билан қуроллантириш. Ривожлантирувчи мақсад: эшитишида муаммоси бо‘лган болаларда нутқий ва ижодий фаолликни, мустақиллик ва эркинликни шакллантириш.

Коррекцион мақсад: эшитишида муаммоси бо‘лган ҳар бир боланинг бирламчи нуқсони натижасида юзага келувчи иккиламчи нуқсонни ҳисобга олиб, табақаланган ҳолда ёндашган ҳолда уларнинг сифатли та‘лим олишларини та‘минлаш.

Савол ва топшириқлар

1. Мактабгачагача ёшдаги Ақли заиф болалар меҳнат фаолияти.
2. Мактабгачагача ёшдаги Ақли заиф болалар та‘лим фаолияти.
3. О‘йин фаолиятида - Ақли заиф болаларда та‘лимий-тарбиявий ишларни амалга ошириш йо‘ллари.

4. О‘йин фаолиятида – коррекцион ишларни амалга ошириш йо‘ллари.
5. О‘йин турлари ҳақида ма’лумот беринг.
6. Нутқни ривожлантиришга оид о‘йинлар ҳақида ма’лумот беринг.

Адабиётлар.

1. Шоумаров Г‘.Б., Мамедов К.К. Руҳий ривожланиши сустлашган болалар, Т.: О‘қитувчи, 1995.
2. Петрова В.Г., Беякова И.В. Психология умствено отсталях школьников, М.: АКАДЕМА, 2004.
3. Мо‘минова Л.Р., Ш.М.Амирсаидова ва бошқалар. Махсус психология. Т.: О‘збекистон файласуфлар миллий жамияти, 2013.

КЕЙСЛАР БАНКИ

1 - топшириқ

Берилган вазиятни таҳлил қилинг ва топшириқни бажаринг.

Логопедик гуруҳдаги НТРнинг 3 даражасидаги болалар ҳужжатларини о'рганиш вақтида логопед болаларнинг асосий қисмида нутқнинг лексик томонида қуйидаги камчиликлар мавжудлигини белгилади: лексик алмаштиришлар (плаш-палто, душ-чо'милиши, ин-қушининг уйи, чойнак-иссиқ, ёқа, енг – куйлак, бог'ловчи ин – бог'лайдиган, иляпа – шапка; кресло, табурет – стул, мойчечак, қо'нғ'ирочча, атиргул – гул, тор-тор эмас, калта-кичик, узун, кенг - катта ва хоказо). Савол:

1. Алмаштиришларнинг турининг аниқланг.
2. Бу камчиликни коррекциялаш учун топшириқлар ва машқлардан намуналар келтиринг.

2 - топшириқ

Берилган вазиятни таҳлил қилинг ва топшириқни бажаринг.

Логопедик гуруҳдаги НТРнинг 3 даражасидаги болалар ҳужжатларини о'рганиш вақтида логопед болаларнинг асосий қисмида нутқнинг лексикграмматик томонида қуйидаги камчиликлар мавжудлигини белгилади: аграмматизмлар, гапда со'зларнинг бог'ланишининг бузилганлиги: бола мактаб кетди, самолёт дала.... учиб о'тмоқда”; “копток стол ётибди, Саида мактаб... келди) Савол:

1. Камчиликларнинг характерини аниқланг.
2. Бу камчиликларни коррекциялаш учун машқ ва топшириқлардан намуналар келтиринг.

3 - топшириқ

Логопедик гуруҳдаги НТРнинг 3 даражасидаги болалар ҳужжатларини о'рганиш вақтида логопед болаларнинг асосий қисмида нутқнинг лексикграмматик томонида қуйидаги камчиликлар мавжудлигини белгилади:

Самолёт о'рмон учиб о'тмоқда”; “Копток стол ётибди”); Самолёт дала учиб о'тмоқда”; “Копток стол ётибди”).

1. Камчиликларнинг характерини аниқланг.
2. Бу камчиликларни коррекциялаш учун машқ ва топшириқлардан намуналар келтиринг.

4 - топшириқ

Берилган нутқ харитасини таҳлил қилинг ва қуйидаги топшириқни бажаринг.

Логопедик хулоса чiqаринг ва уни асосланг.

Логопедик гуруҳда НТРнинг 1 даражасидаги 3-4 ёшли болалар тарбияланяпти.. Савол:

1. НТРнинг 1 даражасидаги болаларда нутқни фаоллаштиришга қаратилган 5та иш усулини ёритинг.

2. Логопедик гуруҳ тарбиячилари учун сайр вақтида тарбияланувчиларнинг пассив луг'атини ривожлантиришга қаратилган тавсиялар беринг.

5 - топшириқ

Берилган вазиятни таҳлил қилинг ва топшириқни бажаринг.

3 ёш 10 ойлик қизнинг логопедик хулосаси НТР 2 даража.

Текиширишда қуйидагилар аниқланди: луг'ати камбағ'ал, жумла туза олади, яққол ифодаланган грамматик қурилишнинг камчиликлари мавжуд, талаффузда сирг'аловчи, шовқинли, сонор товушлар бузилган. Психомотор ривожданиши: ме'ёрда.. Нутқнинг пайдо бо'лиши: гуғулаш - 2 ойликда, гувраш -10 ойликдан, со'злар – 1 ёш 2 ойликдан, жумла – 2ёш 4 ойликдан, бог'ланган нутқ -3 ёш 2 ойликдан. 1 ёш 9 ойликда қизчага нутқнинг ривожланиши сусланиши таъхиси қўйилган. Қизчада буйракларнинг сурункали касаллиги кузатилади, соматик жиҳатдан нимжон. Қўпича негативизм реакцияси кузатилади, топшириқларни бажариш ёки жавоб беришдан бош тортади.

Савол:

1. Логопедик хулосанинг асосли эканлигини баҳоланг.
2. Ушбу боладанутқнинг ривожланишдаги имкониятини (прогнозини) аниқланг.

6 - топшириқ

Берилган вазиятни таҳлил қилинг ва топшириқни бажаринг.

6 ёшли НТР чапақай болани кузатиш жараёнида, унингижодий ишларини о'рганишда қуйидагилар аниқланди: қўчириб чизишда ва ёпиштиришда (аппликация қилишда)предметларни ойиванд тарзда ифодалаши, расмларни четларини чизиш ва штриховка қилишда контурдан ташиқарига чиқиб кетиши, қўчириб чизишда унинг ҳажмини жуда кичрайтириши, кетма-кетлигига э'тибор қаратмаслиги, эслаб қолиб чизишда расмнинг қўп қисмларини тушириб қолдириши, кузатилди, расм чизишнинг ёқтирмайди, расмда масалан 5та фарқларни топиш вазифаси берилса, уларнинг ярмини топади, тез чарчаб қолади, тез чалғ'ийди, топшириқда бо'лган қизиқиши тез йў'қолади.

Савол:

1. Кейинчалик бу симптомлар қандай нутқ камчилигини юзага келтириши мумкин, ёзма нутқда йў'л қўйиши мумкин бо'лган хатолар гуруҳини қўрсатиб беринг.
2. Оптик хатоларни олдини олиш ва уларни бартараф этишга қаратилган методик қўлланмалардан мисоллар келтиринг, топшириқларнинг мақсад ва вазифаларини изоҳланг.

7 - топшириқ

Берилган вазиятни таҳлил қилинг ва топшириқни бажаринг.

Болада товушлар талаффузининг полиморф бузилиши кузатилади:

сирғ'алувчи товушларнинг тишаро талаффузи, товушларни бир-бирига алмаштириш с-и, ч-т, р товушини таилаб кетиш. Савол:

1. Тиббий-педагогик тасниф бо'йича нутқ нуқсонининг изохданг.
2. Қайси мезонлар асосида товушлар талаффузини дифференциал ташхис қилишни ко'рсатинг.

8 - топшириқ

Қуйидаги вазиятни ҳал қилиш бо'йича логопеднинг ҳаракатларини изохланг.

Логопед катта гуруҳда тарбияланаётган талаффузида камчиликлари бо'лган болага э'тиборини қаратди ва унинг онасига бола билан логопедик машғ'улотлар о'тиш лозимлиги ҳақида тавсия берди. Боланинг онаси бунга э'тироз билдирди ва фарзандини диктор бо'лишга тайёрмаётганлигини айтди.

9 - топшириқ

Берилган вазиятни таҳлил қилинг ва логопедик хулоса қилинг.

Қосимова Муяссар, 4 ёш. Харақтери тинч. Шовқинга ахамият беради. Исмини билади. Кузатуви қисқа вақтли. Гаплашганда қулоқ солади. Со'злашувчига бир неча сония қараб туради. Гапирмайди, унли товушлар чиқаради. О'з-о'зига хизмат қила олмайди. Чайнамай ютади. Предметларни қо'лида ушлай олмайди.

МУСТАҚИЛ ИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ШАКЛИ ВА МАЗМУНИ

Тингловчи мустақил ишни муайян модулни хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланиб тайёрлаши тавсия этилади:

- ме'ёрий ҳужжатлардан, о'қув ва илмий адабиётлардан фойдаланиш асосида модуль мавзуларини о'рганиш;
- тарқатма материаллар бо'йича ма'рузалар қисмини о'злаштириш;
- махсус адабиётлар бо'йича модуль мавзулари устида ишлаш;
- тингловчининг касбий фаолияти билан бог'лиқ бо'лган модуль мавзуларни чуқур о'рганиш.

Мустақил та'лим мавзуси

1. Сенсор нуқсонли болаларнинг билиш жараёнларини о'зига хослиги.
2. Интеллектида нуқсони бо'лган болаларнинг билиш жараёнларини о'зига хослиги.
3. Ривожланишида нуқсони бо'лган болаларнинг нутқ хусусиятлари.
4. Ривожланишида нуқсони бо'лган болаларнинг фаолият хусусиятлари.

ГЛОССАРИЙ

Термин			Изоҳи
О‘збек тилида	Рус тилида	Инглиз тилида	
Мослашув	Адаптация	Adaptation	Индивидуал муҳит шарт-шароитига мослашиб кетиши жараёни
Артикуляция	Артикуляция	Articulation	Нутқ жараёнида талаффуз органлари: лаб, жағ, тилнинг турлича Наракати
Билиш қобилияти	Возможности познания	Possibilities of cognition	о‘қитувчининг та’лим жараёнининг иштирокчилари – талабалар, отаоналар, ҳамкасблар ва та’лим муассасасининг раҳбарлари билан осон мулоқотга киришиш, улар билан муносабатни то‘ғ‘ри йўлга қўйишга ёрдам берадиган индивидуал психологик хусусият
Вербал	Вербал	Verbal	оғ‘заки ифодаланган нутқ
Депрессия	Депрессия	Depression	тушкунлик кайфияти.
Диққат	Внимание	Attention	шахс онгининг нарса ва ҳодисаларга йўналганлигини акс эттирувчи психик жараён
Диалог	Диалог	Dialog	икки ва ундан ортиқ кишиларнинг о‘заро оғ‘заки гаплашиши
Диалогик нутқ	Диалогическая реч	Dialogue speech	нутқ турларидан бо‘либ, бунда со‘зловчилар баробар тенг, биргаликда фаоллик қўрсатади.
Дудуқланиш	Заикание	Stuttering	мускул-пай тортишиши туфайли нутқнинг темпи, ритм, раволигининг бузилиши
Жамоа	Группа	group	мақсадлари жамият мақсадига мос келадиган умумий фаолият билан бирлашган одамлар гуруҳи

Жамоанинг негизи	Основа группы	Basis of the group	умуий фикр, мақсад ва ишлаб чиқаришга тааллуqli қарорларни шакллантирувчи жамоа а'золари
Йо'налиш	Направлен ие	Direction	шахснинг хатти-ҳаракати ва фаолиятини аниқ шароитлардан қат'и назар ма'лум йо'лга йо'налтирувчи барқарор мотивлар

			йиг'индиси.
Индивидуа ллик	Индивидуа лност	Individuality	индивиднинг бошқалардан фарқланадиган ижтимоий хусусиятлари ва психикасининг о'зига хослиги, қайтарилмаслиги.
Ижтимоийл ашув	Социализи ция	Socialization	инсон томонидан ижтимоий тажрибани эгаллаш ва ҳаёт - фаолият жараёнида уни фаол тарзда о'злаштириш жараёни.
Интроверт шахс	Интровертн ая личност	Introverted personality	шахснинг ҳар қандай шароит ва ҳолатларида о'з ичида кечаётган фикрларини баён этиш эҳтиёжининг ниҳоятда пастлиги.
Коммуника тив	Коммуника тив	Communica tive	шахслараро муносабатларда ма'лумот, ахборот, g'оялар алмашинуви жараёни.
Ко'никма	Умение	Skill	одамнинг ма'лум ишни бажаришга тайёрлигида ко'ринадиган қобилияти.
Малака	Навык	acquired habit, cumsavvy	машқ қилиш жараёнида иш ҳаракатлар бажарилишининг автоматлашган усуллари.
Мулоқот	Общение	Communica tion	икки ёки ундан ортиқ одамларнинг о'заро бир-бирига та'сир этиши.
Монолог	Монолог	Monologue	ма'рузачи томонидан нутқ со'зланиши, ма'рузачи актив, тингловчи пассив бо'лган жараён
Монологик нутқ	Монологич еская реч	Monologic speech	бир одамнинг о'з фикрларини og'заки ёки ёзма равишда ифодалаш нутқи.
Новербал	Невербал ный	Nonverbal	нутқсиз ифодаланган ҳаракат, мимика, ҳолатларнинг бошқа шахсга йо'налтирилиши.
Оила	Семя	Family	турмуш қуриш, қариндош-уруғ'чилик асосидаги кичик гуруҳ

Психологи к ташхис	Психологи ческий диагноз	Psychologic al diagnosis	бу синалаётган шахснинг шахсийруһий хусусиятларини о‘рганишнинг якуни
Психика	Психика	Psychic	юксак даражада ташкил топган материя, миянинг функцияси бо‘либ, унинг моһияти туйg‘улар, идрок, тасаввур, фикрлар, ирода ва бошқалар ко‘ринишида акс эттиришдан иборат.
Психик	Психическ	Mental	у ёки бу психик махсулт

АДАБИЁТЛАР РОЎЙХАТИ:

I. О‘збекистон Республикаси Қонунлари, Қарорлари, Фармонлари ва Президент асарлари.

1. “2017-2021 йилларда О‘збекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Наракатлар стратегияси”. О‘збекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.
2. “Мактабгачагача та’лим тизими бошқарувини тубдан
3. такомиллаштириш чора-тадбирлари то‘ғ‘рисида”. О‘збекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги ПФ-5198-сонли Фармони.
4. “2017-2021 йилларда мактабгачагача та’лим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари то‘ғ‘рисида”. О‘збекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги PQ-2707-сонли Қарори.
5. “Мактабгачагача та’лим тизимини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари то‘ғ‘рисида”. О‘збекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9
6. сентябрдаги PQ-3261-сонли Қарори.
7. “Нодавлат та’лим хизматлари ко‘рсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари то‘ғ‘рисида”. О‘збекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 сентябрдаги PQ-3276-сонли Қарори.
8. “О‘збекистон Республикаси Мактабгачагача та’лим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш то‘ғ‘рисида”. О‘збекистон Республикаси
9. Президентининг 30 сентябрдаги PQ-3305-сонли Қарори.
10. Мирзиёев Ш.М. “Эркин ва фаровон, демократик О‘збекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” мавзусидаги О‘збекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағ‘ишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: “О‘збекистон”, 2016. – 56 б.
11. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини та’минлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги О‘збекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағ‘ишланган тантанали маросимдаги ма’рузаси. – Т.: “О‘збекистон”, 2017. – 48 б.
12. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қат’ий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бў‘лиши керак. – Т.: “О‘збекистон”. – 2017.– 102б.
13. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “О‘збекистон”, 2017. – 488 б.

II. Махсус адабиётлар.

1. Аюпова М.Ю. Логопедия «О‘збекистон файласуфлар Миллий жамияти» Т.: 2007.
2. Mo‘minjonova Z., Ziyayeva K., Karimova SH., Xalilova G.lar “Ona tili” yordamchi mehnat ta’limi maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent:
3. “Artaprint” MCHJ 2005.

4. Нуркелдиева Д.А., Шичерина Я.Е. Илк, мактабгача ва мактаб ёшидаги болаларни психологик, педагогик ва логопедия текшириш. Т.: Янги аср авлоди, 2007.
5. Po‘latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014.
6. Рахманова В.С. «Махсус педагогика» Т.:“G‘.G‘улом” нашриёти, 2005.
7. Психолого-педагогическая диагностика. Под редакцией И.Ю.Левченко и
8. С.Д.Забрамной. М., АCADEMA, 2005.
9. John W. Jacobson, James A. Mulick and Johannes Rojahn. Intellektual and Developmental Disabilities.2007 Springer Science+Business Media, LLC New York.
10. Рахманова В.С., Нуркелдиева Д.А. Алоҳида ёрдамга мухтож болалар ижтимоий реабилитацияси. Т.: РБИММ, 2014.
11. Муминова Л.Р., Шичерина Я.Е., Нуркелдиева Д.А. Диагностика психофизического развития детей первых трех лет жизни. Т.: РЦСАД, 2007 г.

II. Электрон та’лим ресурслари

1. <http://www.edu.uz> – О‘збекистон Республикаси Олий ва о‘рта махсус та’лим вазирлиги сайти.
2. <http://www.uzedu.uz> – О‘збекистон Республикаси Халқ та’лими вазирлиги сайти.
3. <http://www.president.uz> – О‘збекистон Республикаси Президенти портали.
4. <http://www.gov.uz> – О‘збекистон Республикаси ҳукумати портали.
5. <http://www.xs.uz> – “Халқ со‘зи” газетаси сайти.
6. <http://www.lex.uz> – О‘збекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари ма’лумотлар миллий базаси сайти.
7. <http://www.kun.uz> – О‘збекистон ва жаҳон янгиликлари, энг со‘нгги хабарлар сайти.